

SAITKULOVA NAZOKAT RAXMONOVNA

**PEDAGOGIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARI
TALABALARINING AKADEMIK MOBILIGINI
RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI**

MUSTAQIL TA'LIM MISOLIDA

MONOGRAFIYA



Chirchiq – 2023

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

SAITKULOVA NAZOKAT RAXMONOVNA

PEDAGOGIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING
AKADEMIK MOBILIGINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI
(mustaqil ta'lim misolida)

MONOGRAFIYA

Chirchiq – 2023

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

UO'K 38.013.2
KBK 81.1
S-39

N.R. Saitkulova / PEDAGOGIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARI
TALABALARINING AKADEMIK MOBILIGINI RIVOJLANTIRISH
TEKNOLOGIYALARI (mustaqil ta'lim misolida) / Monografiya. Chirchiq,
"Zebo prints", 2023. 104-b

Taqrizchilar:

Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor – D.Ximmataliyev CHDPU

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, (Phd), dotsent - N. D.Hamidova
TDTU

Mazkur monografiya muallifning 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan dissertatsiya mazmunini o'zida aks ettirgan bo'lib, unda dastavval akademik mobillik tushunchasi va mohiyati, akademik mobillik borasidagi muammolar va ularning yechimlari, akademik mobillikning ta'lim sifatini oshirishdagi ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek akademik mobillikni rivojlantirishga zamonaviy yondashuvlar, akademik mobillikni rivojlantirish jarayonining mohiyati, vositalari, shakllari va usullari hamda faoliyatini baholash mezonlari, akademik mobillikni rivojlantirish samaradorligi tahlil qilish masalalari haqida so'z yuritiladi.

Mazkur monografiyadan ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilar, pedagogika yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan talaba va magistrantlar ilmiy-metodik qo'llanma sifatida foydalanishlari tavsiya etiladi. Shuningdek, undan barcha bosqich tadqiqotchilari izlanishlar olib borishda manba sifatida foydalanishi mumkin.

Monografiya Chirchiq davlat pedagogika universiteti
ilmiy-texnik Kengashining 2023-yil 15-dekabrda 20-sonli
majlisi qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-9586-4-9

© «Zebo prints»nashriyoti, Toshkent, 2023 y.
© N. R. Saitkulova

MUNDARIJA

KIRISH	4
I BOB. PEDAGOGIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING AKADEMIK MOBILIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI	6
1.10. Akademik mobillik tushunchasi hamda uning mazmun-mohiyati	6
1.20. Talabalarining akademik mobiligini ta'minlashda mustaqil ta'limga asoslangan izlanuvchanlikning o'ziga xos xususiyatlari	17
1.30. Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining akademik mobiligini rivojlantirishning mavjud holati	23
II BOB. PEDAGOGIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING AKADEMIK MOBILIGINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI USUL, VOSITA VA TEKNOLOGIYALARI	32
2.10. Talabalarining mustaqil izlanuvchanligi asosida akademik mobiligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish usullari	32
2.20. Talabalarining mustaqil ta'lim asosida akademi mobiligini rivojlantirish modeli va uning vazifalari	44
2.30. Talabalarining mustaqil izlanuvchanligi asosida akademik mobiligini ta'minlashda ingliz tili fanining o'rni va roli	51
III BOB. PEDAGOGIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING AKADEMIK MOBILIGINI RIVOJLANTIRISH TEKNOLOGIYALARIGA YO'NALTIRILGAN TAJRIBA-SINOV ISHLARI SAMARADORLIGI	63
3.10. Talabalarining mustaqil ta'lim asosida akademik mobiligini ta'minlash bo'yicha tajriba-sinov ishlarini tashkil etish	63
3.20. Talabalarining mustaqil izlanuvchanligi asosida akademik mobiligini aniqlash va baholash ko'rsatkichlari	72
3.30. Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining akademik mobiligini rivojlantirish texnologiyalari bo'yicha natijalar tahlili	81
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	85
ILLOVALAR	96

KIRISH

Zamonaviy dunyo rivojlanishining asosiy tendensiyalari sifatida keng qamrovli globallashuv va integrasiya ta'lim tizimi uchun yangi asosni tashkil etadi. Bizning ta'lim muassasalarimiz va ilm-fanning xorij ta'lim hududiga integrasiyalashuvi jarayonida ta'lim sifati garovi bo'lgan, akademik hamkorlikni sifat jihatidan yaxshilashga, yangi bilimlarni shakllantirishga hissa qo'shadigan akademik mobillik muhim o'rin tutadi. Ushbu hodisaning asosini Boloniya jarayoni tashkil etadi, uning maqsadi ta'limni demokratlashtirish, keng xalqaro tadqiqot va ta'lim faoliyati orqali yagona umumevropa ta'lim makonini yaratishdir.

Hozirda dunyoda ta'limning dolzarb yo'nalishlaridan biri ijtimoiy-iqtisodiy sohalar uchun kompetentli kadrlar tayyorlash uchun talabalar o'rtasida akademik mobillikni rivojlantirish hisoblanadi. Bu o'z navbatida talaba shaxsining intellekti, mustaqil fikrlash qobiliyati, ijodkorligi, fikrlash ko'nikma va malakalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Yetakchi xorij ta'lim muassasalarida bu borada samarali tadqiqotlar olib borilmoqda.

Bugungi kunda respublikamizda ta'lim tizimini isloh qilish jarayoni davom etmoqda. Shu munosabat bilan ularning ta'lim sifatini ta'minlash hamda talabalarda kasb-hunar sohalariga yo'naltirilgan bilimlarni o'zlashtirish jarayonidagi ijtimoiy rolini oshirish, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilishni ta'minlash sohasidagi ishtirokining ahamiyati ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan ilg'or xorijiy tajribalar asosida talabalar o'rtasida akademik mobillikni rivojlantirish usullarini, shart-sharoitlarini amaliyotga keng joriy etish asosida talabalarining bilimlarni o'zlashtirish sifatini oshirish muhim o'rin tutadi.

Shu bilan bir qatorda, dunyoning yetakchi ta'lim muassasalari tomonidan olib borilayotgan ilmiy izlanishlarda ta'lim muassasalari talabalarining akademik mobilligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan hamda ularning usullarini ta'lim jarayonida muvaffaqiyatli qo'llash xorij davlatlari yetakchiligida amalga oshirilmoqda.

Respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi ustuvor vazifalarga mos holda, kadrlar tayyorlashning ma'no-mazmunini tubdan

qayta ko'rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratish maqsadida o'quv jarayoniga ushbu standartlarga asoslangan talabalar o'rtasida akademik mobillikni rivojlantirish usullari va dasturlarini keng joriy etish dolzarb vazifalar etib belgilandi.

Talaba ta'lim fanlari, shakllari, joyi, davomiyligini tanlashi, ta'lim yo'nalishini yaratishi va o'z maqsadiga erisha olishi, ya'ni ta'limda akademik mobillik bo'lishi kerak. Hozirgi sharoitda talabalar o'rtasida akademik mobillikni rivojlantirishga harakatlar bo'lmoqda, ammo shakllanishning past darajasi bu jarayonning o'z-o'zidan sodir bo'lishini ko'rsatadi, shu bilan birga, ta'lim subyektlarining maqsadli faoliyati shoshilinch zaruratdir, bu esa rejalashtirish, tashkil etish, rag'batlantirish va nazorat qilish, ushbu ta'lim natijasi talabalarining rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni ta'minlaydi.

Respublikamiz talabalari o'rtasida akademik mobillikni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirish hamda "Hayot davomida ta'lim" olishni ko'nikmaga aylantirish bugungi kun ta'limida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

I BOB. PEDAGOGIKA OLIV TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING AKADEMIK MOBILIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

1.1§. Akademik mobilik tushunchasi hamda uning mazmun-mohiyati

"Mobilik" tushunchasi tez harakat qilish qobiliyati sifatida tushuniladi. Sotsiologiyada "ijtimoiy mobilik" tushunchasi qo'llaniladi, uni birinchi marta P. A. Sorokin nazariy jihatdan chuqur o'rgangan. Tadqiqotchi bu atamani ijtimoiy fanga 1927 yilda kiritgan. Muallif ijtimoiy mobilikni "indivdning yoki ijtimoiy obyektning, ya'ni inson faoliyati natijasida yaratilgan yoki o'zgartiriladigan hamma narsaning bir ijtimoiy mavqedan ikkinchisiga o'tishi" deb ta'riflagan [75]. Keyinchalik bu ta'rif u tomonidan "indivdning ijtimoiy makonichidagi harakati hodisasi" deb o'zgartirildi. Mobilikni ana shunday tushunish sotsiologiyada mustahkam o'rin olgan.

P. A. Sorokin ijtimoiy mobilikning bir necha turlarini aniqlaydi [76]. Albatta, muallifning ushbu taklif etgan turlaridan talabalarining akademik mobiligini ta'minlashda foydalanish yaxshi natijalar beradi. Ijtimoiy-professional mobilik deganda, odamlarning o'sib borayotgan moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilganligi ikki tomoni bo'lgan faoliyat: tashqi sharoitlar tufayli holatning o'zgarishi va qanday qilib shaxsning ichki o'zini o'zi takomillashtirilgan ishi tushuniladi.

D. A. Morilev tomonidan savodxonlik, ta'lim va kasbiy kompetensiyani ushbu ijtimoiy mobilikning asosi deb ataydi. Har qanday inson mobiligining asosi individual psixologik xususiyatlar (qobiliyatlar) va harakatga tayyorlik orqali ifodalangan shaxsiy mobilikdir deb izohlaydi [77].

Rus olimi T. V. Kotmakov olib brogan ilmiy tadqiqotda shaxsning mobiligini "shaxsning ajralmas sifati, u tomonidan mobilikning boshqa turlarini samarali amalga oshirish uchun asos bo'lib, harakat qilish uchun shakllangan motivatsiyada namoyon bo'ladi" deb ta'riflaydi, shuningdek "Mobilik" -o'rganish, ijodiy faoliyat qobiliyati, samarali muloqot qilish va shaxsning faol ijodiy o'zini o'zi rivojlantirish jarayonida bo'lishiga imkon beradi"-deb izohlaydi.

S. V. Kotmakov shaxs mobiligining uchta asosiy komponentlarini

ta'kidlab o'tgani o'zgarish, o'z-o'zini rivojlantirish istagida ifodalangan shaxsiy xususiyatlar; o'z-o'zini rivojlantirish yo'llariga egalik sifatida faol bo'lish qobiliyati; o'z-o'zini rivojlantirishga olib keladigan faoliyatdir [78].

Demak, shaxsning mobiligi o'zgaruvchan sharoitlarda uning o'zini o'zgartirish qobiliyati sifatida taqdim etiladi ya'ni, agar insonning mobiligini ta'lim orqali tuzatish mumkin bo'lsa, unda ta'lim insonning akademik mobiligi uchun zarur bo'lgan tarkibiy qismidir.

E. A. Lukichev akademik mobilikni Evropa ta'limining asosi, xalqaro akademiklikni tan olish mexanizmlari esa mobilikni ta'minlash elementlari deb hisoblaydi [81].

A. V. Kuzminning fikricha, akademik mobilik davlatning jahon ta'lim makoniga integratsiyalashuvining eng muhim omilidir [43].

L. V. Goryunov ilmiy qarashlarida akademik mobilikning ta'lim sohasidagi integratsiya jarayonlari va xalqaro hamkorlikning zaruriy tarkibiy qismi sifatida hamda atamani fazoviy mobilik sifatida belgilaydi, bu talabani ta'lim yo'nalishini erkin tanlashini va intellektual salohiyatga bo'lgan ichki ehtiyojni amalga oshirish masalasi ilmiy jihatdan asosli tarzda bayon qilingan. [82, 83].

T. A. Slaveninning akademik mobilik-bu ma'lum bir davr uchun ta'lim bilan bog'liq bo'lgan talabani boshqa ta'lim yoki ilmiy muassasaga (o'z mamlakatida yoki xorijda) ham yakka tartibda, ham ta'lim muassasasining birgalikdagi ta'lim va ilmiy-tadqiqot faoliyati doirasida harakatlanishidir. Ta'lim, o'qitish, tadqiqotdan so'ng talaba, pedagog, tadqiqotchi o'zlarining asosiy ta'lim muassasasiga qaytadi[84].

Bizning fikrimizcha, ushbu va shunga o'xshash muammolarni bartaraf etish-mustaqil izlanuvchanlikni rivojlantirish asosida talabalarining akademik mobiligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Rus olimi S. N. Ryagin "akademik mobilik ilm-fanni xalqaro ta'lim makoniga integratsiyalashuv jarayonining muhim jihatlaridan biridir. Akademik mobilikni intellektual yuksalish, ilmiy va madaniy salohiyat, resurslar, o'qitish texnologiyalari almashinuvining murakkab va ko'p qirrali jarayoni deb tavsiflaydi [46] va akademik mobilikning asosiy turlarini keltiradi

1.1-Jadval
Akademik mobillikning asosiy turlari

№	Turlari	Mohiyati
1.	Daraja	Bir ta'lim darajasidan boshqasiga o'tish, masalan, OTM talabasi – bakalavr - magistr va boshqalar.
2.	Mazmun	Fanlarni o'zlashtirish darajasini tanlash bilan bog'liq (asosiy, takomillashtirilgan, kengaytirilgan, chuqurlash-tirilgan va boshqalar).
3.	Faollik	O'quv fanini o'rganish usuli bilan bog'liq: mantiqiy, obrazli, aralash va boshqalar.
4.	Vaqtinchalik	Akademik ta'lim muddati va shakllarini tanlash bilan bog'liq ko'chirish (shakllar: kunduzgi, sirtqi va boshqalar; muddatlar: 4 yil - bakalavr, 2 yil - magistr, 5 yil - mutaxassis).
5.	Geografik	Ta'lim joyi bilan bog'liq harakatlar (shahar, mintaqaviy, xalqaro darajadagi ta'lim muassasasi va boshqalar).

Bir qator olimlar O. O. Martinenko, V. B. Bogoslovskiy, B. N. Chistoxvalov, Y. Y. Klementovichus, V. A. Galichin [31,29,30,39,34,28] va boshqalarning tadqiqotlari diqqatga sazovor. Ushbu olimlar tomonidan akademik mobillikning xususiyati va akademik mobillikni ta'minlash tizimi hamda rivojlantirish yo'llari hamda ularning mohiyati borasida tadqiqotlarni amalga oshirgan.

Shu o'rinda akademik almashinuvidagi muammolarga e'tiborni qaratadigan bo'lsak ko'pgina tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, Boloniya kelishivi dasturida qatnashgan talabalar akademik mobillikdagi asosiy to'siqlar - bu til va kredit tiziminig nomuvofiqligidir.

U. B. Bogoslovskiy "talabalarining akademik almashinuvini to'xtatuvchi asosiy omil bu masalaning moliyaviy tomonidir. –deb izohlaydi [29].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, talabalarining akademik almashinuvidagi to'siqlardan uchtagina alohida e'tibor qaratamiz, chunki bizning fikrimizcha ular talabalarining akademik mobilligi pedagogik muammolarning asosini tashkil qiladi.

Tadqiqot ishi aynan mustqil ta'lim asosida talabalarining akademik

mobilligini rivojlantirish texnologiyalari bo'lganligi bois bir qator olimlar tomonidan chuqur ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Mamlakatimizda R. X. Djuraev, B. S. Abdullaeva, U. Sh. Begimqulov, O. M. Musurmonova, Z. K. Ismailova, S. M. Matjonov, N. A. Muslimov, A. Qo'ysinov, M. F. Kakimova, O' Q. Tolipov, M. Tolipov, N. Xalilov, S. R. Abdalovalar tomonidan mustaqil ta'limni tashkil etish, uning pedagogik psixologik ahamiyati, talabalarining mustaqil ishlari, ularni tashkil etish asoslari, vosita va shakllari tahlil qilingan [11], [17], [12], [13].

Xorijiy olimlardan Mike Byrem Dj. Nayt, A. Okada, R. Rodslarning tadqiqotlarida talabalarining akademik mobilligi va mustaqil ta'limni tashkil etish mexanizmlari va ta'lim sifatini oshirish masalalari bo'yicha amaliy tadqiqotlar o'tkazilgan [119].

Ushbu tadqiqotchilar akademik mobillik ilm-fanni halqaro ta'lim makoniga integrasiyalashuv jarayonining muhim jihatlaridan biri bo'lib, akademik mobillikni intellektual yuksalish, ilmiy va madaniy salohiyat, o'qitish texnologiyalari almashinuvinig murakkab va ko'p qirrali jarayoni sifatida talqin qilishini ko'rib chiqadilar.

Demak, talabalarining akademik mobillikda ishtirok etish imkonini beruvchi shaxsiy fazilatlarini, nazariy bilimlarni, tegishli vakolatlarini o'z ichiga oladi. Talabalarining akademik mobillikka tayyorligi tarkibi motivasion-baholash, axborot, faollik-ijodiy, ijtimoiy-madaniy kommunikativ kabi komponentlar o'zaro birligi sifatida ishlab chiqiladi.

Talabalarining akademik mobilligini mustaqil ta'lim orqali rivojlantirishdan maqsad, talabani uzluksiz o'z-o'zini takomillashtirishga intiladigan shaxsan yetuk mustaqil shaxs sifatida shakllanganligini uning muvaffaqiyati va kelajakda o'zini o'zi anglash darajasini belgilab beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz bir qator adabiyotlarni o'rganib, mustaqil ta'limga berilgan ta'riflarni ko'rib chiqdik.

V. A. Galichinning fikricha, mobillik boshqa muammolarni hal qilish uchun ham muhimdir. Bu shaxsni rivojlantirish, bilim darajasini oshirish va odamlarni ish bilan ta'minlash imkoniyatlarini yaratish uchun zarur. Bu yangi bilimlarni to'plash, turli pedagoglardan o'rganish va yangi vaziyatlarda o'zingizni, takliflaringizni va malakalaringizni sinab ko'rish imkoniyatini beradi. Mobillik til o'rganishga yordam beradi [28].

T. A. Fugelov fikricha, ta'lim muassasasida shakllangan har bir muhit ham kasbiy mobillik talabani shakllantirish uchun sharoit yaratmaydi. Demak, ta'lim muassasasida yoshlarni ijtimoiy munosabatlarga kirishish, hayot va kasbga tayyorlash uchun shart-sharoitlarni yaratish zarurligini ta'kidlab o'tgan. [35].

Bizning fikrimizcha, talabalarining akademik mobilligini rivojlantirishda mustaqil ta'lim vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ◆ talabalarining nazariy bilimlarini oshirish;
- ◆ ularni o'qitish va tarbiyalashning yangi shakl va usullarini egallash;
- ◆ ilg'or pedagogik tajribani, pedagogika, psixologik va boshqa maxsus fanlar yutuqlarini, yangi pedagogik texnologiyalarni o'rganish va amaliyotga joriy etish;
- ◆ ta'lim muassasasida innovasion jarayonlarni rivojlantirish;
- ◆ mavzu bo'yicha uslubiy adabiyotlarni o'rganish; yangi texnika usullarini amaliyotga joriy etish;
- ◆ muammo bo'yicha seminar va konferensiyalarda qatnashish;
- ◆ hamkasblarning ochiq tadbirlariga tashrif buyurish;
- ◆ o'z faoliyatini tahlil qilish va o'z-o'zini baholashni amalga oshirish;
- ◆ zamonaviy texnologiyalar orqali tadbirlar (hodisalar, darslar) tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining akademik mobilligini mustaqil ta'lim orqali rivojlantirishdan ko'zlangan asosiy maqsad auditoriya mashg'ulotlarida o'zlashtirilgan bilim va malakalarni mustahkamlash, yangilarini o'zlashtirish va ijodiy ishlash malakasini tarkib toptirishdan iborat.

Mamlakatimizda talabalarining mobilligi markaziy Evropa talablari darajasida takomillashtirish bilan bog'liq omillar tahlil qilindi, bir qator obyektiv omillar keltirib o'tildi.

Xorijiy davlatlararo harakatlanishdagi sharoitlar bolalarning erta yoshdan turli tillarda so'zlashuvchilar bilan muloqot qilishga, turli tillarni o'zlashtirish imkoniyatiga sabab bo'ldi, bu o'z navbatida o'zaro akademik mobillikni tashkil qilishning qulayligiga imkon beradi. Shu o'rinda aytish kerakki, akademik mobillik oliy ta'lim tizimida yuqori ko'rsatkichlarga erishishning muhim omillaridan sanaladi. Bu ta'lim muassasalarini bir-biri bilan solishtirish imkoniyati, muhim jihatlarini o'zlashtirish, joriy etish orqali

oliy ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Mobillik oliy ta'lim muassasalari tuzilmalarini, davlat ta'lim standartlari, o'quv rejaralarini takomillashtirishga samimiy yaratadi.

Shunday ekan, mustaqil izlanuvchanlik asosida talabalarining akademik mobilligini ta'minlash talaba tomonidan mustaqil izlanuvchanlik yo'nalishini loyihalash, uni amalga oshirishda tajriba orttirish imkonini beradigan hayotiy vaziyatni yaratish, mustaqil izlanuvchanlik asosida talabalarining akademik mobilligini ta'minlash maqsadida belgilangan usullar va tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni hisobga olgan holda talabalarining akademik mobilligini ta'minlash hamda pedagogik qo'llab-quvvatlash maqsadga muvofiqdir. Zamonaviy pedagogika fanida akademik mobillik turli nuqtai nazardan ko'rib chiqiladi: zamonaviy ta'limning o'ziga xos xususiyati, uning globallashtirish omili bo'lib, bu Boloniya deklaratsiyasining Yevropada ta'lim sohasidagi tamoyillari va qoidalarini amalga oshirishga imkon beradi. Akademik talabalar almashinuvidagi muammolarga e'tiborni qaratadigan bo'lsak, ko'pgina tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, Boloniya kelishuvi dasturida qatnashgan talabalar akademik mobillikdagi asosiy to'siqlar – bu til va kredit tizimining nomuvofiqligidir. Faqatgina bunday dasturlarda qatnashishni rejalashtirayotgan talabalar akademik mobillikni ta'minlashdagi asosiy to'siq sifatida moddiy tomonni qayd etadilar.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, akademik almashinuv dasturlaridan birida qatnashish uchun to'lovga qodir bo'lgan talabalar chet elda o'qishda ham muammolarga duch kelishadi. Boshqacha qilib aytganda, akademik mobillikdagi yuqoridagi cheklavlar tufayli talaba chet el ta'lim muassasasida o'qish uchun vaqtini behuda o'tkazaman deb o'ylaydi. Bu savol mutlaqo' adolatli, chunki ta'lim muassasasiga qaytgan talabalar o'tkazib yuborilgan semestr dasturini olishga majbur bo'lishadi. Psixologik nuqtai nazardan, va'da qilingan va aslida nima o'rtasida ichki qarama-qarshilik mavjud. Shu munosabat bilan, ko'plab mutaxassislarining fikriga ko'ra, akademik mobillikni ta'minlash bo'yicha o'quv dasturlarini sinxronlashtirish, ta'lim va ilmiy darajalar to'g'risidagi hujjatlarini chet elda tan olish kabi xalqaro miqyosdagi muammolarni hal qilmasdan mumkin emas. Olimlarning fikrlarini tahlil qilgan holda, mazkur muammo bo'yicha talabalarining akademik mobilligi xususiyatlarini aniqlashtirishga imkon beradi.

Talabalarning akademik almashinuvidagi yuqoridagi to'siqlardan uchtasiga alohida e'tibor qaratamiz, chunki bizning fikrimizcha, ular talabalarning akademik mobilligi pedagogik muammolarining asosini tashkil qiladi. Shunday qilib, u mobillikni quyidagi asoslar bo'yicha ajratadi (1.2-jadval):

1.2-Jadval
Mobillik asoslari

№	Asoslar	Mazmuni
1.	Subyektlari bo'yicha	Pedagog va talabalar.
2.	Obyektlari bo'yicha	O'quv, tadqiqot (talabalar uchun), malaka oshirish (qayta tayyorlash), tajriba almashish (o'qitish), ilmiy tadqiqotlar (pedagog va talabalar uchun).
3.	Amalga oshirish shakllariga ko'ra	Real, virtual (jismoniy);
4.	Amalga oshirish makoniga ko'ra	Mintaqaviy, mintaqalararo, xalqaro.

Akademik mobillikning asosiy subyektlari:

- ♦ ta'limning barcha bosqichlari talabalari;
- ♦ ta'lim muassasalari birinchi va ikkinchi bosqichlari bitiruvchilarini o'z ichiga oladi.

Tadqiqotchilar subyektlar uchun ma'lum talablarni nomlashadi:

- ♦ talaba mobillik dasturlari bo'yicha amaliyot o'tash uchun xorijiy ta'lim muassasasiga kelishi kerak;
- ♦ ingliz yoki mezbon davlat tilini ravon bilish lozim.

Bizning fikrimizcha, talabalarning akademik mobilligini ta'minlash bo'yicha pedagogik qo'llab-quvvatlashni amalga oshirish jarayonida ularning bunda ishtirok etishiga to'sqinlik qiluvchi omillar aniqlanib, tahlil qilinib, ularni bartaraf etish usullarini sinovdan o'tkazish lozim. Bu jarayon oltita bosqichni o'z ichiga oladi:

- ♦ maqsadli (maqsad va vazifalar);
- ♦ uslubiy (tamoyillar va yondashuvlar);
- ♦ informatsion (nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'z ichiga olgan loyiha);
- ♦ texnologik (shakl, o'quv qurollari, pedagogik shartlar);
- ♦ prosessual (bosqichlar);
- ♦ analitik va samarali (mezonlar, darajalar, natija).

Oliy ta'lim muassasalari sharoitida talabalar o'rtasida akademik mobillikka tayyorlikni muvaffaqiyatli pedagogik qo'llab-quvvatlash uchun zarur bo'lgan pedagogik shart-sharoitlar, usullar aniqlash muhim, ya'ni:

- ♦ talabalarning akademik mobilligini ta'minlashni kasbiy ahamiyatga ega sifatida faollashtirish;
- ♦ pedagogning maslahatchi rolga tayyorligi va loyihaning barcha bosqichlarida ta'lim texnologiya va usullaridan foydalanish;
- ♦ talabalarning o'qishga jalb etilishi va mas'uliyati;
- ♦ akademik mobillikka talabalarni jalb qilish;
- ♦ turli akademik mobillik dasturlarini faol tahlil qilish;
- ♦ loyihaning har bir topshirig'ini bajarish natijalarini diagnostika qilish va shunga mos ravishda akademik mobillikni ta'minlashning har bir komponentining shakllanish darajasini kuzatishdan iborat.

E. F. Zeer tomonidan taklif qilingan yondashuv akademik mobillikka asoslangan kasbiy ta'lim o'rtasidagi uzluksizlikni o'z ichiga oladi, bu doimiy ta'lim sub'ektining ko'p variantli ta'lim makonida harakat qilish qobiliyatini tavsiflovchi shaxsning ajralmas qismi sifatida tushuniladi [87].

M. V. Znovenko V. I. Baydenko, V. B. Kasevichlar o'z tadqiqotlarida mobillikning har xil turlari ajratib ko'rsatgan, o'z hamkasblari bilan birgalikda akademik mobillik konsepsiyasini tahlil qilgan va ularni ta'lim muassasalarida sodir bo'layotgan tizimli o'zgarishlar bilan taqqoslagan [45], [41], [88]. Mazkur mavzuga oid ilmiy va o'quv adabiyotlar tahliliga ko'ra talabalarning akademik mobilligi jarayonining paydo bo'lish muammosi pedagogika, psixologiya va tadqiqot maydonlarining kesishgan joyida qaror topganligidadir.

Akademik mobillikni ta'minlashda xorij amaliyotida o'ziga xos farqlari mavjud: ya'ni, talabalar xorij ta'lim muassasalarida ham cheklangan, ham uzoq muddatga - bir semestrda o'quv yiliga o'qish imkoniyatiga ega; bunday xizmat safarlarida ular to'liq o'qitilgan, chet tilini, o'quv rejasiga muvofiq ma'lum fanlarni o'rgangan bo'lsa, talaba tegishli hujjatlarni taqdim etgan taqdirda tayanch ta'lim muassasasiga qaytib kelganida hisobga olinadi.

F. A. Galichinning fikricha, mobillik boshqa muammolarni hal qilish uchun ham muhimdir. Bu shaxsni rivojlantirish, bilim darajasini oshirish va

odamlarni ish bilan ta'minlash imkoniyatlarini yaratish uchun zarur. Bu yangi bilimlarni to'plash, turli pedagoglardan o'rganish va yangi vaziyatlarda o'zingizni, takliflaringizni va malakalaringizni sinab ko'rish imkoniyatini beradi [28].

Demak, shu nuqtai nazardan kelib chiqadiki, mobillik til o'rganishga yordam beradi. Ta'lim muassasasida shakllangan har bir muhit ham kasbiy mobillik talabani shakllantirish uchun sharoit yaratmaydi. Fikrimizcha, ta'lim muassasasida yoshlarni ijtimoiy munosabatlarga kirishish, hayot va kasbga tayyorlash uchun shart-sharoitlarni yaratish zarur. O'z navbatida, E. V. Kuzevanov talabaning tadqiqot holatini shakllantirish zarurligini ta'kidlaydi. Uni shakllantirish jarayonining samaradorligi pedagogik shart-sharoitlar tizimi bo'lgan tadqiqot muhitini yaratish zarurati bilan bog'liq deydi [90].

1. Xorijiy universitetlardagi ta'lim dasturlari va kurslari tuzilmalarida farq bor. Ushbu muammo 2002 yilda Stokgolm seminarida taklif qilingan ta'lim dasturlari mezonlariga rioya qilmaslikdan kelib chiqadi. Bu mezonlarning asoslari quyidagilar: 1) umumiy darajani aks ettiruvchi yagona hujjat berish; 2) akademik almashinuv dasturlarida ishtirok etuvchi ikkita ta'lim muassasasi tomonidan o'quv rejalari va ta'lim dasturlarini tasdiqlash; 3) kredit birliklarining yagona tizimini tanlash; 4) hamkor ta'lim muassasalarida o'qish jarayonida talabalarining o'quv natijalarini to'liq tan olish imkoniyati; 5) akademik almashinuv dasturlari talabalar va pedagoglarning mobilligini ta'minlashi kerak [91]. Bizning fikrimizcha, tempus loyihalari uchun takliflar tayyorlash bo'yicha ko'rsatmalarga ko'ra mezonlarning aniqligiga qaramay, amalda ularni amalga oshirish qiyin. Hamkor ta'lim muassasalarida bir vaqtning o'zida amalga oshirilayotgan dasturlarni ta'limning davlat ta'lim standartining talablari bilan birlashtirish qiyin. Bu muammoni ikkita diplom olish orqali hal qilish mumkin. Biroq, bu yondashuv yuqorida taklif qilingan birinchi mezonga ziddir.

2. Kredit va baholarni o'tkazish muammolari. Kredit va baholash tushunchalarini sharhlash asosida xulosa qilishimiz mumkinki, ular bir-birini to'ldiruvchi bo'lsa-da, kredit miqdoriy ko'rsatkich, baholash esa talabaning o'rganish natijasida olgan bilimining sifat ko'rsatkichidir. Olingan bilimlar sifatini saqlab qolgan holda va ta'lim sifati ustidan samarali nazoratni ta'minlagan holda kreditlarni fanlar bo'yicha taqsimlash borasida ko'plab savollar tug'iladi. Bugungi kunda, bu masalalar to'liq hal

qilinmaganligi sababli, talabalar va pedagoglar akademik almashinuv sohasida pedagogik qiyinchiliklarni boshdan kechirmoqda.

3. Keyingi to'siq, o'quv rejalarining nomuvofiqligi. Ko'pchilik davlatlarda o'qitish shartlari qat'iy belgilangan va ta'lim davlat ta'lim standarti bilan tartibga solinadi. Buholat ta'lim muassasalarini har bir semestr uchun kurslarni belgilashga majbur qiladi. O'quv rejasini bajarmaslik o'qishdan chetlashtirish uchun asos bo'ladi.

To'g'ridan-to'g'ri davlat darajasida hal qilinishi kerak bo'lgan yana bir muammoni alohida ta'kidlash kerak bu, viza va pasport berishdir.

Ushbu hujjatlarni qayta ishlash tizimi uzun navbatlar va byurokratiya bilan murakkablashadi, bu esa akademik almashinuv uchun qo'shimcha psixologik to'siq yaratadi. Davlatlarda tahsil olayotgan chet ellik talaba uchun qiyinchilik shundan iboratki, o'qish davomida u mehnat faoliyati bilan shug'ullanish imkoniyatiga ega emas.

Shu bilan birga, ushbu muammoni hal qilish chet el fuqarolarini boshqa davlatda ta'lim olishga jalb qilish imkonini beradi [93].

Talabalar uchun akademik mobillik turli ta'lim muassasalarida o'qish, pedagoglar va boshqaruv xodimlari uchun esa tajriba almashish, yangi kompetensiyalarni egallash maqsadida boshqalariga tashrif buyurish imkoniyati sifatida qaraladi. Boloniya deklaratsiyasini yaratuvchilarga ko'ra, har bir talaba kamida bir semestrni "boshqa joyda, afzalroq chet elda" o'tkazishi maqsadga muvofiqdir. Bo'lajak mutaxassis zamonaviy professional adabiyotlar, yangi asbob-uskunalar va jihozlar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'lganligi sababli, bunday almashinuvlarning qiymatini ortiqcha baholab bo'lmaydi.

Talabalar uchun akademik mobillikning qanday afzalliklari bor?

- ♦ Talabalar individual ta'lim traektoriyasini tanlash, yaxshiroq ta'lim xizmatlarini olish imkoniyatiga ega;
- ♦ ta'lim muassasalari uchun samarali raqobatva o'zaro hamkorlik uchun yangi shart-sharoitlar shakllantirilmoqda;
- ♦ olimlar va pedagoglar uchun samarali ilmiy-ma'rifiy hamkorlik istiqbollari ochilmoqda.

Akademik mobillik 1-ilovada ko'rsatilgandek savollarga javob beradi.

Zamonaviy ta'limni yuqori bosqichlarga ko'tarish, jahon andozalari va talablariga mos ravishda isloh etish masalalarini yechishda akademik mobillikni ta'minlash dasturlari alohida o'rin egallaydi. Aynan shu asnda oliy ta'lim muassasalarida akademik mobillikni ta'minlash bo'yicha ta'lim loyihalarini amalga oshirish lozim. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini yuqori darajalarni ushlash uchun mukammal, masofaviy elektron ta'lim tizimini yaratish ham muhim. Unga barcha fanlar majmualari, adabiyotlari, video darsliklar va umuman ta'lim olish uchun barcha materiallar kiritilishi yaxshi natija beradi.

Akademik mobillikni ta'minlashda xorij amaliyotida o'ziga xos farqlari mavjud: ya'ni talabalar xorij ta'lim muassasalarida ham cheklangan, ham uzoq muddatga - bir semestrda o'quv yiliga o'qish imkoniyatiga ega; bunday xizmat safarlarida ular to'liq o'qitilgan, chet tilini, o'quv rejasiga muvofiq ma'lum fanlarni o'rgangan bo'lsa, talaba tegishli hujjatlarni taqdim etgan taqdirda tayanch ta'lim muassasasiga qaytib kelganida hisobga olinadi.

Shu o'rinda mamlakatimizda ham O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrda "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 824-son Qarori 1-ilovasida keltirilgan Nizomning "Akademik mobillik va kreditlarni tan olish" deb nomlangan 5-bobi o'zi ham oliy ta'lim muassasalarida akademik mobillikni amalga oshirish muhim dolzarb muammolardan ekanligini ko'rsatib turibdi. O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarining xalqaro reytinglarga kirishining o'ziga xos shartlaridan biri nufuzli ta'lim muassasasi bilan akademik mobillikni ta'minlash tizimini yo'lga qo'yishdir. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, bilimga asoslangan jamiyatni muvaffaqiyatli shakllantirish uchun ko'pchilik xorij davlatlari, avval, o'tmishda qolgan qiyinchiliklarni engib o'tishlari kerak edi.

Bu, avvalambor, ta'limning past sifati va zamonaviy ehtiyojlarga mos emasligi, boshqaruv tuzilmalari va uslublarida moslashuvchanlikning yo'qligi, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi ta'lim darajasidagi farqning tobora ortib borishi bilan xarakterlanadi.

1.26. Talabalarining akademik mobilligini ta'minlashda mustaqil ta'limga asoslangan izlanuvchanlikning o'ziga xos xususiyatlari

Bugungi kunda mustaqil ta'limning salmog'i ortib borishi natijasida talabalarning mustaqil izlanuvchanligini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Bu mustaqil izlanuvchanlikning rivojlanishi o'quv-bilish kompetensiyalariga ega bo'lishning asosiy mexanizmlaridan biri bo'lib, shu bois talabalarning akademik mobilligini ta'minlash zarurati taqozo etilmoqda. Z. A. Gornostaev ta'kidlaganidek, "mustaqil ta'lim"- bu tashqaridan maxsus rahbarlik qilmasdan ta'lim olish jarayonidir "[63].

Bizning fikrimizcha, bu ta'rif xuddi mustaqil izlanuvchanlikka berilgan ta'rifga o'xshaydi. Mustaqil ta'lim-shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishning muhim dvigatellaridan biridir. Bu insonga mavjud bilimlarni kengaytirish, ma'lum bir sohada shaxsiy va kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish ularni mukammallikka yetkazish va shu orqali ilmiy va ijtimoiy fikr rivojiga hissa qo'shish uchun imkoniyat beradi.

Mustaqil ta'lim-bu shaxsning o'z nuqtai nazaridan zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va ko'nikmalarni har qanday ta'lim muassasasidan tashqarida va pedagog hamda, pedagog yordamisiz mustaqil o'qish orqali egallashidir.

Mustaqil ta'lim deganda-erkin, ijodiy faoliyatning ma'lum bir turi, ta'limning tarkibiy qismi, maxsus tashkil etilgan, tizimli faoliyat va uzluksiz ta'lim turi; shaxsni o'z-o'zini yaratish usuli tushuniladi. Biz mustaqil ta'limning asosiy maqsadini uzluksiz o'z-o'zini takomillashtirishga intiladigan shaxsan yetuk mustaqil shaxsni shakllantirishda ko'ramiz, bu uning rivojlanishi, muvaffaqiyati va kelajakda o'zini o'zi anglash darajasini belgilaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz bir qator adabiyotlarni o'rganib, mustaqil ta'limga berilgan ta'riflarni ko'rib chiqdik.

N. A. Muslimovning fikricha “Mustaqil ta’lim–bilimlarni o’zlashtirish, tasavvurlarini rivojlantirish tushunchalari, ko’nikmava malakalarini hosil qilish bo’yicha o’quv jarayonining subyektiv maqsadga muvofiq, muntazam, mustaqil hamda avtonom faoliyatni tashkil etish demakdir”deb ta’riflaydi [9].

R. X. Djuraev va S. T. Turg'unovlarning qayd etishicha, "Mustaqil ta'lim bu insonning o'zi tanlagan vositalar va adabiyotlar yordamida ajdodlar tajribasini, fan va texnika yutuqlarini o'rganishga yo'naltirilgan shaxsiy

harakatlar jarayoni, bunda insonning ichki dunyosi, his-tuyg'ulari, mustaqil fikrlash qobiliyati asosiy rol o'ynaydi" [14].

E. A. Saricheva va V. V. Yakushevlarning qayd etishicha, "Mustaqil ta'lim-bu o'quv faoliyatining eng muhim shakli, chunki ta'limning bu shaklida talaba bilish jarayonlarini mustaqil ravishda hal qiladi. Ushbu ta'lim shaklini amalga oshirish uchun talabalarda maqsad sari yo'nalganlik, tashkilotchilik, o'z-o'zini nazorat qila olish va maqsadga intiluvchanlik kabi shaxsiy sifatlarni shakllantirish zarur [57].

Mustaqil ta'lim maqsadi haqidagi tushunchamiz V. Okonning quyidagi fikri bilan izohlanadi: "Mustaqil ta'lim insonning doimiy hayotiy ehtiyojiga, uning butun umri davomida ta'lim olishining asosiga aylantirilganda o'zining optimal darajasiga erishadi [64].

Fikrimizcha, mustaqil ta'lim asosida talabalarining akademik mobilligini ta'minlashni taqozo etadi. Bugungi kunda har bir talaba turli takliflar orasidan o'z akademik mobilligini ta'minlash yo'lini tanlash imkoniyatiga ega.

Mustaqil ta'limning vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ♦ talabalarining nazariy bilimlarini oshirish;
- ♦ ularni o'qitishva tarbiyalashning yangi shakl va usullarini egallash;
- ♦ ilg'or pedagogik tajribani, pedagogika, psixologik va boshqa maxsus fanlar yutuqlarini, yangi pedagogik texnologiyalarni o'rganish va amaliyotga joriy etish;
- ♦ ta'lim muassasasida innovasion jarayonlarni rivojlantirish;
- ♦ mavzu bo'yicha uslubiy adabiyotlarni o'rganish;
- ♦ yangi texnika usullarini amaliyotga joriy etish;
- ♦ muammo bo'yicha seminar va konferensiyalarda qatnashish;
- ♦ hamkasblarning ochiq tadbirlariga tashrif buyurish;
- ♦ o'z faoliyatini tahlil qilish va o'z-o'zini baholashni amalga oshirish;
- ♦ zamonaviy texnologiyalar orqali tadbirlar (hodisalar, darslar) tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish.

Shunday qilib, mustaqil ta'lim talabaning intellektual salohiyatini shakllantirishning asosiy shaklidir. Mustaqil ta'limni tashkil etish asosida talabalarining akademik mobilligini ta'minlash masalasini nazariy va metodik jihatdan ishlanganlik darajasini oshirish maqsadida quyidagi

tavsiyalarga e'tiborni qaratish lozim, deb hisoblaymiz:

- ♦ talabalarda mustaqil ishlash kompetensiyalarini shakllantirish samaradorligini oshirish maqsadida muammoli o'qitish tizim asosida o'quv faoliyatini tashkil etish;
- ♦ talabalarining mustaqil ishlashlariga imkon beruvchi moddiy-texnik bazani mustahkamlash chora tadbirlarini belgilash;
- ♦ turli maktab, trening, seminar va mahorat darslari ularning bilimini kengaytirish va chuqurlashtirishga yordam beradi.

Bunday tadbirlar yordamida talaba nafaqat yangi narsalarni o'rganadi, balki o'z tajribalarini boshqalar bilan baham ko'radi [65].

Bizning fikrimizcha, mustaqil izlanuvchanlik talabani o'z ishinig ustasiga aylantiradi. Ular mehnat bozorida qadrlanadi va yuqori ish haqiga ega bo'ladi. Ular ish qidirishlari shart emas, chunki boshqalar bilan raqobatlasha oladi. Doimiy rivojlanish va yangi narsalarni izlash istagi maqsadga muvofiqlik, qat'iyatlilik va tashkilotchilikka yordam beradi, ularning akademik mobilligini ta'minlaydi.

Bugungi kunda malakali mutaxassis bo'lish uchun mustaqil izlanish orqali bilimimizni muntazam oshirib borishimiz lozim. Texnologik taraqqiyot va axborot texnologiyalari davrida nazariy bilimlar amaliy bilimlardan ancha orqada qolmoqda. Tez-tez ma'lumotlar yangilanmoqda va barchamiz yangi kasbiy ko'nikmalar, texnikalarni o'rganishimiz hamda ularni o'z ishimizda qo'llay olishimiz kerak. Talabalarining mustaqil izlanuvchanligi asosida akademik mobilligini ta'minlash mazmuni, texnologiya va usullari, pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash, tavsiyalar ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy qilish muhim hisoblanadi. Buni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz:

- ♦ talabalarining mustaqil izlanuvchanligi asosida akademik mobilligini ta'minlash muammolari, mazmuni, holati va ularning tarkibiy qismlarini nazariy jihatdan tahlil qilish;
- ♦ talabalarining mustaqil izlanuvchanligi asosida akademik mobilligini ta'minlash bilan bog'liq muammoli topshiriqlar tizimini ishlab chiqish;
- ♦ talabalarining mustaqil izlanuvchanligi asosida akademik mobilligini ta'minlash asosida amaliy tavsiyalar ishlabchiqish, ularni amaliyotga joriy etish.

Mazkur jarayonda talabalarda mustaqil izlanuvchanlikni ta'minlashga

bo'lgan intilish, ma'lumotlarni Internet orqali izlash, o'qib o'rganish, mustaqil izlanish ko'nikma va malakalarini shakllantirish zarurligi talabalarning akademik mobilligini ta'minlashda muhimdir. Ko'pincha pedagoglar kognitiv faoliyatni mustaqil ta'limning ravshan manbai deb bilishadi, chunki uning mohiyati insonning bilimga va o'zini o'zi bilishga intilishida yotadi va aynan shu narsa o'z-o'zini rivojlantirish uchun rag'batdir.

Biz faqat kognitiv faoliyatning mohiyatini aniqlash bilan cheklanib qolmaslik kerak, deb hisoblaymiz va ta'lim faoliyati motivasiyasini hisobga olamiz. Mustaqil ta'lim qobiliyati har bir pedagogning psixologik va intellektual ko'rsatkichlari bilan aniqlanadi. Bu qobiliyat axborot manbalari bilan ishlash jarayonida, tahlil qilishda, o'z faoliyati va boshqalarnikini monitoring qilishda yuzaga keladi. Bu ehtiyojning tarkib topuvchilari, motivlari, shaxsni mustaqil ta'limga undovchi axborotlar bilan kundalik ishlash, kreativlik, zamonaviy fanning tez o'sishi, jamiyat hayotidagi o'zgarishlar, raqobat, jamoat fikrlari, material stimuli va qiziqish hisoblanadi. Mashhur pedagog Ya. A. Komenskiy o'z asarlarida uzluksiz ta'limning maqsadi, mustaqil faoliyatning o'rni va insonga tug'ilgan paytdan boshlab xos bo'lgan unga intilish haqida bir necha bor ta'kidlagan [70].

Rossiyada mustaqil ta'limni rivojlantirishga katta hissa qo'shgan N. A. Rubakindir U Sankt-Peterburgdagi harbiy ta'lim muassasalari pedagogika muzeyida "Mustaqil ta'lim bo'limi"ni yaratgan. Uning faoliyati ta'lim muassasasi devorlari ichida ta'lim ololmaganlar uchun mustaqil ta'limni rivojlantirishga qaratilgan edi. Muallif o'z kuchi bilan ta'limga erishish – mustaqil ta'lim bilan shug'ullanish demakdir, har qanday haqiqiy ta'lim faqat mustaqil ta'lim orqali olinadi" deydi [71].

Bizning fikrimizcha, pedagogika maliyotdan ma'lumki, agar shaxsda mustaqil anglash faoliyati yaxshi shakllangan bo'lsa, ta'lim jarayonining o'qitish samaradorligi ham yuqori bo'ladi. Shuningdek, mustaqil ta'limni tashkil etishda talabaning qabul qilish qobiliyatini inobatga olgan holda individual yondashuvning amalga oshirilishi obyekt-talabada kognitiv va kreativ sifatlarini rivojlanishiga imkon yaratadi. Mustaqil ta'lim manbalariga televideniye, gazeta va jurnallar, adabiyotlar (metodik, ilmiy-ommabop, publistik, badiiy kabi), Internet, video, audio axborotlar, pullik kurslar, seminar, konferensiya va master-klasslar, tajriba almashish bo'yicha tadbirlar, ekskursiya, teatr, vistavka, muzey va konsertlar, malaka oshirish kurslari

kiradi.

Hozirgi kunda OTMlarida talabalarning mustaqil izlanuvchanligi asosida akademik mobilligini ta'minlashga, uning sifatini oshirishga yetarli darajada e'tibor berilmayapti. Buning uchun talabalarning mustaqil izlanishlarini izchil tizimga keltirish kerak.

Pedagog olim S. Matjonov fikricha, mustaqil tafakkuri, o'z nuqtai nazariga ega bo'lmagan talaba ijodkor bo'la olmaydi, mustaqil faoliyat yuritilmaydi [8].

S. R. Niyazmetova ta'kidlashicha, talabaning mustaqil ishlash faoliyati o'z-o'zidan u yoki budarajada mustaqil mulohazani talab qilishi ko'zga tashlanadi [74].

Bizning fikrimizcha, talabalar mustaqil izlanishiga qiziqish uyg'otuvchi kuch, motiv sabablarga bog'lik holda ular o'z oldilariga mustaqil ta'lim maqsad va vazifalarini belgilab oladilar. Buni quyidagicha ifodalash mumkin:

- ♦ mustaqil faoliyat olib borishda muhim hisoblangan zamonaviy voqelik va ularga bo'lgan munosabat;
- ♦ tanlagan yo'nalishi bo'yicha faoliyat olib borish, talabaning mustaqil ta'lim olishlarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan tayyorgarlik davridagi kasbiy mustaqil ta'lim;
- ♦ o'quv fanlarini yanada chuqurroq o'rganishga, shaxsiy- hayotiy rejalari, shaxsiy qiziqish asosida yo'naltirilgan mustaqil ta'lim va boshqalar.

Yuqoridagilarni umumlashtirib, talaba mustaqil izlanuvchanlik faoliyatining bir nechta komponentlarini keliramiz.

- umumiy maqsad;
- mustaqil izlanish manbalari;
- mustaqil izlanuvchanlikni amalga oshirish usullari;
- mustaqil izlanuvchanlik metod va texnologiyalari;
- mustaqil izlanuvchanlik ko'rsatkichlari;

Mazkur komponentlarni izohlab o'tsak: talaba mustaqil izlanuvchanligining maqsadi izlanish, o'zlashtirish, bilish, turli axborot manbalari bilan ishlashga tayyorligini aniqlashdir. Mustaqil izlanuvchanlikni amalga oshirish didaktik shart-sharoitlarini yaratish, tashkiliy pedagogik shart-sharoitini aniqlash, va ularni amalga oshirishda shakl, metod, texnologiyalar, vositalarni tanlashdan iborat. Bundan tashqari zamonaviy

manbalar mustaqil izlanuvchanlikni rivojlantirishga imkonini beradi.

Talaba mustaqil izlanuvchanlik faoliyatini, baholash mezonlari va ko'rsatkichlarini aniqlashda pedagogik qo'llab quvvatlash, talabaning individual xaritasini tuzish, olingan natijalar asosida tahliliy ma'lumotlar tayyorlash, umumlashtirish hamda amaliyotga joriy etish imkonini beradi.

Talaba mustaqil izlanuvchanlik faoliyatiga zamonaviy yondashuvlar, mustaqil izlanuvchanlik faoliyatiga tayyorgarlik darajasi, faolligi, subyektiv darajani hisobga olgan holda individual yondashuv, turli zamonaviy manbalar, jumladan Internet tarmog'i faqat predmetli bilimlar hajmini kengaytirishni ta'minlaydi.

Shunday qilib, pedagog o'z faoliyatida ma'lum maqsad asosida talabalarining mustaqil izlanuvchanlik asosida akademik mobilligini ta'minlashi kerak: 1) talabaning intilishi va qiziqishini his qilish, tushunish hamda ehtiyojini inobatga olish; 2) talaba bilan emmotsional aloqa o'rnatish, ularning aqliy, axloqiy va amaliy faoliyati tomonlariga faol ta'sir etish; 3) pedagog aniq sharoitlarni hisobga olgan holda va ularga mos tarzda individual holda yoki jamoa bilan birga o'z bilimini oshirish shakllaridan foydalanishi, amaliy mashqlar bajarishi maqsadga muvofiq; 4) pedagog o'z bilimini oshirishni doimiy ijodiy izlanishlar tarzida tashkil etishi va ma'lum maqsadga yo'naltirishi zarur.

1.36. Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining akademik mobilligini rivojlantirishning mavjud holati

Talabalarining akademik mobilligini rivojlantirishda ularning faolligi va mustaqilligiga qaratilgan tashkilotchilik faoliyatlari hisobga olinadi. Bunda quyidagi muhim vazifalarni bajarishi lozim: jarayonni loyihalash, natijalarni bashorat qilish, muammolarni hal etish, texnika va texnologiya sohasidagi o'zgarishlardan xabardor bo'lish, bilimi, ijodiy qobiliyati, o'quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirishdir. Talabalar mustaqil izlanish davrida mazkur vazifalarni amalga oshirishda pedagogika, pedagogik mahorat, pedagogik texnologiyalar, psixologiya fanlari bo'yicha olgan bilimlarini amaliyotda qo'llashi orqali kasbiy faoliyatga tayyor ekanliklarini namoyon eta olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ijod qilish yangilik yaratishdir, ijodkorlik talabalar faolligi va mustaqilligining asosi bo'lib, bilimni, ijodkorlikni, tashabbuskorlikni, tadbirkorlikni, kuzatuvchanlikni, tajribalar o'tkazishni talab etadi. Ijodiy qobiliyat o'qitish jarayonida talaba va pedagogning birgalikdagi faoliyati natijasida shakllanib boradi.

Talabalarining mustaqil izlanuvchanligi asosida akademik mobillikni rivojlantirishda zaruriy materiallarning tuzilishi, ularni bayon etish uslubi katta ahamiyatga ega. Mustaqil izlanish jarayonida talabalarining ushbu faoliyatini rivojlantirish masalasi qo'yiladigan bo'lsa, o'zlashtirilayotgan bilimlar qaysi faktlar asosida yuzaga kelganini, nazariyaning to'g'riligini qanday tajriba yordamida tasdiqlanganligini tushuntirish taqozo etiladi. Bu faoliyatni rivojlantirish uchun ularga bilim saviyasiga mos muammoli, ijodiy xarakterdagi topshiriqlar berish lozim. Talabalar tomonidan bajariladigan ijodiy ishlar, mazmuni va mohiyati jihatidan turlicha bo'lishi mumkin.

Bizning mamlakatimiz uchun talabalarining mobilligi hali Yevropa talabalari ko'tara oladigan darajada keng tarqalgan emas. Buning uchun bir qator obyektiv omillar mavjud. Yevropada davlat chegaralari yo'q, shuning uchun mamlakatlar o'rtasida harakatlanish qiyin emas, ular orasidagi masofa boshqa masofalar bilan taqqoslanmaydi. Erta yoshdan boshlab yevropaliklar turli tillarda so'zlashuvchilar bilan muloqat qilishadi, bu esa o'smirlik davrida ikki yoki uch tilda gapirishga imkon beradi.

Talabalarining akademik mobilligiga to'sqinlik qiladigan omillardan biri bu chet tillarni bilmaslikdir. Hozirgi kunda mamlakatimizda ham O'zbekiston

Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-5117-qaroriga muvofiq bakalavriat va magistratura bitiruvchilariga 2022/2023 o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim muassasalarining magistratura mutaxassisliklariga hamda oliy ta'limdan keyingi ta'lim ixtisosliklariga tanlovlarda milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega shaxslar ishtirok etishi tartibi joriy etilgan.

Demak bugungi kunda chet tillarni o'rganish akademik mobillikning eng muhim elementlaridan biridir. Akademik mobillik shaxsiy va kasbiy rivojlanish uchun juda muhim jarayondir, chunki uning har bir ishtirokchisi hayotiy vaziyatlarni hal qilish va bir vaqtning o'zida ularni o'z va boshqa madaniyat nuqtai nazaridan tahlil qilish zarurati bilan duch keladi.

Mustaqil ta'limdan kelib chiqib, talabalarning mustaqil izlanuvchanligi asosida akademik mobilligini rivojlantirishda pedagog birinchidan, o'quv informatsion va informatsiya orasida natija beradigan munosabatni ta'minlash kerak. Masalan, materialni muammoli bayon qilish yoki ijodiy xarakterdagi masalalar yechish. Ikkinchidan, ijodiy faoliyatga talabalarda intilish bo'lishi, talabalarni mustaqillik faoliyatiga o'rgatish lozim. Buni amaliy ishlarni tashkil etish orqali amalga oshirish yaxshi natija beradi.

Ma'lumki pedagogik texnologiya-o'quv mashg'uloti jarayoni uchun loyihalanadi va belgilangan maqsadni yechishga qaratiladi. Loyihalashga mo'ljallangan maqsad va uni amalga oshirish usul va vositalari yig'indisini aniqlashdan iborat. Talabalarning mustaqil izlanuvchanligi asosida akademik mobillikni ta'minlashda mazkur loyihalashga amal qilish samarali hisoblanadi. Bunda quyidagi ketma-ketlikda ishlar amalga oshiriladi: 1) mustaqil izlanishni amalga oshirish vaqtini aniqlash; 2) o'rganiladigan materiallarni tahlil etish; 3) maqsad va vazifalarni ajratib olish; 4) ushbu materiallarni ma'lum tuzilmaga keltirish va vaqt bo'yicha taqsimlash; 5) ularni o'zlashtirish usul va vositalarini aniqlab olish. Pedagogik texnologiyalar talabaning akademik mobilligini rivojlantirishda ijodiy fikrlashini uzluksiz shakllantirib borishda samarali texnologiya hisoblanadi. Bu texnologiyaning asosiy maqsadi-talabada ijodkorlikni uyg'otish, ijodiy imkoniyatni rivojlantirishdir.

Mustaqil tadqiqot ishlari talabada akademik mobillikni ta'minlashda

muhim. Birinchidan, tadqiqot ishlarni o'tkazishga alohida vaqt ajratilishiga hojat yo'q. Ikkinchidan, didaktikaning asosiy tamoyillariga muvofiq tashkil etilishi talabalarning faolligi va mustaqilligini oshiradi, mustaqil ishlash ko'nikmasini shakllantiradi. Uchinchidan, mustaqil tadqiqot ishlari har bir talabaga alohida yondashilgan holda ijodiy izlanish faoliyatiga jalb qilish imkonini beradi [54].

Pedagogik texnologiyalardan foydalanib, talabada akademik mobillikni rivojlantirishda Blum taksonomiyasi-bilish, tushunish, tahlil, sintez, qo'llash, baholash yaxshi yordam beradi. Talaba tushunchalarni hosil qilishga va ularda mustaqil fikrlashni rivojlantirishga harakat qiladi. Mavjud materialni qismlarga bo'lish, mazmunini aniqlash, kuzatilayotgan hodisalarda umumiy o'xshashliklarni asoslash, xulosa chiqarish, tizimlashtirish, muammoga yangi, qo'shimcha echim topish, usullarini aniqlash muhim. Tajribalarning ko'rsatishicha, vazifalarga to'g'ri qo'yilgan maqsad, talabalarda qobiliyat, xususiyat, xarakter sifatlarini ijobiy tomonga o'zgartiradi, mas'uliyatini oshiradi, qiyinchiliklarni yengib o'tish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Talabalarning nazariy va amaliy mustaqil izlanishlari uchun katta imkoniyatlar mavjud. Biroq hozirgi vaqtda bu borada muammolar mavjud. Uning mazmunini tahlil qilish va ishlab chiqishga zamonaviy nuqtai nazardan yondashilmaydi, samarali metod, shakl hamda vositalaridan foydalanishga yetarlicha e'tibor berilmaydi. Bu va shunga o'xshash boshqa masalalar bu borada qator pedagogik muammolar mavjudligini bildiradi.

Bizning fikrimizcha, talaba mustaqil izlanish davrida voqea, hodisa va harakatlarni bir-biri bilan taqqoslash, ulardagi umumiylikni va farqlarni aniqlash, ularni amaliy ko'rsatib berish; fikrlash yo'li bilan kuzatilishi mumkin bo'lgan voqea, hodisa va harakatlarni oldindan aytib berish; sxemalar chizish; referat yozish va seminarlar uchun dokladlar tayyorlash kabilarni o'zlashtirishlari lozim.

Mazkur masalalarni ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan o'rganish, mustaqil izlanuvchanlik asosida talabalarning akademik mobilligini rivojlantirish va buning uchun yetarli shart-sharoitlar yaratib berish zarurati; bu masalani amalga oshirish va nazorat qilish bo'yicha tayyorgarligining zamon talablari darajasida emasligi; ularga oid o'quv-metodik adabiyotlar, tavsiyalar, ishlanmalar, yo'riqnomalar, ko'rsatma va manbalarning etarli emasligi kabi muammolar alohida dolzarblik kasb etadi. Ushbu muammolarni hal qilishning

yangi usullarini topish bugungi kunda dolzarbdir. Asosiy muammolar quyidagilar:

- ♦ OTM larida mustaqil izlanuvchanlik asosida talabalarining akademik mobilligini rivojlantirish mazmuni ularning yo'nalishi bilan bog'liq bo'lgan xususiyatlarni bugungi kun talablari asosida qamrab olmaganligi hamda ushbu mazmunni belgilab beruvchi manbalarning deyarli yo'qligi;

- ♦ talabalarining akademik mobilligini ta'minlash jarayoniga maxsus pedagogik hamda amaliy tajribaga ega bo'lgan mutaxassislarining jalb etilmaganligi;

- ♦ talabalarda akademik mobillikni ta'minlashga nisbatan qiziqish talab darajasida shakllanmaganligi, ularda mustaqil faollikning rivojlanmaganligi;

- ♦ talabalarining avvalgi bilimlari, hayotiy tajribalari yetarlicha hisobga olinmasligi;

- ♦ talabalarining akademik mobilligini ta'minlash vositalari va boshqa materiallardan samarasiz foydalanish, ish uslublarini noto'g'ri tanlash;

- ♦ talabalarining akademik mobilligini ta'minlash muammolariga oid tadqiqotlarni kuchaytirish, ularning natijalarini amaliyotga joriy etish sustligi;

- ♦ talabalar muammolarini mustaqil yecha olish tajribasiga asoslangan ko'nikmalarga yetarli darajada ega emasligi, o'z kasbiy faoliyatini takomillashtirish, zamonaviylashtirishga astoydil qiziqishni namoyon qilmasligi;

- ♦ veb-saytlar, ilm, fan, texnika va texnologiyalarning so'nggi yutuqlaridan hamda respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini ifodalovchi rasmiy statistik ma'lumotlardan foydalanilmaslik va boshqalar.

Mustaqil izlanuvchanlik talabalarni ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish, mustaqilligini oshirish, ularda o'z qobiliyatlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, mas'uliyat hissini shakllantirish hamda akademik mobillikni ta'minlashni ko'zda tutadi, ularning berilgan materiallarni sifatli o'zlashtirishga zamin tayyorlaydi.

Mustaqil izlanuvchanlik-hozirda talab etilayotgan kasbiy sifatlar (mustaqilik, ijodkorlik, tashabbuskorlik, tadbirkorlik) va mantiqiy fikrlash operatsiyalari (tahlil qila olish, solishtirish, taqqoslash, klassifikatsiyalash, umumlashtirish, xulosa chiqarish, amaliyotga qo'llay olish kabi)ni rivojlantirishda dolzarbdir.

Ushbu omillarni takomillashtirishga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'limga oid bir qator qaror va farmonlarida alohida e'tibor qaratilmoqda [2, 3, 4].

Shunday ekan, mustaqil izlanuvchanlikni amalga oshirishda lozim bo'lgan vazifalar quyidagilardan iborat bo'lishi lozim:

- ♦ mustaqil izlanuvchanlik asosida talabalarining akademik mobilligini rivojlantirishda asosiy e'tiborni o'rganilayotgan jarayonning maqsad va vazifalarini aniqlashga qaratish;

- ♦ talabalarining o'zaro hamkorligini yo'lga qo'yish;

- ♦ yangi texnika va texnologiya yutuqlaridan foydalanish;

- ♦ talabalarda mustaqil fikrlash, ijodiy qobiliyat hamda kasbiy mahoratlarini zamon talablari darajasida shakllantirish;

- ♦ mustaqil tarzda kerakli ma'lumotlarni yig'ish, muammoni aniqlash, echimlarini topish, olingan bilim, malaka va ko'nikmalarni tanqidiy tahlil etish va ularni yangi vazifalarni hal etishda qo'llash;

- ♦ kerakli ma'lumotlarni izlab topishning qulay usul va vositalarini aniqlash, axborot manbalaridan samarali foydalanish hamda ish natijalari xulosasini tayyorlash va qayta ishlash, materiallarni izlash va o'zlashtirishga jisimiy va ijodiy yondashish muhim.

Mustaqil izlanuvchanlik asosida talabalarining akademik mobilligini rivojlantirishdan ko'zlangan maqsadni aniq qo'ymasdan turib ko'zlangan natijaga erishish, aniq maqsadsiz esa belgilangan vazifalarni amalga oshirish va amaliy natijaga erishish mumkin emas. Maqsad qanday qo'yilsa natija ham shunday bo'ladi. Talaba o'z oldiga aniq yakuniy maqsadni qo'ysagina, u unga erishish yo'llarini izlaydi. Maqsadni qo'yishda ehtiyoj va muammolarni tahlil qilish, maqsadni muhim muammolarga qaratish, jiddiy va aniq maqsadlarni qo'yish, maqsadlarni unga erishilganlikni aniqlash yo'lida shakllantirish, motivatsiya uyg'otuvchi maqsadlarni qo'yish, har bir ko'zlangan maqsadning dastur maqsadiga mos kelishini ta'minlash talablariga amal qilish lozim. O'qitishning ta'limiy funksiyasi mazmunining boshqa bir jihati dalili o'rganiladigan materiallarni mustaqil o'zlashtirishdir. Bu maqsadni amalga oshirish talabalarga o'rganadigan materiallarning harakteriga bog'liq. Bu maqsad qanchalik aniq belgilansa va olingan materiallarga qanchalik muvofiq bo'lsa, mazkur jarayonda talabalarining akademik mobilligini rivojlantirish usullari va vositalarini tanlash shunchalik oson bo'ladi.

Mustaqil izlanuvchanlik asosida talabalarining akademik mobilligini rivojlantirishdan ko'zlangan maqsadni belgilashda asosan kerakli manbalar, ulardan olingan materiallar tahlil qilinadi, materiallarni qayta tuziladi, ularni maqsadga ko'ra tanlaydi, talabalarining qobiliyati, ta'limdagi individual yondashish talablarini hisobga oladi, o'zlashtirish darajasiga mos nazariy va amaliy materiallarni tanlaydi.

Bu borada asosiy talablar quyidagilardan iborat bo'lishi lozim: 1) talaba mobilligini rivojlantirish maqsadida izlanuvchanlik jarayonning yuqori samaradorligini ta'minlash; 2) uning samarali vositavi usullaridan foydalanish; 3) talabalarda izlanuvchanlik kompetensiyalarni rivojlantirish, ularni o'zlashtirgan bilimlarini amaliy faoliyatda qo'llashga tayyorlash; 4) ularning mustaqil ishlarini tashkil etish va nazorat qilishdir.

Mustaqil izlanuvchanlik asosida talabalarining akademik mobilligini ta'minlashga qo'yiladigan talablar quyidagilardan iborat bo'lishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: dasturli-metodik talablarni aniq va ijodiy bajarish; talabalarining materiallarni aniq bilish imkoniyati, qiziqishi, intilishi, ehtiyoji va bilimlardagi kamchiliklarni bartaraf etishga maqsadli yo'naltirilganlikni hisobga olishdan iborat.

Mazkur vazifalarni birgalikda o'ylash va yechish (izlanuvchanlik kompetensiyalarini shakllantirish), intellekt, qabul qilish, xotira, fikrlash, o'ylash, nutq, erkinlikni rivojlantirish, asosiy vazifalarini ajratish, jamoaning xususiyatlari va imkoniyatlarini inobatga olib, ularni aniqlashtirish; qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli yechishni va vaqtdan samarali foydalanishni ta'minlash; talabalarining diqqatini muhim ilmiy tushunchalarni, nazariy tartiblarni, qonuniyatlarni, dunyoqarash, o'qitish mazmunida asosiy larni ajratishni, hayot bilan, jamiyat ehtiyojlari bilan talabalarining shaxsiy hayot tajribasi va qiziqishlari bilan chambarchas aloqasini ta'minlash; talabalarining o'zlashtirgan izlanuvchanlik kompetensiyalarini qo'llashning aniq imkoniyatlarini yaratishni ta'minlash; talabalarda o'zining izlanuvchanlik faoliyatiga anglangan va faol munosabatni, mehnatini samarali tashkil etish ko'nikmalarini, bilimi, ko'nikmasi va malakasini nazorat qilish va baholashni shakllantirishdan iborat.

Mustaqil izlanuvchanlik talabalarining akademik mobilligini rivojlantirish uning samaradorligini oshirishning muhim omillari quyidagilar hisoblanadi:

- mustaqil izlanuvchanlikni amalga oshirishga imkon beradigan obyektiv shart-sharoitlarni yaratish (zamonaviy texnika vositalari, o'quv manbalari);
- talabalarining o'z bilimlari va mahoratlarini uzluksiz oshirib borishlari uchun shart-sharoitlar yaratish;
- mustaqil izlanuvchanlikni to'g'ri va aniq maqsad hamda vazifalar asosida tashkil etish, unga ta'lim muassasasi faoliyatining ajralmas qismi sifatida qarash va uni amalga oshirish;
- mustaqil izlanuvchanlikni talabalarining ehtiyojlarini qondirish maqsadida tashkil etish, uni amalga oshirishda ularning xohish-istaklari, yoshga xos psixologik xususiyatlarini inobatga olish;
- mustaqil izlanuvchanlikni takomillashtirilgan turli vosita va usullar yordamida tashkil etish, bunda Internet tarmog'i xizmatidan foydalanish;
- izlanuvchanlikka tayyorgarlik ko'rish hamda bu bo'yicha ilg'or ish tajribalarini muntazam o'rganish va ommalashtirish.

Shunday qilib, talabalarining mustaqil va ijodiy ravishda bilim olish qobiliyatiga egaligini ko'rsatuvchi omillar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin deb hisoblaymiz:

- mustaqil ravishda turli qo'shimcha manbalardan yangi bilimlarni o'zlashtirish orqali o'zida mustaqil izlanuvchanlik ko'nikma va malakalarini shakllantirish;
- qo'shimcha manbalardan o'zlashtirgan bilim, egallagan amaliy ko'nikma va malakalardan mazkur jarayonda unumli foydalanish;
- olgan bilimlarni hayotda turli masalalarni hal etish amaliyotida mustaqil qo'llay olishdir.

Talabalarining akademik mobillikka tayyorligi tarkibi quyidagi o'zaro bog'liq komponentlarning birligi sifatida ishlab chiqilgan: motivatsion-baholash, axborot, faollik-ijodiy, ijtimoiy-madaniy, kommunikativ komponentlardan iborat.

Akademik mobillik deganda har tomonlama ta'lim natijasi, talabaning mustaqil ta'lim yo'nalishlarini loyihalash va amalga oshirish qobiliyati tushuniladi (tanlash, to'garaklar, fanlar, fanlarni o'rganish darajasi, qo'shimcha fanlar va kurslar, tanlov tadbirlari, ta'lim shakllari va boshqalar).

Mustaqil izlanuvchanlik asosida talabalarining akademik mobilligini

ta'minlash: 1)muammolari bilan bog'liq tadqiqot ishi maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda olib borilgan ilmiy, metodik ishlar hamda dissertatsiya ishlarini o'rganish pedagogika nazariyasida mustaqil izlanuvchanlik asoslari ishlanmaganligi; 2)bu jarayonning psixologik jihatlarini tahlil qilish asosida talabalarining mustaqil izlanuvchanligining psixologik omillari hamda tadqiqot jarayonida mustaqil izlanuvchanlik talabalarda shaxsiy, kasbiy, individual xususiyatlarni namoyon etish; 3)izlanuvchanlik kompetensiyalarini shakllantirish; 4)o'rganilishi muhim bo'lgan bilimlarni rejalashtirish; 5)tartibga solish hamda nazorat qilish ijodiyqobiliyatlarini rivojlantirish asosi ekanligi aniqlandi; 6)talabalarining o'z bilimlarini mustaqil oshirib borishlari uchun aniq maqsadlar qo'yishi va maqsadlarga erishish shartlariga rioya qilishlari ilmiy asoslandi; 7)talabalarining mustaqil izlanuvchanlik faoliyatida intilishlari va materiallarni mustaqil o'rganishlari hamda o'zlashtirishlari asosida ularda akademik mobillik ta'minlanishi aniqlandi. Mustaqil izlanuvchanlik asosida talabalarining akademik mobilligini ta'minlash uchun lozim bo'ladigan bosqichlar ilmiy asoslandi hamda mazkur jarayonni qanday amalga oshirilishi, uning rivojlanishi, o'zlashtirilgan bilimlar asosida mustaqil izlanuvchanlikka erishish ko'rsatkichlari belgilab olindi.

Mustaqil izlanuvchanlik asosida talabalarining akademik mobilligini ta'minlashda quyidagi tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni yaratishga alohida e'tibor qaratildi:

- ♦ mustaqil izlanuvchanlik asosida talabalarining akademik mobilligini ta'minlash talaba tomonidan mustaqil izlanuvchanlik yo'nalishini loyihalash, uni amalga oshirish;

- ♦ mustaqil izlanuvchanlik asosida talabalarining akademik mobilligini ta'minlash ularga mustaqil izlanuvchanlik yo'nalishini loyihalash va amalga oshirishda tajriba orttirish imkonini beradigan hayotiy vaziyatni yaratish;

- ♦ mustaqil izlanuvchanlik asosida talabalarining akademik mobilligini ta'minlash jarayonining tashkiliy-pedagogik shartlari aniqlash;

Belgilangan usullar va tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni hisobga olgan holda yaratilgan mustaqil izlanuvchanlik asosida talabalarining akademik mobilligini ta'minlash: 1)mustaqil izlanuvchanlik asosida talabalarining akademik mobilligini ta'minlashni pedagogik qo'llab-quvvatlash hamda mazkur jarayonni ta'minlash natijalarini monitoring

qilishdir; 2)talabalarining akademik mobilligini rivojlantirishda talabalarining fikrlash operatsiyalari (tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish, klassifikasiyalash kabi)ni shakllantirish; 3)ularning bilish faoliyatiga qiziqishlarini; talabaning maqsadga erishishda faolligi, mustqilliligi, tirishqoqligini stimullashtirish; 4)fanlar bo'yicha o'zlashtirishlarini muntazam nazorat qilish; 5)mashg'ulotlarda mustaqil ta'lim elementlarini joriy etish bilan o'qitish metodlarini o'zgartirish; 6)talabalarining bilim, ko'nikma va malakalarini baholash shaklini takomillashtirish; 7)ularga individual yondashuvni amalga oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridir.

II BOB. PEDAGOGIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING AKADEMIK MOBILIGINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI USUL, VOSITA VA TEXNOLOGIYALARI

2.1§. Talabalarining mustaqil izlanuvchanligi asosida akademik mobilligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish usullari

Mustaqil izlanuvchanlikni amalga oshirishda jarayonni loyihalash, tashkil qilish muhimdir. Bunda talabalar tomonidan o'zlashtiriladigan izlanuvchanlik kompetensiyalarini baholashda takomillashtirishi kerak bo'lgan masalalar quyidagilar hisoblanadi: talabalarni faollashtirish va rag'batlantirish tizimini ishlabchiqish, muammoli ishlarga jalb etish hamda amaliyotga joriy qilishdir.

Talaba axborot va ma'lumotlarni mustaqil topish, tahlil etish, amaliyotda qo'llay olish mahoratini egallay bilishi, yangiliklarni o'qib borishga, yangi adabiyotlarni muntazam kuzatib turishga, fan, texnika, texnologiyaning yutuqlaridan xabardor bo'lishga o'zini o'rgatishi va harakat qilish kerak. Pedagoglar esa, talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishda yordam berishlari, ularning o'quv-ilmiy ishlardagi yutuqlarini rag'batlantirib borishlari lozim.

Mustaqil izlanuvchanlikni tashkil etish nazariy va amaliy materiallarni egallashga imkon beradi, bilimdon hamda malakali mutaxassis bo'lib etishishga zamin hozirlaydi. Mustaqil izlanuvchanlik vosita va usullarini, pedagogik texnologiyalar asosida o'tkazishga tizimli yondashish, ularni muvofiqlashtirish va bajarilishi ustidan nazorat o'rnatish lozim. Mustaqil izlanuvchanlikdan ko'zlangan maqsad, o'rganiladigan vazifa va topshiriqlarning belgilanishi hamda ularni bajarish usullaridan talabalarining xabardor bo'lishi lozim. Mustaqil izlanuvchanlikni amalga oshirishda jarayonni loyihalashda uning izchilligini va maqsadga muvofiqligini ta'minlash maqsadida reja tuziladi [96].

Kasbga nisbatan ijobiy munosabat uyg'otishga mustaqil ta'limning tashkiliy shakllariga alohida e'tibor berish lozim: ya'ni, muayyan fan boblari va mavzularini mustaqil o'rganish, tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish, avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi

tizimlar bilan ishlash, ilmiy adabiyotlar bo'yicha fan bo'limi va mavzulari ustida ishlash, fanga oid yangi texnika, texnologiyalarni o'rganish, talabaning tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fan bo'limi yoki mavzularini chuqur o'rganish [98].

Bizning fikrimizcha, mustaqil izlanuvchanlikning eng maqbul shakllarini tanlash, ulardan foydalanishning samarali usullarini qo'llash talabalarining izlanuvchanlik kompetensiyalarini shakllantirishda, ularning amaliy faoliyat jarayonida mustaqil, ijodiy topshiriqlarni samarali bajarishlariga olib keladi.

Mustaqil ta'limdan kelib chiqib, mustaqil izlanuvchanlikning qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash, to'garak, fan kechalari, seminar, ma'ruza, ilmiy-tadqiqot ishlari, tajriba va laboratoriya ishlari kabi shakllari mavjud. Qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash, talabalarda ijodiy qobiliyatning rivojlanishida, hayotda o'z o'rnini topishida, kasblarni to'g'ri tanlashida, dunyo qarishning kengayishida yaqindan yordam beradi. Kitob o'qimay turib, bilim va hunarni puxta egallab bo'lmaydi. U talabaning mustaqil izlanishidagi asosiy bilim manbaidir [97].

Mustaqil ta'limni tashkil etish shakllari ta'lim jarayonining har bir bosqichida namoyon bo'lsa-da, O. A. Qo'ysinov tadqiqot o'z ishlarida asosan talabalarining darsdagi va darsdan tashqaridagi mustaqil ta'lim olish shakllarini ilmiy asoslashga harakat qilgan [10].

Darsda tashkil etiladigan mustaqil ta'lim shakllari:

- ♦ ma'ruza tinglash va bayon etilganlarni daftarga qayd etish;
- ♦ amaliy va laboratoriya ishlarni bajarish;
- ♦ chizmalar va sxemalarni o'qish, chizishni o'rganish;
- ♦ texnik modellash va loyihalash.

Darsdan tashqarida tashkil etiladigan mustaqil ta'lim shakllari:

- ♦ o'quv adabiyotlari bilan ishlash;
- ♦ nazorat ishlariga tayyorlanish; ma'ruza tayyorlash;
- ♦ masofaviy ta'lim texnologiyasidir.

Biz, bugungi kun talabalaridan kelib chiqib, olimning qarashlarini talabalarining akademik mobilligini ta'minlash yo'nalishida ishlarni amalga oshirishga takomillashtirishga harakat qildik.

Talabalarining akademik mobilligini ta'minlashda – pedagog

yordamida ular o'rganilayotgan materialdagi asosiy tushunchalar, qonun-qoidalar, uning hayot, turmush, ishlab chiqarish kelajakka yo'naltirilganlik kabilarni bilib olish; amaliy, mustaqil, ijodiy ishlarini bajarish; chizma, sxema va jadvallarni chizishni o'rganish va tahlil qilish; texnik, matematik modellashtirish va loyihalashni amalga oshirishlari lozim.

Talabalarining akademik mobilligini ta'minlashda – Internet va boshqa manbalar orqali psixologik, pedagogik, metodika adabiyotlar bilan ishlash hamda undan olingan ma'lumotlarini tahlil qilib, umumlashtirish va xulosalar chiqarish; nazorat va baholashishlariga tayyorlanish; olingan ma'lumotlar asosida doklad va hisobotlar tayyorlash hamda kelajakda amalga oshirish lozim bo'lganishlarning maqsad va vazifalarini belgilab olish ham muhim hisoblanadi.

Muammoli ta'lim – bu, pedagog yordamida talabalar ongida muammoli vaziyatlarni shakllantirish va ularni ushbu muammolarni echishga qaratilgan mustaqil faoliyatni tashkil etishni nazarda tutuvchi ta'lim jarayonidir. Buning natijasida talabalarining izlanuvchanlik kompetensiyalarini ijodiy o'zlashtirilishiga erishiladi. Muammoli ta'lim talabalarga bilimlarni amaliy faoliyatida samarali o'zlashtirishga yordam beradi hamda ularning kelajakda ta'lim muammolarini echa bilish, mustaqil izlanishga o'rgatish, ijodiy tajribaga ega bo'lish va uni rivojlantirish, ta'lim jarayonining vazifalarini tahlil qilish imkoniyatlarini ochib beradi.

Mustaqil izlanuvchanlikni amalga oshirishda – masofaviy kurslar, konferensiya, seminar, olimpiada va musobaqalar; mustaqil individual ish; ilmiy, ilmiy ommabop, badiiy va boshqa adabiyotlar, matbuotni o'rganish; ma'ruzalar, konsertlar, audioyozuvlarni tinglash; ekspert maslahati; spektakllarni, fil'mlarni, teleko'rsatuvlarni tomosha qilish; muzeylar, ko'rgazmalar, galereyalarga tashrif buyurish kabilarham samarali hisoblanadi.

N. G. Dayri aytganidek, talaba faoliyatini yuqori darajaga yetkazish, ular tomonidan o'quv-bilish kompetensiyalarini o'zlashtirish, bilimlar mustahkamligini oshirish, mustaqil faoliyat yo'llarini o'zlashtirish, izlanishga yo'naltirish va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish muammoli ta'limning asosiy maqsadidir. Muammoli o'qitishning o'ziga xos asosiy xususiyati pedagog tomonidan talabaning mustaqil bilish faoliyatini tashkil etish hisoblanadi.

Birinchidan, muammoli o'qitishdan foydalanib darsni tashkil etish

talabaning fikrlashini rivojlantirish qonuniyatlariga va pedagogik vositalarni bilishga asoslanadi. Muammoli o'qitish an'anaviydan avvalambor maqsadlarni qo'yish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini tashkil etish bilan farqlanadi. Muammoli o'qitishni qo'llash bilan darslar shunday tashkil etiladiki, bunda talabalarga qo'yilgan muammolarni echish yo'llarini izlash uchu nimkoniyat beriladi.

Ikkinchidan, pedagog o'z ma'ruzasida asosiy tushunchalar, qonun-qoidalar, uning hayot, turmush, ishlabchiqarish bog'likligi hamda kelajakka yo'naltirilganligiga alohida e'tiborni qaratishi lozim. Chunki, bugungi kunda ko'pchilik pedagoglarimiz bu masalaga alohida yondashishmayapti, faqat ma'ruza o'qish bilan cheklanib qolyapti. Talaba ushbu eshitgan ma'ruzasining kelajakda nima berishini, undan qaerda foydalanishini bilmayapti. Bu esa o'z navbatida talabalarda o'qishga motivatsiya, kelajakka ishonch uyg'otmayapti. Talaba ushbu ma'ruzadan o'ziga kerakli ma'lumotlarni olsa unda qiziqish, pedagoga hurmat, kelajagiga ishonch hissi paydo bo'lishi mumkin.

Uchinchidan, amaliy, mustaqil, ijodiy va laboratoriya ishlarini bajarishga kata e'tibor berish lozim. Chunki, bu orqali talabalarining amaliy ko'nikma va malakalari shakllanadi hamda rivojlanadi. Amaliy, mustaqil va ijodiy ishlarni amalga oshirishda, albatta, muammoli vaziyatlarni yaratishga, muammoli topshiriq va savollarni ishlab chiqishga, ularning hayot, turmush, fan-texnika va ishlab chiqarish roli va o'rniga, bog'liqligiga, pedagogik texnologiyalar va ular asosida yaratilgan interfaol usullarga, axborot-kommunikatsion, loyihalash, evristik va modulli o'qitish texnologiyalariga alohida e'tiborni qaratish lozim.

To'rtinchidan, mavzu yuzasidan chizma, sxema va jadvallarni chizishni o'rganish va tahlil qilish hamda texnik, matematik modellashtirish va loyihalashni amalga oshirish masalalari echimini topish kabi jihatlar ham talabalarining amaliy ko'nikma va malakalari, mustaqil ishlash va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga, mustaqil qarorlar qabul qilishga, egallagan bilimlarini amaliyotda qo'llay olishlariga, kelajakda ishlab chiqarishda qo'rqmasdan, ikkilanmasdan, astoydil ishlashlariga xizmat qiladi.

Grafik va jadvallar ko'rinishidagi modellashtirishga talabalar deyarli pedagogning barcha mavzularida duch kelishadi. Ularni yaratish, chizish, tahlil qilish va umumlashtirish asosida xulosalarga qilishga harakat qilishadi.

Mustaqil izlanuvchanlikda-teleko'rsatuvlarni muntazam ko'rish; kasbiy

davriy nashrlarni o'qish; metodik, kasbiy va predmetli adabiyotlarni o'qish; predmet bo'yicha Internetdagi axborot obzori; seminar, trening, konferensiya va darslarda ishtirok etish; jamoatdoshlar bilan diskussiya, yig'ilish, tajriba almashishda qatnashish; interfaol treninglarda zamonaviy psixologik metodlarni o'rganish; chet tillarini o'rganish; jamoatdoshlari bilan ta'lim muassasasida, tumanda, shaharda va Internetda muloqat qilish; AKT larni o'rganish; sog'lom turmush tarzini yuritish, sport bilan shug'ullanish, jismoniy mashqlar qilish ham muhimdir.

Mustaqil izlanuvchanlik usullari o'z-o'zini bag'ishlash, o'z-o'zini majburlash, o'z-o'zini ishontirish, o'z-o'zini rag'batlantirish; o'z-o'zini jazolash, o'ziga qulaylik, o'z-o'zini tanqid qilish, o'zini boshqarish, o'z-o'zini hurmat, hissiy va aqliy boshqaning pozitsiyasiga o'tish, empatiyani o'z ichiga oladi.

O'qitish usullari o'quv mashg'uloti jarayonining asosiy qismi hisoblanadi, ular siz pedagogik faoliyatni amalga oshirib bo'lmaydi. Bilimlarni uzatish va qabul qilish xarakteriga qarab so'z orqali ifodalash, ko'rgazmali va amaliy usullarga bo'linadi. O'quv mashg'ulotlari mavzulari mazmunini o'zlashtirishda: tushuntirish-illyustrativ, reproduktiv, muammoli bayon, xususiy qidirish yoki evristik hamda yarim tadqiqot usullari qo'llaniladi. Ta'limning og'zaki usullariga: ma'ruza, suhbat kabilar kiradi. Ularni qo'llashda pedagog so'z vositasida o'quv materialini bayon qiladi, tushuntiradi, ta'lim oluvchilar esa tinglash, eslab qolish orqali uni faol qabul qiladi.

Ma'ruza o'qitishning keng tarqalgan shakli bo'lib, pedagogik faoliyatda etakchi o'rinni egallaydi. Ma'ruza davomida beriladigan bilimni og'zaki bayon qilish, uzoq vaqt davomida talabalarining diqqatini tutib turish, fikrlarini faollashtirish, isbotlash, ta'rif berish, bir tizimga keltirish, umumlashtirish kabi pedagogik usullardan foydalaniladi.

Suhbat usuli atroflicha o'ylangan savollar yordamida pedagog bilan talabalar o'rtasida suhbatni ko'zda tutib, ularning mustaqil fikrlashini yangi tushunchalar va qonuniyatlarni egallashga olib keladi. Amaliy usullarda vazifa (maqsad)ni qo'yish, uni bajarish usulini rejalashtirish, bajarish jarayonini boshqarish, tahlil qilish, kamchiliklar sababini aniqlash, maqsadga to'liq erishish uchun o'quv mashg'uloti jarayoniga tuzatish va o'zgartirishlar kiritishishlari amalga oshiriladi. Amaliy mashqlarni bajarishda talabalar

bo'lajak hatti-harakatlarini faol mushohada qiladi, o'ziga-o'zi eshittirib gapiradi hamda bo'lajak voqeani sharhlaydi. Bu ularga o'z xatosini anglashga va harakatiga tuzatishlar kiritishiga ko'maklashadi.

Munozara usuli. Ko'pchilik fanlar va ularning mavzulari ta'lim standartlari, fan dasturlari, o'quv rejasi va ta'lim muassasasining o'ziga xosligiga bog'liq ravishda hamda talabalar kontingenti bilan aloqadorlikda munozara tarzidagi o'quv mashg'ulotlarini taqozo etadi. Bunda, talabalar faolligi ta'minlanadi, shubhali vaziyatlarga o'rin qolmaydi, ularning istak-xohishlari to'la qondiriladi, muhimi o'quv materiallari to'la-to'kis o'zlashtiriladi, asoslar, xulosalar mukammal ko'rinish va mazmunda bo'ladi.

Guruhiy ish usuli. Bu xorijda ommaviylashgan o'qitish usulidir. Masalan, Daniyada birorta ham ma'lumot yoki kasb guruhiiy ishsiz egallanmaydi. Kam sonli talabalarining qandaydir muhim o'quv tadbirida ishtirok etishi va ularning hamkorlikdagi faoliyati bunday mashg'ulotning samarasini belgilaydi. Bajarilish darajasi va uning sifatini pedagog nazorat qiladi. Pedagogik maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda bunday guruhlar xususiy holat uchun shakllantiriladi.

Muammoli topshiriq usuli. Aniq vaziyat va qo'yilgan masalaning mohiyatidan kelib chiqqan holda muammoli topshiriqlar yordamida samaraga erishish mumkin.

Loyihaviy topshiriq usuli. Biror o'quv materialini atroflicha o'rganish uchun bu yondashuv samarali bo'ladi. O'rganish, tahlil qilish, baholash, xulosa chiqarish va yakuniy qarorga kelish uchun uzoq muddatli loyihalangan reja zarur. Mazkur tadbirni o'tkazish uchun boshlang'ich tayanch ma'lumotlar talab qilinadi. Fanni o'zlashtirishning bosqichlarida davriy ravishda tatbiq qilinadi. Bunday topshiriqlar o'quv ijodkorligini oshiradi, mustaqillik sari yetaklaydi.

Hamkorlik pedagogikasi usuli. Bu usulda talabalar o'z o'quv faoliyatining sub'ekti tarzida qaraladi. Bunda pedagog va talabalar pedagogik jarayonning sub'ektlari sifatida tenglashib, hamkorlik pedagogikasi jarayoni tashkil bo'ladi. Ular o'zaro hamkor, hamfikir, hamijodkor tarzida faoliyat yuritadi.

Erkin fikrlash mashg'uloti usuli. Bu ilmiy-ommabop adabiyotlar, vaqtli matbuotda chop etilgan maqolalar va ularning muhokamalariga bag'ishlanadi. Bu mashg'ulotlardan ko'zda tutilgan maqsad: talabalarining

bilim doirasini, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, ularni ilmiy, ilmiy-ommabop maqolalar, risolalar, kitoblar bilan tanishtirish orqali, ularning bilim olish va fanga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, ularning avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini yangi vaziyatlarda qo'llash orqali yangi bilimlarni egallashlariga erishishdir.

Savollar berish usuli. Savol muammoni aniqlash, ifodalashga xizmat qiladi. Talaba savolga javob berolmaydigan vaziyatni pedagog oddiy hol deb bilishi kerak. U ko'proq ochiq, ijodiy savollar berishi kerak, bunda javoblar bir necha xil bo'lishi mumkin, bu esa muloqotning davom ettirilishiga chorlaydi. Savol bilan talabalarni himoyalashga majburlamaslik kerak, ularda tanlashga imkoniyat bo'lishi kerak va bu imkoniyatni o'zlari yaratadi.

Og'zaki javob berishni talab qiladigan savollar tuzishda o'quv materialini yuqori intellektuallik darajalarida o'zlashtirilishini ta'minlaydigan hamda jahon pedagogikasida Blum savollari deb yuritilayotgan hamda pedagogning faollashtiruvchi savollaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir 2-ildovada anna shunday savollardan namunalari keltiriladi.

Savollar berish metodikasi. Talaba savolga javob berolmaydigan vaziyatni pedagog oddiy hol deb bilishi kerak. U ko'proq ochiq, ijodiy savollar berishi kerak, bunda javoblar bir necha xil bo'lishi mumkin, ushbu holat esa muloqotning davom ettirilishiga chorlaydi. Savol bilan talabalarni himoyalashga majburlamaslik kerak. Ularda tanlashga imkoniyat bo'lishi kerak va ushbu imkoniyatni ular o'zlari yaratadi. Pedagogikada savol berish turlari 6 xildir (1.3-jadval):

1.3-jadval
Savol turlari

No	Turlari	Mazmuni
1.	Oddiy savollar	Ularga javob berish uchun qandaydir faktlarni atash, ma'lum axborotni eslash va namoyish etish kerak. An'anaviy nazorat shakllarida ko'pincha qo'llanadi. Masalan: Innovatsiya nima? Pedagogik texnologiya nima?
2.	Aniqlovchi savollar	Odatda ular: Sen demoqchisanki...? Agar to'g'ri tushungan bo'lsam...? Balki yanglishayapman,

		lekin menimcha Siz ...haqida aytdingiz? so'zlaridan boshlanadi. Bu savollarning maqsadi talaba aytgan gaplariga teskari aloqa o'rnatishga imkoniyat berishdir. Ba'zan ular xabarda berilmagan, lekin nazarda tutilgan axborotni olish uchun beriladi. Bu savollarni salbiy imo-ishorasiz berish muhim. Aniqlovchi savolga parodiya sifatida hammaga ma'lum misolni keltirish mumkin. Sen haqiqatdan ham... deb o'ylaysanmi?
3.	Tushuntirish savollari	Odatda Nega? so'zi bilan boshlanadi. Ba'zi vaziyatlarda salbiy qabul qilinishi mumkin, o'zini oqlashga majburlash sifatida. Boshqa hollarda ular sabab oqibat aloqalarini o'rnatishga qaratiladi. Nega yozda issiq bo'ladi? Agar bu savolga javob ma'lum bo'lsa, u tushuntirishdan oddiyga aylanadi. Demak, bu turdagi savol faqat javobda mustaqillik elementi bo'lsagina yaxshi natija beradi.
4.	Ijodiy savollar	Agar savolda bo'lsa edi qo'shimchasi mavjud bo'lsa, shartlilik elementlari, taxmin, bashorat bo'lsa, u ijodiy deyiladi.
5.	Baholash savollari	Bu savollar u yoki bu voqea, voqelik, faktlarni baholash mezonlarini aniqlashga qaratilgan. Masalan. Nega bu yaxshi, bu esa yomon? Bu darsning ikkinchisidan farqi nimada?
6.	Amaliy savollar	Agar savol nazariya bilan amaliyot o'rtasidagi bog'lanishni aniqlashga qaratilgan bo'lsa, uni amaliy deb aytamiz. Masalan. Siz ta'lim sifatini oshirish uchun qanday tavsiyalar bergan bo'lardingiz?

Topshiriqlar tuzish. Talaba maqsadlarini topshiriqlarga aylantirish darani pedagogik texnologiya bo'yicha loyihalashning muhim bosqichi bo'lib hisoblanadi. Chunki, maqsadlar topshiriqlarga muvaffaqiyatli aylantirilgandagina, ularga erishganlikni aniq bilish mumkin bo'ladi. Talaba maqsadlari o'quv materialining muhim tushunchalarini qamrab olishi va

topshiriqlar ham shunga muvofiq tuzilishi kerak. Topshiriqlar talabalaraniq hatti-harakatini anglatuvchi yuqoridagi fe'llarda ifodalanishi darkor. Bunda o'zlashtirishning fikrlash darajalariga muvofiq bo'lgan fe'llardan ko'proq foydalanishga alohida e'tibor berish lozim. Chunki, ular materialni yuqori intellektuallik darajalarida o'zlashtirilishini ta'minlaydi. Har bir topshiriq faqat bir tushuncha yoki qonun-qoidani o'zlashtirilganligini tekshirishi hamda ixcham, tushunarli tarzda bayon qilinishi lozim. Aks holda, bu talaba uchun qo'shimcha qiyinchilik tug'diradi va o'quv motivlarini susaytiradi.

Topshiriqlar og'zaki savol-javob, yozma va test shakllarida tuzilishi mumkin. Bir maqsadga turli shakllardagi topshiriqlar tuzish ham samarali bo'ladi. Chunki, bunda talabalarining muayyan topshiriqni o'zlashtirganligiga oid bilimni xolisona baholash imkoniyati yaratiladi. Og'zaki savol-javob, pedagogning talabalar bilan bevosita muloqati bo'lib, bunda savollarga berilgan javoblar baholanadi. Topshiriqlar ta'limdagi mavjud tamoyillar asosida tuzilishini ta'minlash maqsadga muvofiq. Bunga mavzular, topshiriqlar mazmunining tayanch tushuncha va metodlar doirasida joylashtirilishi, mavzular mazmun-mohiyatida izchillik, tizimlilik, mazmunning yaxlitligi va amaliy ahamiyatligi, materiallarning taqdim etilishi tamoyillari kiradi.

Pedagogik izlanuvchanlikning eng muhim vositalari – bu, ko'rgazmali qurollar; ilmiy va badiiy adabiyotlar; kinematografiya; audio va video uskunalar; komp'yuter dasturlari, Internet; haqiqiy ob'ektlar kabilardir. Yana bir vositasi-turli seminarlar, vebinarlar, kurslarda o'qishdir. Mustaqil izlanuvchanlikning muhim manbai -bu odamlar, ularning bilimlari va tajribasidir. Ushbu munosabatlar insonning axborot maydonini kengaytirishga sezilarli hissa qo'shishi mumkin.

Mustaqil izlanuvchanlikni amalga oshirish bosqichlari quyidagi 1.4-jadvalda o'z aksini topgan:

1.4-jadval

Mustaqil izlanuvchanlikni amalga oshirish bosqichlari

Bosqichlar	Nomi	Mazmuni
Birinchi bosqich	Nazariy	Turli manbalardan ma'lumotlarni to'plash (dasturlar, usullar, manbalar, Internet resurslari); yangi texnologiyalar, ish

		shakllari, usullari bilan tanishish; ushbu mavzu bo'yicha pedagoglarning tajribasini o'rganish (darslarga qatnashish, talabalar bilan o'zaro munosabatlarni kuzatish, ular portfelini tahlil qilish, suhbatlar).
Ikkinchi bosqich	Amaliy	O'z faoliyatini loyihalash; o'rganilgan texnologiyalar, ish shakllari va usullarini talabalar bilan ishlash, amaliyotida qo'llash; individual usullarni sinovdan o'tkazish.
Uchinchi bosqich	Umumlashtirish	Yangi shakl va usullarni qo'llash samaradorligini nazorat qilish; mustaqil ta'lim natijalarini sarhisob qilish va uning samaradorligini tahlil qilish; hisobotlarni tuzish.
To'rtinchi bosqich	Amalga oshirish	Erishilgan natijalarni amaliyotga joriy etish.

Mustaqil ta'lim mavzusini tanlash. Pedagoglar tomonidan turli ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish ta'lim sifatini ta'minlashda nihoyatda muhim vazifa hisoblanadi. O'quv jarayonining samaradorligi pedagogning talabalarni o'qitishning qanday texnologiyalariga ega ekanligiga, u talabalarining ma'lum xususiyatlariga qarab usullarni qanchalik moslashuvchan qo'llashiga bog'liq [99].

Mustaqil ta'lim mavzusida ishlash tartibi. Mustaqil ta'lim mavzusi quyidagilarga asoslanib belgilanadi: ta'lim muassasasining yagona uslubiy mavzusi; mavzuning dolzarbligi va ahamiyati, ilmiy, nazariy va amaliy ahamiyati; pedagoglarning qiyinchiliklari; pedagogik tajriba; pedagogning kasbiy malakasi darajasi.

Mustaqil ta'lim mavzusi ustida ishlash jarayonida va uni tugatgandan so'ng, pedagog to'plangan materialni taqdim etadi. Taqdimot shakllari boshqacha bo'lishi mumkin: ishlab chiqilgan yoki nashr etilgan uslubiy qo'llanmalar, maqolalar, darsliklar, dasturlar, ssenariylar, tadqiqotlar; o'qitishning yangi shakllari, usullari va usullarini ishlab chiqish; ma'ruzalar, chiqishlar; didaktik materiallar, testlar, ko'rgazmali materiallar va

qo'llanmalar ishlab chiqish; zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bo'yicha moslashtirilgan yo'riqnomalarni ishlab chiqish (o'quv, axborot); ochiq darslarni mustaqil, innovasion texnologiyalar (texnika, uslublar) asosida loyihalash va o'tkazish; o'quv-uslubiy majmualarni yaratish; o'rganilayotgan muammo (mavzu) bo'yicha tajribani umumlashtirish [100].

Mustaqil ta'lim mavzusini qanday qilib to'g'ri shakllantirish kerak: 1-bosqich: (asosiy qism: muammo bor); 2-bosqich (havola) (yaxshilash, shakllanish, integrasiya, rivojlanish, tashkilot, amalga oshirish, ilova, foydalanish, boshqaruv, ko'paytirish, rivojlanish, amalga oshirish, yaratish; 3-bosqich belgilangan muammoni hal qiladigan jihat vosita sifatida, shart sifatida, aspekt, omil, asos, mexanizm, rivojlanish, yaxshilash, faollashtirish, oshirish, optimallashtirish, samaradorlik, amalga oshirishdan iborat.

Pedagogning individual mavzu (muammo) bo'yicha ishining algoritmi quyidagilarni o'z ichiga oladi: individual ilmiy va uslubiy ish uchun mavzu (muammo) tanlash hamda adabiyotlar, huquqiy hujjatlar bilan tanishish; tadqiqot muammosi bo'yicha ilg'or pedagogik tajribani o'rganish; kerakli manbalar orqali muammo bilan batafsil tanishish va manbalar faylini tuzish; mavzuni aniqlashtirish va individual ilmiy-uslubiy ish rejasining dastlabki variantini ishlab chiqish; dolzarblik va yangilik, adekvat usul va vositalarini tanlash; ishning maqsadi va vazifalarini shakllantirish hamda individual ish uchun kalendar rejasini ishlab chiqish; pedagogik faoliyatning modellari, innovasion texnologiyalarini tanlash va ishlab chiqish hamda innovasiyalarni ularning pedagogik faoliyati amaliyotiga joriy etish; ilmiy-uslubiy mavzu(muammo) bo'yicha individual ish tajribasi natijalarini tahlil qilish va baholash, xulosalar va takliflarni shakllantirish hamda ishning loyihasini, olingan natijalar haqida hisobot berish.

Pedagogning o'z mustaqil ta'limini tashkil etish texnologiyasi quyidagilardan iborat(1.5-jadval):

1.5-jadval

Pedagogning o'z mustaqil ta'limini tashkil etish texnologiyasi

Bosqichlar	Nomi	Mazmuni
Birinchi bosqich	Diagnostika	Mustaqil ish uchun ijodiy muhitni yaratish, muammolarni tahlil qilish, muammoni qo'yish, u bo'yicha psixologik, pedagogik va

		uslubiy adabiyotlarni o'rganish, natijalarni umumlashtirish. Ushbu bosqichda "Pedagogning rivojlanishga tayyorligi darajasini baholash" so'rovnomalari yordam beradi.
Ikkinchi bosqich	Axborot va tayyorgarlik (kirish va tanishish):	Ilmiy-metodik va o'quv-uslubiy adabiyotlarni va davriy nashrlarni o'rganish; boshqa pedagoglarning ishi bilan tanishish; mavzu bo'yicha adabiyotlar va davriy nashrlarning shaxsiy kartotekasini yuritish.
Uchinchi bosqich	Amaliy	Pedagog keyingi ish jarayonida o'z tajribasidan foydalanishi va ommalashtirishi. Innovasion pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda dars loyihasini ishlab chiqish; konferensiya va seminarlarda ishtirok etish.
To'rtinchi bosqich	Yakuniy (hisobot)	Hisobot shakllari: loyiha taqdimoti, pedagogik tajriba almashish va umumlashtirish bo'yicha pedagoglar kengashi, uslubiy birlashma va konferensiyada chiqishlari, mahorat darslari, "Yil pedagogi" tanlovlarida ishtirok etish.

Shunday qilib, talabalarning mustaqil izlanuvchanligi samarali bo'lishi uchun-bu jarayonda ularning o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojini amalga oshirishi, o'z mobillik faoliyatining ijobiy va salbiy tomonlarini tushunishi; fikrlash qobiliyati rivojlangan bo'lishi; ijodga tayyorligi bo'lishi, shaxsiy va mobilligi ta'minlanishining o'zaro bog'liqligi amalga oshirilishi lozim.

2.2§. Talabalarining mustaqil ta'lim asosida akademi mobilligini rivojlantirish modeli va uning vazifalari

Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining akademik mobilligini rivojlantirishda ingliz tilidan mustaqil izlanuvchanlik samaradorligini ta'minlashga yo'naltirilgan tadqiqot ishini amalga oshirish, ilmiy-metodik tavsiyalar bilan ta'minlash, metod va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, uning samaradorligi oshganligini ko'rsatadigan ko'rsatkichlarni belgilash tadqiqot ishini muvaffaqiyatli tashkil etish va yakunlashga imkon berdi.

Talabalarining akademik mobilligini rivojlantirishda quyidagi usullar ingliz tili fanidan mustaqil izlanuvchanlik samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi:

- ◆ ingliz tili fanidan mustaqil izlanuvchanlikni umumiy holda loyihalashini ta'minlash;
- ◆ ingliz tili fanidan mustaqil izlanuvchanlikni amalga oshirishda maqsadning aniqlanishi; unga erishish yo'lida bajariladigan vazifalarning puxta belgilanishi;
- ◆ ingliz tili fanidan o'rganiladigan materiallar mazmunini ishlab chiqish; ma'lum bosqichlarga ajratish;
- ◆ talabalar mustaqil faolligini nazorat qilishning shakl, metod va usullarini aniqlash;
- ◆ mashg'ulot loyihasini amaliyotga tatbiq etish; ingliz tili fanidan mustaqil izlanuvchanlik natijalarini tahlil etish kabi shakllarini o'z ichiga oladi.

Bizningcha, talabalarining akademik mobilligini rivojlantirishda ingliz tilini innovatsion texnologiyalar yordamida o'qitish talabalarda lingvistik, sotsiollingvistik, pragmatik va strategik kompetensiyalari kommunikativ yondashuv doirasida rivojlantirish yo'llari, mustaqil ta'limni takomillashtirishga asos bo'ladi.

Amerika Qo'shma Shtatlaridagi Milliy trening markazining ma'lumotlarida innovatsion texnologiya, ya'ni interfaol uslub talaba ongiga, tuyg'usiga, irodasiga ta'sir ko'rsatib, tafakkurini oshirishi ifodalangan. «Idroklar xaritasi», (MindMapping) «Muzyorar», (Iceberg) «Zigzag», (ZigZag) «Kubik», «Kimsasiz orolda», «Rolli o'yinlar», (Role Play) «Bahs munozara»,

«Debatlar», (Debate) «Blum taksonomiyasi» kabi zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda talaba faoliyati quyidagilardan iborat: sotirasini ishga tushirishni; faolligini oshirishni, axborot almashinishni, bilganlarini tartibga solishni, bilmaganlarini so'rab olishni, qiziqishni kuchaytirishni, o'z tushunchalarini nazorat qilishni, mustaqil o'rganish va mustaqillikni, manbalar bilan ishlash.

Demak, talabalarining akademik mobilligini rivojlantirishda ingliz tilini o'qitish va chet tili kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning faoliyat mexanizmlarini takomillashtiradi.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi ingliz tilini o'rganishda eng so'nggi interaktiv manbalarni, jumladan so'nggi avlod komp'yuterlari, Internet, televizion dasturlar, gazeta va jurnallarni yaratmoqda. Yuqorida aytilganlarning barchasini amalda qo'llash juda muhimdir.

Biz tadqiqot ishimizning mazkur qismi talabalarining akademik mobilligini mustaqil ta'lim jarayonida rivojlantirish modelini ishlab chiqishga qaratilgan. Talabalarga model va modellashtirish ancha tanish terminlar. Model-bu biror predmetni o'rganish va bilish vositasidir.

Modellashtirish terminini pedagogika faniga birinchi bo'lib V. A. Shtoff kiritgan. Modellashtirish-bu nazariy anglash jarayoni bo'lib, mantiqiy fikrlash asosida amalga oshiriladigan empirik yoki nazariy bilimlar majmuasidir. Modelning ta'rif turli soha vakillari tomonidan turlicha talqin qilingan. Masalan, tadqiqotchilardan B. A. Glinskiy, E. P. Nikitin [119] modelni "o'rganilayotgan obyekt bilan mos keladigan (aynan ham emas, mutlaqo farqli ham emas) va ba'zi jihatlari bilan ob'ektning o'rnini bosa oladigan hamda o'rganish jarayonida ma'lum darajada obyekt haqida axborot beradigan mustaqil obyekt" sifatida ta'riflaydilar.

V. P. Simonovning ta'kidlashicha, model -bu "real jarayon yoki hodisani yiriklashtirilgan yoki kichiklashtirilgan ko'rinishda yoki kompyuter yordamida virtual borliq holida uning xususiyatlarining qayta aks ettirilishidir".

S. I. Arxangel'skiy e'tirof etishicha modellashtirish tabiiy yoki sun'iy ta'limdan foydalangan holda bevosita bilish metodi bo'lib, u tadqiq etilayotgan ob'ektning o'rnini ma'lum ma'noda bosa oladi va obyekt ta'g'risida yangi ma'lumotlarni aniqlash imkonini beradi. Ana shunday yo'l

bilan, taklif etilgan model asosida bevosita kuzatish, tajriba o'tkazish, hisoblashishlarini tashkil etish va keyinchalik tahlil etish orqali ob'ektda kechgan jarayon haqida fikr bildirish mumkin.

Tadqiqotimizning maqsadidan kelib chiqib, biz ham yuqorida modelga berilgan tasniflarga tayanib talabalarining akademik mobilligini mustaqil ta'lim jarayonida rivojlantirish modeli ishlab chiqdik.

Talabalarining akademik mobilligini mustaqil ta'lim jarayonida rivojlantirish modelining umumiy ko'rinishi 1.1-rasmda keltirilgan. Mazkur modelning yaratilishi va uning pedagogika oliy ta'lim muassasalarida joriy etilishi, mustaqil ta'lim talabalarni ijodiy faollikka yo'naltirib, erishilgan bilim, ko'nikma va malakalaridan yangi vaziyatlarda qo'llay olishi, ularda izlanuvchanlik faoliyati, mustaqil ishlash vositalarini tanlay olishida eng maqbul usullarni taklif qilish ko'nikmalarining shakllanishiga imkon beradi. Talabalarining akademik mobilligini mustaqil ta'lim jarayonida rivojlantirish modelida talabalarining akademik mobilligini mustaqil ta'lim jarayonida rivojlantirish bosqichlari, akademik mobilligini mustaqil ta'lim jarayonida rivojlantirish algoritmi, akademik mobilligini aks ettiruvchi sifatlarining shakllanishiga xizmat qiladi. Talabalarining akademik mobilligini rivojlantirishdan maqsad: bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini shakllantirish, zamonaviy yondashuvlar asosida tarbiyalash, raqobatbardoshligini oshirish va bilish traektoriyasini kengaytirishdan iborat.


Akademik mobillikni rivojlantirishda talabalar: izlanuvchanlik faoliyatini belgilash, mustaqil ishlash traektoriyasini va vositalarini tanlash, o'zini o'zi nazorat qilish va o'zini o'zi rag'batlantirishga ega bo'ladi. Talabalarining akademik mobilligini mustaqil ta'lim jarayonida rivojlantirish bosqichlari quyidagilardan iborat:

Tanishish: Nofilolog bo'lajak pedagoglarni topshiriqlar mazmuni bilan tanishtirish, uni bajarish bo'yicha tushuncha berish;

Aniqlash: Bo'lajak pedagoglarni o'zga tilni o'zlashtirishdagi dastlabki bilish darajasini aniqlash;

Egallash: Bo'lajak pedagoglar kasbiy qiziqishlari asosida yangi bilimlarni egallash;

Yakuniy: O'zga tilni o'zlashtirishi natijasida tushuntira olish va tushunchasini yetkazib berish jarayonini tashkil etish;



Talabalarining akademik mobilligini aks ettiruvchi sifatlar mavjud, ular quyidagilar: tezkorlik, onglilik, o'zini o'zi nazorat qilish, tejamkorlik, kommunikativlik, kreativlik, topqirlik, uddaburonlik, shijoatlilik, motivatorlik talabalarining o'qishga jalb etilishi va mas'uliyati; akademik mobillikka talabalarni jalb qilish; turli akademik mobillik dasturlarini faol tahlil qilish; loyihaning har bir topshirig'ini bajarish natijalarini diagnostika qilish va shunga mos ravishda akademik mobillikni ta'minlashning har bir komponentining shakllanishiga imkon beradi. Talabalarining akademik mobilligini mustaqil ta'lim jarayonida rivojlantirish algortmiga pedagogik faoliyati, (motivator, moderator, tyutor), bo'lajak pedagog faoliyati: mustaqil izlanuvchanlik (kuzatish, o'rganish, egallash, tajribadan o'tkazish, qo'llay olish).

Metodlar: Nano Learning, "3T" loyihasi, TOMATO.

Nano Learning Nano ta'lim – bu ixchamlashtirilgan ma'lumotni qiziqarli tarzda yetkazishning zamonaviy usuli. Axborot kichikroq va soddaroq formatda baham ko'rilsa, uni tushunish va yodda saqlab qolish osonroq bo'ladi. Nano ta'limning asosi ma'lumotlarning ixchamliligidir. U raqamli texnologiyalarga tayanishi bilan ajralib turadigan hozirgi avlodning kontentni iste'mol qilish afzalliklarga qaratilgan.

3T "Loyixasi", – Bu Talaffuz, Tarjima, Tasavvur ma'nolarini bildiradi. Mazkur metodda talaba o'rganayotgan chet tillidagi so'zining tallafuzini eshitadi, so'ngra uni tarjima qiladi va o'rgangan so'zni hayolida tassavur qiladi. Bu metod talabalarda fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga yordam beradi.

"TOMATO" metodi – talabalarda Time management uchun yordam beradi. Mashg'ulotni boshqarishni o'rgatadi. Talaba o'rganilayotgan yangi matn uchun, yangi so'zlar ma'nosini izohlash, tarjima qilish uchun vaqt belgilaydi. Talaba o'zi uchun 15+15 holatini belgilash mumkin. Bunda talaba 15 daqiqa tarjima, 15 daqiqa yodlash uchun, 15 daqiqa qayta gapirib berish uchun vaqt ajratadi. Talabalarda Critical thinking (mantiqiy fikrlashni) rivojlantiradi.

Baholash vositasi: talaba portfoliosi, talaba kundaligi.

PORTFOLIO – mustaqil ta'lim jarayonini baholash vositasi sifatida foydalanilgan. Talabalarining mustaqil ta'lim jarayonida o'rgangan yangi axborotlarni, erishgan yutuqlarini o'z ichiga oladi. Bu esa mustaqil ta'lim

jarayonida samaradorlikka erishganligining tahliliy-tanqidiy refleksiv baholash imkonini beradi. Mazkur modelning yaratilishi natijasida talabalarining akademik mobilligini mustaqil ta'lim jarayonida rivojlanadi.

Demak, akademik mobillik – ta'lim jarayonining shunday mexanizmiki bunda, talaba ma'lum bir davrda ta'lim jarayoni orqali boshqa bir muassasaga (o'z mamlakatida yoki xorijda) yakka tartibda yoki birgalikda ilmiy tadqiqot faoliyati doirasida moslashish uchun harakatlanadi.

Talabalar o'rtasida akademik mobillikka tayyorlikni muvaffaqiyatli pedagogik qo'llab-quvvatlash uchun zarur bo'lgan pedagogik shart-sharoitlar, usullar aniqlash muhim, ya'ni: talabalarining akademik mobilligini ta'minlashni kasbiy ahamiyatga ega sifatida faollashtirish; pedagogning maslahatchi rolga tayyorligi va ta'lim texnologiya va usullaridan foydalanish; talabalarining o'qishga jalb etilishi va mas'uliyati; akademik mobillikka talabalarni jalb qilish; turli akademik mobillik dasturlarini faol tahlil qilish; loyihaning har bir topshirig'ini bajarish natijalarini diagnostika qilish va shunga mos ravishda akademik mobillikni ta'minlashning har bir komponentining shakllanishiga imkon beradi.

Talabalar o'rtasida akademik mobillik tarkibiy qismlarining rivojlanishi shaxsiy fazilatlar- yosh davrining neoplazmalari bilan belgilanadi. Talabaning akademik mobilligi kelajakdagi kasbiy faoliyat doirasida mustaqil ravishda aniqlash qobiliyatida, shuningdek, o'zini qiziqtirgan kasbiy sohaga o'zini amalga oshirishga imkon beradigan individual ta'lim yo'nalishini mustqil ravishda yaratish va amalga oshirish qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Bitiruvchida akademik mobillikni rivojlantirishning namoyon bo'lishi: mehnat bozorini bilish, hayotning ma'lum bosqichida kasbiy o'zini o'zi belgilash, fanlarni o'rganish darajasini tanlash qobiliyati (asosiy-ilg'or), subyektlarning o'zlari (majburiy-qo'shimcha), ta'limshakllari (kunduzgi, sirtqi), tanlov tadbirlari, olimpiadalar, ta'lim muddati va joylari bilan bog'liq. Ushbu davr doirasida talabada ta'lim va o'z-o'zini tarbiyalashga shaxsiy munosabati shakllanadi, kognitiv va opertasion tarkibiy qismlarining o'sishi ta'lim va o'z-o'zini tarbiyalashga bo'lgan hurmat munosabatiga muvofiq amalga oshiriladi.

Demak, akademik mobillikning rivojlanishi yoshga bog'liq neoplazmalar tufayli uning tarkibiy qismlarining o'zgarishi bilan tavsiflanadi. Talabalar o'rtasidagi akademik mobillikni rivojlantirish faqat talaba maxsus yaratilgan

vaziyatda faoliyat subyekti bo'lgan o'quv jarayoni doirasida bo'lishi mumkin. Bunday holat talabalar va o'qituvchilar faoliyatida yuzaga keladi. Talabalar o'rtasidagi akademik mobillikni rivojlantirish jarayonida talabalar, o'qituvchilar va rahbarlar subyektlar sifatida ishtirok etadilar, shuning uchun bu jarayon ko'p bosqichli jarayondir. Talabalar o'rtasidagi akademik mobillikni rivojlantirish jarayonining subyektlari bo'yicha quyidagi darajalarni ajratish mumkin.

1.5-jadval

Talabalar o'rtasidagi akademik mobillikni rivojlantirish jarayonining subyektlari bo'yicha quyidagi darajalar

№	Daraja	Mazmuni
1.	Institutsional darajada	Subyekt-ta'lim tashkilotining rahbari va o'rinbosarlari, obyektlar-o'qituvchilar va talabalar
2.	Pedagogik daraja	Subyektlar- o'qituvchilar, obyekt-talabalar
3.	Shaxsiy darajada	Rivojlanish jarayonining predmeti obyekt bilan mos keladi-talabalar

Mazkur jadvaldan ko'rinib turibdiki, insonning yangi bilim, ko'nikma va odatlarini egallashi yoki o'zgarishi, yangi ijtimoiy tajribani o'zlashtirishi odatda o'quv faoliyati deb tushuniladi. Talabalarining akademik mobilligini shaxsiy darajada rivojlantirish ta'lim faoliyati doirasida amalga oshiriladi.

Shunday qilib, quyidagi xulosaga kelish mumkin, talabalarining akademik mobilligini mustaqil ta'lim jarayonida rivojlantirish modeli bo'lajak pedagoglarni ijtimoiy ko'nikma hamda hayotiy kompetensiyalarini rivojlantirishda, ta'lim sifatining o'sishiga, o'quv dasturlarining umumiyevropa ta'lim makonida tan olinishiga erishishiga raqobatdoshlikni oshirishga imkon beradi. Bundan tashqari akademik mobillik talabalarining kasbiy o'sishini, uning martabasining ko'tarilishini hamda iqtisodiy hayotiylikni ta'minlaydi. Ushbu tamoyilni amalga oshirishning sharti o'quv jarayonining individuallashtirish va moslashuvchanlikni oshirishdir.

2.35. Talabalarining mustaqil izlanuvchanligi asosida akademik mobilligini ta'minlashda ingliz tili fanining o'rni va roli

Bugungi kunda Respublikamiz ta'lim sohasida mustaqil ta'limga oid bilimlar targ'ibotini kuchaytirish, uning samaradorligini oshirish, bu sohada ishchi tizimni yaratish zaruriyati tug'ilmoqda. Talabalarda fanlardan, jumladan, ingliz tili fanidan mustaqil ta'limga oid bilimlarni egallashga bo'lgan qiziqishni shakllantirish, bu sohada o'quv-bilish kompetensiyalarini hamda talabalarining akademik mobilligini rivojlantirish mustaqil ta'lim samaradorligining ta'minlanishiga bog'liq. Mazkur fandan mustaqil ta'limni tashkil etish, uning samaradorligini oshirish, talabalarining akademik mobilligini rivojlantirish shuning uchun ham muhimki, bunda talabalar yosh xususiyatlariga ko'ra mustaqil faoliyat yuritishga tayyorlanish, mikrosotsiumda o'z o'rnini topishga intilish, kasbiy faoliyat yo'nalishini qat'iy belgilab olishga nisbatan jiddiy munosabatda bo'ladilar.

Ingliz tili fanidan talabalarining akademik mobilligini rivojlantirishda mustaqil ta'lim quyidagi holatlarning qaror topishi uchun muayyan shart-sharoitlarni ya'ni, talabalarda ingliz tilidan mustaqil ta'limga oid bilimlarni egallashga bo'lgan qiziqishlarini, o'quv-bilish kompetensiyalarini, mustaqil faolligini, Internetdan foydalanishni, xorij ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirishni yo'lga qo'yishga xizmat qilishi lozim. Shunday ekan, bu fandan mustaqil ta'limni innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari asosida tashkil etish, uning zamonaviy shakl, metod va vositalaridan foydalanishga e'tibor berish muhim ahamiyatga ega. Lekin, ingliz tili fanidan mustaqil ta'limni tashkil etishda bir qator o'z yechimini kutayotgan muammolar mavjud. Ular ta'lim muassasalarida mazkur fandan mustaqil ta'limni davrtalablari asosida tashkil etish, samaradorligini oshirish kabi muhim muammoni ilmiy jihatdan hal qilishdir. Ingliz tilidan mustaqil ta'lim samaradorligini oshirish sohasidagi muammolarning ko'lamini aniqlash, ularni keltirib chiqarayotgan omillarni o'rganish, tahlil etish bu vazifalarni yechish yo'llarini ko'rsatishni taqozo qilmoqda. Shu maqsadda mustaqil ta'lim mazmunini belgilash, uning samaradorligini oshirish muammosi ingliz tili fanida qay darajada echilganligini tahlil qilib, xulosalar chiqarishga harakat qildik.

Ta'lim muassasalarida amalga oshirilayotgan mustaqil ta'lim talabalarga

ingliz tili fani asoslari to'g'risida nazariy bilim berish, amaliy ko'nikmalarini, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, o'quv yili davomida amalga oshiriladi. Talabalarining akademik mobilligini ta'minlashda mustaqil ta'lim-talabalarning ingliz tiliga oid bilimlarni puxta egallashlari, ahamiyatini izohlay olishi, to'g'ri tushunishi kabi sifatning shakllanishi bilan belgilanadi, ingliz tili fani asoslariga oid bilimlarini mustahkamlash uchun sharoit yaratiladi, kundalik faoliyatlarida qo'llash ko'nikmasi va mustaqil faolliklarini shakllantirishga erishiladi.

Hozirda talabalarining akademik mobilligini rivojlantirishga yo'naltirilgan mustaqil izlanuvchanlikni yagona tizim asosida tashkil etishga alohida e'tibor qaratish lozim. Bu tizim doirasida oliy ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan ingliz tili fanidan mustaqil izlanuvchanlik sifatini yaxshilash, uning samaradorligini oshirish alohida ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, bu fandan mustaqil izlanuvchanlik samaradorligini oshirish imkonini beruvchi didaktik shart-sharoitlarning OTMLarida mavjud ekanligini aniqlash, mazmuni hamda izchil tizimini ishlab chiqish, mustaqil izlanuvchanlikni amalga oshirishda turli texnologiyalardan foydalanish, talabalarining faolligini oshirish yo'llarini aniqlash, ingliz tiliga oid bilimlarni mustaqil o'qib-o'rganish ko'nikmasini shakllantirish hamda mazkur sohadagi tajribalarning ommalashtirilishini amalga oshirish dolzarbdir.

Talabalarining akademik mobilligini rivojlantirishga yo'naltirilgan ingliz tili fanidan mustaqil izlanuvchanlik samaradorligini quyidagi mezonlar yordamida aniqlash mumkin: zamonaviy texnik vositalar bilan ta'minlanganligi; talabalarining mustaqilligi va faolliklarining yuzaga kelganligi; talabalar tomonidan ingliz tili faniga oid bilimlarni puxta egallanishi uchun sarflangan vaqtning qisqaligi, mazkur jarayonda talabalarda tanqidiy fikrlash, ijodiy qobiliyat va kasbiy mahoratlarining shakllanganligi.

Talabalar tomonidan ingliz tili faniga oid bilimlarning puxta egallanishi, davlat ta'lim standartlari asosida mustaqil bilimlarni egallashlari, kompetensiyalarga ega bo'lishlarini ta'minlashda o'quv-me'yoriy hujjatlar (DTS, o'quv dasturlari) talabalariga muvofiq amalga oshirilayotgan mustaqil ta'lim muhim ahamiyatga ega. Ingliz tili fanidan mustaqil ta'limda talabalarga berilayotgan bilimlar, ularning kasbiy mahoratlarini shakllantirishga imkon beradi.

Mustaqil izlanuvchanlik samaradorligini oshirish quyidagilar yordamida ta'minlanadi: ingliz tili fanidan dars beruvchi pedagoglarining bilimlar asoslarini puxta egallaganliklari; amaliyotda qo'llay olish hamda o'z ustida ishlash va ijodiy faoliyatni tashkilotish kompetensiyasiga egaliklari; talabalarda ingliz tili fanidan bilim asoslarini egallashga nisbatan e'tiborni qaror toptira olishlari; ilg'or texnologiyalar va ulardan mustaqil ta'lim jarayonida samarali foydalana olishning mohiyatini chuqur anglashlari; OTMLarining etarli darajada o'quv moddiy-texnik bazasiga egaligi; mustaqil ta'lim samaradorligi ta'minlashga xizmat qiladigan monitoring tashkil etilganligi.

Talabalarining akademik mobilligini ta'minlashda ingliz tili fanidan mustaqil izlanuvchanlik samaradorligini oshirishning samarali yo'llari sifatida ilg'or texnologiyalardan foydalanish ijobiy natijalar bera olishiga kuzatishlarimiz jarayonida ishonch hosil qildik. Dastlabki kuzatishlar jarayonida o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra mustaqil izlanuvchanlikni amalga oshirishda ingliz tili o'qituvchilarining qiyinchiliklarga duch kelayotganligini guvohi bo'ldik. Shuning uchun tadqiqot doirasida ingliz tili fanidan mustaqil izlanuvchanlikni samarali tashkil etish muhim vazifalardan biri sifatida e'tirof etildi.

Shunga muvofiq "Izlanuvchanlik loyihasi" mavzusida amaliy trening o'tkazildi. U quyidagi bosqichlardan iborat bo'ldi:

I. Tashkiliy bosqichda – treningni o'tkazish uchun talab qilinadigan ob'ektiv shart-sharoitlarni o'rganildi, uni o'tkazishga ma'sullar belgilandi, ularga aniq topshiriqlar berildi, kerakli jihozlar tayyorlandi, treningning o'tkazilishi haqida ishtirokchilar (og'zaki yoki yozma tarzda) ogohlantirildi hamda loyihasi ishlab chiqildi.

II. Asosiy bosqichda trening loyihasi ishlab chiqildi (1.6-jadval):

1.6-jadval
Izlanuvchanlik loyihasi bosqichlari

Bosqichlar	Amalga oshirilgan ishlar
Birinchi bosqich	Pedagoglar o'rtasida anketa so'rovlari o'tkazilib, innovatsion texnologiyalardan ingliz tili fanidan mustaqil izlanuvchanlikda foydalanish imkoniyatlari to'g'risidagi bilimlari aniqlandi. Ularga Mustaqil izlanuvchanlikda ilg'or texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini Siz qanday baholaysiz? Mustaqil izlanuvchanlikni loyihalash deganda Siz nimani tushunasiz? Mustaqil izlanuvchanlikni loyihalashda nimalar muhim ahamiyatga ega? Mustaqil izlanuvchanlik bilan bog'liq faoliyatingizni muayyan loyiha asosida tashkil etganmisiz? kabi savollar berildi.
Ikkinchi bosqich	Mustaqil izlanuvchanlikni loyihalash bo'yicha nazariy ma'lumotlar berildi. Innovatsion texnologiya va mustaqil ta'lim jarayoni (kichik ma'ruza). Mustaqil izlanuvchanlikka bag'ishlangan mashg'ulot loyihasini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadigan omillar, ko'rgazmali tarqatma materiallar bilan tanishtirildi. Mustaqil izlanuvchanlikni muayyan loyiha asosida tashkil etish namunasi (Amaliy trening).
Uchinchi bosqich	Mustaqil izlanuvchanlikka oid ijodiy faoliyat tashkil etildi. Ular tomonidan mustaqil izlanuvchanlik loyihasi ishlab chiqildi (avtogen mashq). Men - loyihachiman (ko'rgazmali taqdimot). Eng mukammal loyiha (tanlov).
To'rtinchi bosqich	Talabalar o'zlashtirgan mustaqil bilim, shakllangan izlanuvchanlik kompetensiyalari darajasini aniqlandi. Mustaqil izlanuvchanlikka bag'ishlangan trening mazmuni va yo'nalishi xususida Siz qanday fikrdasiz? (Interv'yu). Mustaqil izlanuvchanlikka bag'ishlangan treningda muayyan ma'lumotlarga ega bo'ldingizmi? (Interv'yu). Mustaqil izlanuvchanlikka bag'ishlangan mashg'ulotda loyihalashtirish afzalliklari (Davra suhbat).

III. Yakuniy bosqich. Trening jarayoni natijalari tahlil etildi.

Treningda pedagoglar ishtirokidavrasuhbati tashkil etilib, mustaqil izlanuvchanlikka bag'ishlangan tadbirlarni avvaldan loyihalashtirishning afzalliklari muhokama qilindi. Davra suhbatida pedagoglar ingliz tili fanidan mustaqil izlanuvchanlikka oid Treningning yangicha yondashuv asosida tashkil etilishi quyidagi afzalliklarga egaligini ta'kidlab o'tdilar. Ingliz tili fanidan ushbu treningning o'tkazilishi uchun zarur bo'lgan obyektiv va subyektiv omillarning mavjudligi o'rganildi; treningni o'tkazish uchun sarflanadigan vaqt hajmi belgilab olindi; uni o'tkazishdan ko'zlangan maqsad va uning natijasi haqida yetarli ma'lumotlar to'plandi hamda istiqboldagi vazifalarni belgilash va bu sohada faoliyat olib borish uchun sharoitlar yaratildi.

Talabalarining akademik mobilligini ta'minlashda ingliz tili fanidan mustaqil izlanuvchanlik samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat mazmuni hamda olib borilgan kuzatishlarning mohiyatidan kelib chiqib, ingliztili fanidan mustaqil ta'lim samaradorligini ta'minlovchi muhim omil, bu mazkur jarayonni tashkil etishga nisbatan yangicha yondashuvni qaror toptirishdan iboratdir. Noan'anaviy shakl, metod va vositalardan foydalanib talabalarining akademik mobilligini ta'minlashda mustaqil izlanuvchanlikni amalga oshirish o'zining ijobiy natijalarini beradi. Uni samarali amalga oshirish, mazkur jarayon samaradorligini ta'minlaydi degan quyidagi xulosalarni berish mumkin:

1.OTM larida talabalarining mobilligini ta'minlashda ingliz tili fanidan mustaqil izlanuvchanlik samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri innovatsion texnologiyalardan foydalanish hisoblanadi.

2.Talabalarining akademik mobilligini ta'minlashda ingliz tili fanidan mustaqil izlanuvchanlikka ushbu texnologiyalarni joriy etish borasidagi muammolarni bartaraf etish tadqiqot doirasida amalga oshirilgan faoliyat asosini tashkil etadi.

3.Talabalarining akademik mobilligini ta'minlashda ingliz tili fanidan mustaqil izlanuvchanlikni samarali tashkil etish masalasi alohida o'rin tutishi kuzatuv davomida aniqlandi. Mustaqil izlanuvchanlik samaradorligini oshirish yo'lida ma'lum rejalarning belgilanishi hamda amalga oshirilishi talabalarining kasbiy mahoratlarini shakllantirib qolmay, balki talabalarining akademik mobilligini ta'minlashga zamin hozirlaydi.

4. Ingliz tili fani o'qituvchilarining kasbiy bilimlarini chuqurlashtirish, pedagogik mahoratlarini takomillashtirish, innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarga oid bilimlar bilan qurollantirish talabalarning akademik mobilligini ta'minlashda mustaqil izlanuvchanlik samaradorligini oshirishning muhim shartidir.

5. Talabalarining akademik mobilligini ta'minlashda ingliz tili fanidan mustaqil izlanuvchanlik samaradorligini ma'lum mezonlar yordamida aniqlash mumkin. Talabalar tomonidan mustaqil ishlash kompetensiyalarining egallanishi, mustaqil ta'lim vositalaridan foydalanish, OTMlarida mazkur jarayonning maqsadga muvofiq amalga oshirilishidan dalolat beradi.

Qayd etilgan samaradorlikni oshirishga yo'naltirilgan ishlar quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

1. Tashkiliy-tayyorgarlik bosqichi. Mavzuning o'rganilganlik darajasini tahlil etish asosida mavjud muammolar aniqlanib, ingliz tilidan mustaqil izlanuvchanlik samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan mashg'ulot ishlanmasi tayyorlandi.

2. Ingliz tilidan mustaqil izlanuvchanlik samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan tajriba-sinov guruhlarini belgilash bosqichi. Tajriba-sinov ishlariga jalb etiladigan guruhlar (tajriba hamda nazorat) aniqlanib, pedagoglarga tajriba-sinov ishlarini olib borishdan ko'zlangan maqsad, pedagogik vazifalar, maxsus metodika mazmunida ifodalangan mashg'ulotning o'tkazilish tartibi, tajriba-sinov ishlari haqidagi asosiy ma'lumotlar berildi, ularning tajriba-sinov jarayoniga nisbatan munosabatlari o'rganildi.

3. Ingliz tili fanidan mustaqil izlanuvchanlik samaradorligini oshirishga imkon beradigan ilmiy-metodik tavsiyalar yaratildi. Mustaqil izlanuvchanlik asosida talabalarining akademik mobilligini ta'minlashda ingliz tilidan dars loyihasini amalga oshirishda quyidagi ishlarga alohida e'tibor qaratildi:

-o'rganilayotgan mavzu bo'yicha maqsad, vazifalar bilan talabalarni oldindan tanishtirish, muammo, topshiriqlarni, shuningdek, mustaqil ishlarni, ularni bajarish tartibi, vaqtini e'lon qilish, mavzuni to'liq o'zlashtirish bo'yicha ko'rsatmalar berish, o'zlashtirish mezonlarini aytib berish;

-talabalarining faol, mustaqil faoliyatini rag'batlantirish, ular diqqatini mavzu mazmuniga jalb etish, qiziqish hamda muammolarni bajarishga

ehtiyoj uyg'otish, mavzu bo'yicha ma'lumotlar to'plash, ular yuzasidan joriy nazoratni tashkil etish, mavzuni to'liq o'zlashtirishga oid o'zgartirish, qo'shimcha, tuzatishlarni kiritish;

-mavzu bo'yicha to'plangan bilimlarga ishlov berish, mashg'ulot jarayonida kutilgan va kutilmagan, rejalashtirilgan va tasodifiy hodisalar uchrab turadi, olingan natijalarga asoslanib loyihaga yangi o'zgartirish, qo'shimcha, tuzatishlar kiritiladi, erishilgan natijalar kafolatlangan natija bilan taqqoslanadi;

-mavzu bo'yicha umumiy xulosalar chiqarish, chiqarilgan xulosalarni turli holatlariga tatbiq qilish, nazorat turlari natijalariga ko'ra mavzu bo'yicha axborot to'plash, ularga ishlov berish jarayonida talabalar erishgan yutuqlarni tahlil qilish, ularning bilim, ko'nikma, malakasi, ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlaridagi kamchiliklarini ko'rsatish, xar bir talabaga yakuniy nazoratgacha bajaradigan qo'shimcha topshiriqlar berish, ularni materiallarni yanada atroflicha etalon darajasida o'zlashtirishga rag'batlantirish;

-yakuniy nazoratning asosiy funksiyasi talabalarining ma'lumot va mashg'ulot mazmuni elementlarini etalon darajasida o'zlashtirishlarini aniqlash, undan past o'zlashtirganlarni ogohlantirish, qo'shimcha topshiriqlar berish.

-Olingan axborotni tahlil qilinib, zarur xollarda kelgusidagi harakatlarga o'zgartirishlar kiritiladi va nihoyat, qo'yilgan maqsad va olingan natijalarning mosligi haqida xulosa chiqariladi, harqanday maqsadga erishishda vaziyat bevosita natijalarning mosligi haqida xulosa chiqariladi.

Dars loyihasi quyidagi ketma-ketlikda amalga oshirildi:

♦ Dars mavzusi: "Xorij ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilish uchun Internetdan foydalanish malakalarini rivojlantirish".

♦ Dars vaqti: 80 daqiqa. Guruh: 15. Talabalar soni: 23nafar. Sana: 20.05.2022yil.

♦ Dars turi: ma'ruza, amaliy.

♦ Dars rejasi: mavzudagi asosiy tushunchalarni berish. Internetdan foydalanishni hamda hamkorlik qilish yo'llarini o'rgatish amaliyotga bog'lash. Muammoli vaziyatlarni yaratish va echish. Tegishli sharoit: texnik vositalar bilan ta'minlangan, Internet ulangan, ta'lim metodlarini qo'llash

mumkin bo'lgan auditoriya.

◆ Darsni jihozlash: adabiyotlar, asosiy jarayon va texnologik bosqichlari sxemasi, jadvallar. Tayanch tushuncha va iboralar. Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralarni keltirish, ularga izoh berish (bilim, ko'nikma, malaka, texnologiya, metod, shakl, vosita vah.k).

◆ Dars maqsadlari: umumiy maqsad-DTS va o'quv dasturiga mos holda shakllantiriladi; pedagog maqsadi-ta'limiy (mavzu yuzasidan asosiy ma'lumotlar beriladi); tarbiyaviy (talabalarda mustaqil fikrlash tafakkurini hamda faollikka asos bo'luvchi motivlarni shakllantiriladi); rivojlantiruvchi (talabalarni bilim olishga o'rgatish, darslik va qo'shimcha adabiyotlar, Internet bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish ularni mustaqil fikrlashga o'rgatish, dunyoqarishini kengaytirish, fanlardan amaliy mashg'ulotlarni, muammoli vaziyatlarni, masala va topshiriqlarni ongli ravishda echishga o'rgatish).

Talaba maqsadi. Kognitiv (bilishga oid) sohada o'rganilgan materialni eslab qolish va uni takroran aytib berish, egallangan bilimlarni mustaqil to'la anglash, ularni oldin o'rganilgan uslub, usullar bilan uyg'unlashtirilib tasavvur etishgacha bo'lgan muammolarni hal etish.

Psixomotor (harakatga oid) sohada u yoki bu harakat faoliyatida, harakat yo'nalishlarini tez va chaqqon o'zgartirish, asab-muskullarni muvofiqlashtirib boshqarishni shakllantirish.

Affektiv (hissiyotga oid) sohada oddiy idrok qilish, qiziqish, qadriyat yo'nalish va munosabatlarini o'zlashtirishga tayyor bo'lish, talabalarni atrof-muhitga nisbatan hissiy-shaxsiy munosabatda bo'lishini shakllantirish.

Pedagogik vazifalar. O'rganish faoliyati natijalari. Mavzuning nazariy va amaliy asoslari, tavsiya qilinadigan adabiyotlar ro'yxati haqida ma'lumot berish. Mavzuning o'ziga xos xususiyatlarini izohlash. So'ngra Blum taksonomiyasi toifalari tuziladi (1.7-jadval).

1.7-jadval

Blum taksonomiyasi toifalari

Toifalar	Talaba vazifalari
Talaba bilishi kerak.	Mavzuga oid asosiy tushunchalarni o'zlashtirish.

Talaba tushunishi kerak	Mavzuni o'z so'zi bilan bayon qilish, tafsilotini yozish, tushuntirish.
Talaba tatbiq eta olishi kerak	Mavzuga oid olgan ma'lumotlarini qaerda va qanday qo'llanishini, bunday harakat nima uchun sodir bo'layotganini, qoidalar qanday qo'llanish mumkinligini, ularga doir misollar keltirish va masalalar echish.
Talabatahlil qilishi kerak	Mavzudagi tushunchalarni taqqoslash, muhim xususiyatlari nimadalgini, orasidagi farqni aniqlash, xatoliklarni aniqlash va ularni qanday qilib bartaraf etish mumkinligini, orasidagi bog'lanishni aniqlash.
Talaba sintez qilishi kerak	Mavzu rejasini tuzish, asosiy tushuncha va qoidalarini qanday tekshirish mumkinligini, berilganlarga asoslanib texnik sistema va texnologik jarayonni yaratish, mavzuning muhim jihatlarini belgilash.
Talaba baholashi kerak	Turli tushunchalarga munosabat bildirish, nima uchun shunday yoki unday emasligini, qaysi mezonlarga asoslanib baholash mumkinligini.

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi. Kerakli texnik va didaktik vositalar. Shu mavzu bo'yicha lozim bo'lgan o'quv vositalari va ko'rgazmali qurollar ro'yxati keltiriladi: tarqatma materiallar, slaydlar, test savollari, kompyuter. Pedagog uchun: o'quv-metodik qo'llanma, metodik tavsiya, metodik ishlanma, fan dasturi, mashg'ulot rejasi, ma'ruza matni. Talaba uchun: darslik, o'quvqo'llanma, jadvallar, tarqatma materiallar, yo'l-yo'riqli texnologik xaritalar, tipik xatolar xaritasi, topshiriq varaqasi, interfaol usullar. Dars uchun: plakatlari, modellar, maketlar, jihozlar, audio vizual vositalar, texnik vositalar, real vositalardan tanlab olish mumkin.

O'qitish metodlari va texnologiyalari: insert; Venna diagrammasi; blits-savolar; SWOT tahlili; T-sxema; keys-stadi; og'zaki bayon qilish; tanishuv xaritasi mashqi; suhbat-ma'ruza; FSMU metodi; loyihalash; modulli; evristik.

O'qitishni tashkil etish shakllari: guruhli, individual va jamoaviy. Ta'lim usullari: namoyish va og'zaki bayon. Dars uchun tayyorlangan savollar: B. Blum, pedagogning faollashtiruvchi vaboshqa savollar. Topshiriq turlari: og'zaki savol-javob, yozma ish va testlar. Dars uchun tayyorlangan muammoli topshiriqlar: muammoli; mustaqillikka, ijodkorlikka, tashabbuskorlikka, tadbirkorlikka undovchi.

Darsning borishi. Tashkiliy qism-davomatni aniqlash, talabalarining o'quv motivlarini faollashtirish, ularga bugungi mashg'ulot mavzusini e'lon qilish. Ularni mashg'ulot rejasi maqsadi, borishi, bajariladigan topshiriqlar bilan tanishtirish. Mavzuni o'rganish rejasi, oldingini mazkur mavzu bilan bog'lash. Kirish: mavzu haqida talabalar oldindan nimani bilishlarini aniqlash maqsadida faollashtiruvchi, ularda motivatsiya uyg'otuvchi savollarni berish.

Masalan: Siz mavzu haqida qanday ma'lumotlarga egasiz? Siz buni qaerdan bilasiz? Mavzu haqida qanday takliflaringiz bor?

Asosiy qism: talabalar bilan mavzu yuzasidan kelajakda hayotda, turmushda, ishlab chiqarishda zarur bo'lgan, xorij ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilishishlariga javob topamiz. Mazkur mavzuni mukammal o'zlashtirish bilan kelajakda bu sohada hamkorlikka, tadbirkorlikka qo'l urish mumkinligini tushuntirish.

Yakuniy qism: xulosalar qilish, umumlashtirish, taklif va tavsiyalar ishlab chiqish, unga talabalarni jalb etish.

Mustahkamlash: muammoli savollar va qisqa vaqtli topshiriqlar berish. Monitoring va baholash: kuzatish, og'zaki nazorat, yozma nazorat, mustaqil topshiriq asosida baholash va rag'batlantirish.

Adabiyotlar: foydalanilgan asosiy va qo'shimcha manbalar ro'yxatini keltirish.

Uyga vazifa berish: masalan, esse yozib kelish, innovatsion g'oyalar haqida o'ylash, mavzuga oid referat yozib kelish, kelgusi mashg'ulot mavzusi yuzasidan seminarga tayyorlanib kelish, nazorat uchun savollar, mustaqil ishlash uchun mavzular va mashqlar berish.

Lekin, tahlillar va kuzatishlar mazkur texnologiyalardan foydalanishda juda katta muammolar mavjudligini ko'rsatadi. Jumladan, pedagoglarimiz ularning mazmun va mohiyatini, maqsad va vazifalarni, tamoyillarini, qoidalarini, darsga kiritish mexanizmlarini to'g'ri hamda aniq tushunmasdan turib ulardan foydalanishga harakat qilishmoqda. Lekin bu o'z samarasini

bermayapti. Bu borada pedagoglarimiz o'rtasida muntazam davra suhbatlari va seminarlarni tashkil etish hamda bu jarayonga respublikamizning etakchi olim va professor-o'qituvchilarni jalb etish lozim.

Dars tahlili va o'z-o'zini tahlil qilishga tayyorgarlik. Ushbu holat darsda savollar: Nima?, Qanday? va Nima uchun? sodir bo'lganini, o'zaro faoliyat qayerda osilib qolganini, u nima bilan bog'liq ekanligini, keyinchalik bunday holatlarni ro'y bermaslik uchun nimalar qilish kerakligi va boshqalarni tushinib olishga yordam beradi. Darsning borishini, uning natijaviyligini va boshqa kuzatish imkonini beruvchi yozma xotiralarni yozib borish. Birinchi bo'limga alohida e'tiborni qaratish lozim. Pedagogning savoli bu, talabaning tafakkurini rivojlantirish uchun kuchli vositadir. Savolning ikki xil turi mavjud (interfaol o'qitish nuqtai nazaridan).

Birinchisi, talabaning fikr doirasini chegaralab, uni bilganlarni oddiy qayta tiklashga keltirib qo'yadigan savollar. Bunday savollar fikrlash jarayonini to'xtatib turishga xizmat qilib, talabaga uning fikri hech kimni qiziqtirmasligi tushunib etishiga olib keladi.

Ikkinchisi, fikr yuritish, o'ylash, tasavvur qilish, yaratish yoki sinchiklab tahlil etishga undovchi savollar.

Shunday qilib, mustaqil izlanuvchanlik asosida talabalarining akademik mobilligini ta'minlashda ta'lim muassasalarini ingliz tili fani o'qituvchilari bilan ta'minlash, o'quv-metodik adabiyotlar-o'quv dasturi, darslik, qo'llanma, risola hamda metodik tavsiyanomalarining yangi avlodini yaratish; ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish borasida pedagoglarni nazariy bilimlar bilan qurollantirish, ma'lum shart-sharoitlarni yaratish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Mustaqil izlanuvchanlik asosida talabalarining akademik mobilligini rivojlantirishdan asosiy maqsad, bu jarayon samarali bo'lishi uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Mazkur maqsadga erishish uchun, talabalar mustaqil izlanuvchanlik faoliyatini adolatli baholash; individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish; mustaqil ta'lim maqsadlarini taksonomiyasini tuzishga alohida ahamiyat berish, so'ngra muammoli topshiriqlarni tuzish maqsadga muvofiqdir.

Amalga oshirilgan nazariy tadqiqot mustaqil ta'lim asosida talabalarining akademik mobilligini rivojlantirish jarayonini mustaqil o'quv natijasining motivatsion, kognitiv va operatsion tarkibiy qismlarida sifat o'zgarishlarining

ko'p bosqichli jarayoni sifatida aniqlashga imkon berdi, bu tajriba natijasida yuzaga keldi. Pedagoglar va rahbarlar tomonidan tashkil etilgan pedagogik vaziyat sharoitida olingan OTM talabalari tomonidan individual ta'lim yo'nalishini yaratish va amalga oshirish bo'ldi.

Mustaqil izlanuvchanlik asosida talabalarining akademik mobilligini rivojlantirishda ingliz tili fanidan mustaqil izlanuvchanlik samaradorligini ta'minlashga yo'naltirilgan tadqiqot ishini amalga oshirish, ilmiy-metodik tavsiyalar bilan ta'minlash, ilg'or metodva texnologiyalardan foydalanish, uning samaradorligi oshganligini ko'rsatadigan ko'rsatkichlarni belgilash tadqiqot ishini muvaffaqiyatli tashkil etish va yakunlashga imkon berdi.

Mustaqil izlanuvchanlik asosida talabalarining akademik mobilligini ta'minlashda ingliz tili fanidan ushbu jarayon samaradorligini oshirishga bilimli, pedagogik mahoratga ega, ijodiy faoliyatini tashkil etishga nisbatan layoqatli o'z ustida muntazam ishlay olish ko'nikma va malakasini egallagan pedagoglarni jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqil ishlash topshiriqlarining to'plami va uni talabalar tomonidan muvaffaqiyatli bajarilishini baholash o'lchamlari mustaqil ishlash darajasini baholash va sinov vositalaridan iborat bo'ladi. Mustaqil izlanuvchanlikni tizimli yondashuv asosida tashkil etish, talabalarining akademik mobilligini ta'minlashga imkon berdi.

O'qituvchi va talaba o'rtasidagi sinergiya munosabatlari o'qitishning didaktik maqsadlar (fanga oid bilimlarni o'zlashtirish, mustaqil ta'lim orqali yangi bilimlarni egallash)ni samarali amalga oshirishini ta'minlaydi.

Bizningcha, talabalarining akademik mobilligini rivojlantirishda ingliz tilini innovatsion texnologiyalar yordamida o'qitish talabalarda lingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik va strategik kompetensiyalari kommunikativ yondashuv doirasida rivojlantirish yo'llari, mustaqil ta'limni takomillashtirishga asos bo'ladi.

III-BOB. PEDAGOGIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING AKADEMIK MOBILLIGINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARIGA YO'NALTIRILGAN TAJRIBA-SINOV ISHLARI SAMARADORLIGI

3.16. Talabalarining mustaqil ta'lim asosida akademik mobilligini ta'minlash bo'yicha tajriba-sinov ishlarini tashkil etish

Tajriba-sinov ishlarining bosh maqsadi talabalarining akademik mobilligini rivojlantirishda yuqori ko'rsatkichlarga erishish omillarini aniqlashdan iborat bo'ldi. Uning ijobiy echimini ta'minlash davr talabi va mustaqil ta'lim samaradorligini oshirishda yangicha yondashuvning qaror topishini taqozo etadi. Mazkur jarayonni ta'minlashga yo'naltirilgan mustaqil ta'lim samaradorligini oshirishda pedagoglarning kasbiy mahorati, turli darajadagi kompetensiyalari, o'z ustida ishlash malakalari, talabalarda bilimlarni mustaqil egallashga e'tiborni qaratishi, innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu munosabat bilan tajriba-sinov ishlarini tashkil etishda quyidagi holatlari inobatga olindi: pedagoglarda mustaqil ta'lim asosida talabalarining akademik mobilligini rivojlantirishga yangicha yondashuvlar (tizimli, texnologik, kompetensiyaviy)ning yuzaga kelganligi; innovatsion pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalar mohiyatini anglashi mustaqil izlanuvchanlikda ulardan foydalanishi; talabalarining mustaqil fikrlash qobiliyatiga egaliklari.

Tajriba-sinov ishlarining maqsadi va mazmuniga mos ravishda, tajriba-sinov maydonlarida, jadval asosida talabalarining akademik mobilligini ta'minlashga yo'naltirilgan, biz tanlagan ingliz tili fanidan mashg'ulotlarni tashkil etish, samaradorligini oshirish bo'yicha ushbu fanni o'qitishdagi muammolarni tahlil qilish, mazmunini takomillashtirib borish, talabalar o'rtasida anketa so'rovlari o'tkazish, o'zlashtirish nazoratini amalga oshirish, mashg'ulotni o'tkazish uchun ilg'or tajribalarni, zaruriy shart-sharoitlarni aniqlashni o'rganish kabilar amalga oshirildi.

Ushbu yo'nalishda talabalarining akademik mobilligini rivojlantirish yo'lidagi ehtiyojlarni aniqlash; uning samaradorligini oshirish bo'yicha tajriba-sinov ishlarini o'tkazish tartibi asosida ishchi dasturi va mustaqil

ta'lim materiallarini ishlab chiqish; OTM lar ichki xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tayyorlangan ishchi dasturlar va materiallarni, o'qitish uchun biriktirilgan pedagoglar tarkibini OTM lar pedagogik kengashi muhokamasidan o'tkazib tasdiqlash; bu borada seminar va davra suhbatlarini tashkil etish; jarayonni baholash ko'rsatkichlari va mezonlarini ishlab chiqish; tajriba-sinov maydonlarida mustaqil izlanuvchanlik jadvali asosida o'quv mashg'ulotini tashkil etish; monitoring tizimini yo'lga qo'yish; tajriba-sinov ishlari yakuniga ko'ra talabalarining akademik mobilligini rivojlantirishda mustaqil izlanuvchanlik samaradorligini aniqlashga qaratilgan ko'rsatkich va mezonlar asosida, olingan tahliliy natijalar hamda tavsiyalarga doir hisobot shakllarini yaratish vazifalari bajarildi.

Mazkur jarayonni ta'minlash uchun quyidagilarga etibor berish maqsadga muvofiq deb topildi: talabalar izlanuvchanlik faoliyatining aniq maqsadini belgilash (muammoli mashqlarni bajarish, mustaqil ishlash), uning talabalar tomonidan tushunishlariga erishish; har bir talabaning ishini idrok etish va shu bilan bir qatorda jami guruhning mustaqil ish faoliyatini nazardan chiqarmaslik; talabalarda o'z faoliyatini mustaqil tahlil qilish, muammolarni aniqlash va uning yechimini topish qobiliyatlarini rivojlantirib borish; talabalarining topshiriqlarni bajarishlariga qarab ijodiy yondashishlarini rag'batlantirib turish; talabalarni samara beradigan ish usullarini qo'llashga undash, mustaqil ishlashlari uchun sharoit yaratish; talabalarining ta'lim jarayoniga ijodiy yondashishlari, topshiriqlarni ongli bajarishlarini ta'minlashga erishish, ularga tegishli ko'rsatma va maslahatlar berish; talabalarining ish jarayonida ijodiy yondashib, mustaqil bajargan ishlarini nazorat qilish va xolisona baholab borish [10, -B.30].

Mustaqil o'rganishda, darsliklar bilan ishlash, masalalar yechish, innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalardan samarali foydalanish masalalarining mazmuni, topshiriqning hajmi va bajarishning murakkablik darajalariga bog'liq. Mazkur texnologiyalardan mustaqil izlanuvchanlikda foydalanish samaradorligini oshirish uchun, topshiriqlarning mazmunini shunday o'zgartirish kerakki, talabalarining akademik mobilligini ta'minlashga qo'yiladigan talablarga hamda mustaqil ta'lim berish qoidalariga mos kelsin, topshiriqlarni bajarishda ta'lim texnologiyalari usullarining didaktik va texnik imkoniyatlaridan hamda darslik va qo'shimcha adabiyotlar bilan mustaqil ishlashning yanada takomillashgan

shakllaridan to'liq foydalansin.

Talabalarining ko'pchiligi, noan'anaviy mustaqil ta'lim shakllari va metodlarini egallashga muhtoj. Ular mustaqil izlanuvchanlikdan qoniqish hosil qilmayapti deb, xulosa chiqarish mumkin. Buning sababi, mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishdagi talabalarining bilimlari etarli darajada emasligi hamda ko'nikmalarini yetishmasligidadir. Ularga bu borada, qo'shimcha mashg'ulotlar o'tkazishga ehtiyoj sezilmoqda, mustaqil ta'limning shakl va metodlarini, topshiriqlarni bajarishdagi zaruriy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish zaruriyati mavjud. Pedagogik tajriba-sinov ishlari va ularni tashkil qilishning asosiy shartlari sifatida quyidagilar belgilangan: ilmiy tadqiqot natijalari yordamida ma'ruza, amaliy va mustaqil ta'limda zamonaviy ilmiy tadqiqot natijalaridan foydalanishning metodik tizimini joriy etishning didaktik metodik va psixologik-pedagogik talablarining mazmunini aniqlash; zamonaviy ta'lim berish sharoitida talabalarining mustaqil ish faoliyatini kuzatish, ular ishtirokida amaliy treninglarni tashkil etish, suhbat, anketa so'rovi va mustaqil ishlashga qaratilgan amaliy metodlar yordamida ularda mustaqil ishlash kompetensiyalari, akademik mobilligini ta'minlanganlik darajasi tahlil qilish; talabalarga integrativ yondashuv asosida ularning fikrlash, ijodiy faollik va kasbiy bilimlar egallash maqsadida kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha metodik ishlanmalarni ishlab chiqish.

Tajriba-sinov ishlari o'zaro bog'liq bo'lgan quyidagi bosqichlardan iborat bo'ldi: tashxis va bashorat qilish (prognostik), tashkiliy-tayyorgarlik, amaliy va umumlashtiruvchi.

Tajriba-sinovning birinchi izlanuvchi bosqichida tadqiqot ishiga oid ilmiy va metodik (adabiyotlar, dissertatsiyalar, avtoreferatlar, ilmiy, ilmiy-metodik jurnallardagi hamda ilmiy to'plamlardagi tadqiqot muammosiga oid maqolalar) ishlar tahlil qilindi hamda tadqiqotning mavzusi, maqsadi va vazifalari belgilandi. Amaliy va mustaqil mashg'ulotlarning didaktik ta'minotiga oid turli darajadagi ma'ruza, amaliy va mustaqil topshiriqlar hamda baholash mezonlari ishlab chiqildi. Talabalarining akademik mobilligini rivojlantirishda mustaqil izlanuvchanlik samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan didaktik tadbirlarning loyihasi tayyorlandi, tajriba-sinov hamda maxsus dasturlar ishlab chiqilib, unda tajriba-sinov maqsadi, vazifalari belgilandi; mustaqil izlanuvchanlik maqsadlarini

aniqlashtirish, uning taksonomiyasini tuzishga e'tibor qaratildi, ingliz tili fani mavzularini mustaqil o'rganishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish mumkin bo'lgan bo'lim va mavzular tanlab olindi, yetakchi olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlari hamda mazkur sohaga tegishli ilmiy manbalar tahlil qilindi.

Bu bosqichning asosiy maqsadi –aniqlangan metodika, usullar va tashkiliy-pedagogik shartlarni amalga oshirish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash; ushbu shartlarning joriy etilishi talabalarning akademik mobilligini ta'minlashni isbotlashdan iborat bo'ldi.

Pedagoglarga tajriba-sinov ishlarini olib borishdan ko'zlangan maqsad, pedagogik vazifalar, maxsus metodika mazmunida ifodalangan tadbirlarning o'tkazilish tartibi, tajriba-sinov ishlarida pedagoglarning tutgan o'rni haqida asosiy ma'lumotlar berildi. Mustaqil ta'lim jarayoni uchun tayyorlangan loyihalar bo'yicha faoliyat tashkil etildi, har bir mashg'ulot, mohiyati, samaradorligi yuzasidan ma'sul shaxslarning fikr-mulohazalari o'rganildi, kuzatuvchilar tomonidan tashkil etilgan mashg'ulotga baho berildi, natijalar umumlashtirildi.

Tajriba-sinov ishining ushbu bosqichi, tadqiqot ishining tanlab olingan oliy ta'lim muassasalardagi holatini o'rganish, talabalarning akademik mobilligini ta'minlanganlik darajalarini aniqlashdan iborat bo'ldi. Ushbu oliy ta'lim muassasalarining birinchi bosqich guruhlarida mustaqil izlanuvchanlik faoliyati kuzatildi, talabalarning o'zlashtirish darajasi tekshirildi. Ular bilan suhbat, so'rovnoma, savol-javob va talabalar fikrlash, ijodiy qobiliyatini rivojlantiruvchi test topshiriqlari sinovlari o'tkazildi. Olingan natijalar, talabalarning topshiriq va vazifalarni mustaqil o'zlashtirishlari talab darajasida emasligini ko'rsatdi.

Mustaqil izlanuvchanlik usullaridan xabardor emasligi, talabada mustaqil bilim olishning shakl va talablariga ko'nikish qiyin kechishi, mustaqil ta'limni bajarishni talab darajasida bilmashligi, asosiy ma'lumotlarni Internet va boshqa manbalardan izlab topish, tahlil qilish, solishtirish va umumlashtirish, o'z fikrini aniq ifodalash, to'g'ri baholash, ular uchun katta muammo ekanligi, turli topshiriq, vazifalarni mustaqil yecha olish tajribasiga asoslangan kompetensiyalar yetarli darajada shakllanmaganligi kabilar aniqlandi hamda ularni tajriba-sinov ishlari davomida bartaraf etishga e'tibor qaratildi.

Tajriba-sinovning shakllantiruvchi bosqichida dastlab tajriba o'tkaziladigan pedagogika oliy ta'lim muassasalarining fan dasturlari va ishehi o'quv dasturlari o'rganildi, shu bilan birga dasturlarga mos amaliy mashg'ulot va mustaqil ta'lim topshiriqlari belgilab olindi. Mazkur bosqichda o'quv-o'rganish faoliyatini faollashtirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqot yangiliklari tajriba-sinov jarayoniga qo'llanildi. Tajriba-sinov nazorat guruhlarida an'anaviy usulda, tajriba guruhlarida esa, biz tomondan taklif qilingan metodika asosida olib borildi.

Tadqiqot ishimizning maqsadiga mos ravishda quyidagi ishlar amalga oshirildi: tajriba-sinov ishtirokchilari tarkibi aniqlandi; metodik va tashkiliy ta'minoti ishlab chiqildi; mazkur tajriba-sinov ishining maqsadi, vazifasi va ko'zlanayotgan natijalar shakllantirildi; tajriba-sinov ishlarining obyektlari aniqlandi, natijalarni baholash mezonlari va ko'rsatkichlari belgilandi; metod va vositalari tanlandi, tajribaviy dastur ishlab chiqildi. Bu bosqichda biz tomondan tavsiya etilgan ko'rsatma, yo'riqnoma, metodik ishlanmalar va mustaqil ish shakllari asosida amaliy-metodik faoliyat tashkil etildi. Talabalar mustaqil ish faoliyatini kuzatish, ular ishtirokida amaliy treninglarni tashkil etish, suhbat, anketa so'rovi va mustaqil ishlashga qaratilgan amaliy metodlar yordamida ularda mustaqil ishlash kompetensiyalari, akademik mobilligini ta'minlanganlik darajasi tahlil qilindi.

Tajriba-sinov ishining uchinchi, amaliy bosqichida mustaqil izlanuvchanlikni innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, ishlab chiqilgan dasturni amaliyotga tatbiq etish maqsadida quyidagilar inobatga olindi: talabalarning akademik mobilligini ta'minlashda mustaqil izlanuvchanlik mavzularining ahamiyati; unda belgilangan maqsad va vazifalarning fan dasturiga mosligi; bu sohadagi ilmiy-metodik adabiyotlarning yetishmasligini inobatga olingani; mustaqil ta'lim amaliyotining inobatga olingani va boshqalar.

Bu bosqichda tajriba-sinov ishlarining maqsadi, talabalarning mustaqil ta'limini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish orqali talabalarning akademik mobilligini ta'minlanganlik darajalarida o'sish-o'zgarish kuzatildi. Mazkur jarayonning ta'minlanganlik darajasi muammoli topshiriqlarni mustaqil bajarish asosida tahlil qilindi va qo'llanilgan metodikaning samaradorligi, shuningdek ularda mustaqil ishlash malakalarining shakllanganlik darajasi aniqlandi.

Tajriba-sinov ishlarining natijalari solishtirildi va umumlashtirildi. Natijalar tajriba hamda nazorat guruhlaridan olingan ko'rsatkichlar bo'yicha o'zaro taqqoslandi. Erishilgan yakuniy ko'rsatkichlar asosida talabalarining akademik mobilligini ta'minlashda mustaqil izlanuvchanlik samaradorligini oshirishga imkon beradigan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlabchiqildi va amaliyotga joriy etildi.

Tadqiqot ishida bayon qilingan usullarning, ingliz tili fanini mustaqil o'rganishdagi asosiy jihatlari quyidagicha umumlashtirildi: talabalarining akademik mobilligini ta'minlashda asosiy omil hisoblanuvchi, mustaqil ta'lim shakllarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish usullari ishlab chiqilganligi; mashg'ulotlarning mazmuni tajriba-sinov ishlari natijalari va xulosalariga tayangan holda taklif etilayotgan usullardan ta'lim tizimida foydalanish mumkinligi.

Tajriba-sinov ishlarining muvaffaqiyatli kechishi quyidagi obyektiv va subyektiv omillarning mavjudligi hisobiga ta'minlandi: talabalarda akademik mobilligini rivojlantirishga qaratilgan metodik shart-sharoitlarning yaratilganligi; oliy ta'lim muassasalarining yetarli moddiy-texnik bazaga egaligi; o'quv jarayonida innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalaridan unumli foydalanilganligi; talabalarining mustaqil izlanuvchanligiga va mustaqil ishlash kompetensiyalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilganligi; mazkur jarayonni rivojlantirish ishlariga mahorati pedagoglarning jalb etilganligi va boshqalar.

Tajriba-sinov ishlarining samaradorligini aniqlash maqsadida ishtirokchilar teng asosda tajriba va nazorat guruhlariga birlashtirildilar. Tajriba guruhida tavsiya etilayotgan hamda mustaqil ta'lim asosida talabalarining akademik mobilligini ta'minlash yordam beruvchi metodika asosida amaliy faoliyat yo'lga qo'yilgan bo'lsa, nazorat guruhlarida esa an'anaviy tartibda o'quv ishlari olib borildi. Tajriba-sinov ishlari jarayonida mazkur jarayon rivojlanishiga oid tushun chalarining shakllanganlik darajasini aniqlashga qaratilgan maxsus anketa savollari ishlab chiqildi. Ushbu anketa yordamida o'tkazilgan so'rov natijalari 3-ildoda berilgan. Shu bilan bir qatorda, talabalarining mustaqil bilim olishlariga oid ma'lumotlarni olish uchun so'rovnoma o'tkazildi (4-ildova).

Qayd etilgan ko'rsatkichlardan ko'rinadiki, talabalarining aksariyati (71, 4%, ya'ni: 150 nafari) mustaqil izlanuvchanlik yo'lida ijobiy fikrga egalar.

Mustaqil izlanuvchanlikdagi muammolar bo'yicha salbiy holatlar borligi ko'zga tashlanib turibdi.

Ushbu holat talabalarda yetarli darajada talabalarining akademik mobilligini ta'minlashga, mustaqil fikr bildirishda sustkashlikka yo'l qo'yishlariga olib kelishi mumkin. Bu holat barcha oliy ta'lim muassasalarida mavjud bo'lib, kelajakda uni bartaraf etish yo'llarini ko'rib chiqish lozim.

Tajriba-sinov ishlari davomida oliy ta'lim muassasalarida talabalarining mustaqil ishlash kompetensiyalari to'g'risidagi ma'lumotlarni olish maqsadida maxsus ishlab chiqilgan anketalar yordamida so'rov o'tkazildi hamda natijalari tajriba-sinov va nazorat guruhi talabalari uchun qiyosiy tahlil qilindi. 5-ildovada talabalar mustaqil ta'lim olish darajalarini aniqlash mezonlari berilgan.

Tajriba-sinov ishini boshlashdan avval va uning davomida ingliz tili fani mazmunini ochib beruvchi ma'lumotlar, tadqiqotchi hamda pedagoglar tomonidan o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijasi tadqiqotimiz vazifalarini bajarish jarayonida talabalarining akademik mobilligini ta'minlash darajasi o'sib borishi tasniflangan mezonini ko'rsatdi.

Tadqiqot davomida darsturlarini (jumladan, ingliz tili fanidan) quyidagicha tashkil qilish maqsadga muvofiq deb topildi: yangi mavzuni tushuntirishda ko'rgazmali metoddan foydalanish; muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirish; davra suhbatini uyushtirish; talabalarining fikr-mulohazalari bilan qiziqish; ijodiy faolliklari va mustaqil fikrlashini shakllantirish; ilmiy yangilikka bo'lgan intilishlarini hamda pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining akademik mobilligini mustaqil ta'lim asosida rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish.

Mazkur metodlar darslarda ma'ruza, amaliy ish hamda mustaqil izlanuvchanlik faoliyati davomida ham o'tkazildi. Tadqiqot davomida mashg'ulot uchun maqsadga yo'naltirilgan mazmunni tanlash, pedagoglarning o'quv materialini talabaga etkazib berish usullarini ko'rsatish, tahlil qilish, solishtirish, klassifikatsiyalash, umumlashtirish, xulosa chiqarish, talaba olgan bilimni pedagogik amaliyot davrida qo'llay olishi ko'rsatmalar asosida bajarildi. Guruhdagi talabalarining Davlat ta'lim standartlari talabalariga javob berishi hisobga olindi. Tajriba-sinov asosida ingliz tili fanini yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishning samaradorligini aniqlash uchun talabalardan olingan yakuniy savollar, test va umumlashtiruvchi

darslarning natijalari sifat hamda miqdor bo'yicha tahlil qilindi. Tajribada o'qitish jarayonining samaradorligini oshirishni baholashning bir qator usullari mavjud bo'lib, ulardan manbalaro'rganib chiqildi va tajriba-sinov natijalariga tatbiq qilindi [118, 119, 52].

Natijalardan ko'rinadiki, talaba qobiliyatlarining yuqori darajasiga e'tiborni qaratadigan bo'lsak: jami tajriba-sinovda ishtirok etgan 268 nafar talabaning - muammoni qo'ya olish qobiliyati 42, 5%ni, muammoni yechishi -37,7% ni, olingan natijalarga erishish qobiliyati -30,1%ni, ularni amaliyotda qo'llay olishi -19,6%ni, komp'yuterda ishlay oladiganlar -39,9% ni hamda ingliz tili fanini yaxshi biladiganlar foizi -11,19% ni tashkil etishi ma'lum bo'ldi. Bulardan shunday xulosa qilishimiz mumkinki, demak bu sohadagi ishlarimizni yanada takomillashtirishimiz zarur ekan. Mustaqil izlanuvchanlik asosida talabalarning akademik mobilligini rivojlantirish sohasidagi muammoning nazariy jihatlarini tahlil qilib, biz pedagogik tajriba-sinovning maqsadini belgilab oldik. Oliy ta'lim muassassalar talabalari faoliyatida uchraydigan muammolarni aniqlash uchun biz anketa usulidan foydalandik. Ushbu tadqiqot usuli so'rov usullariga tegishli bo'lib, uning afzalliklaridan biri sof natijalarni olish uchun respondentlarni yetarlicha qamrab olishdir. So'rov natijalari shuni ko'rsatdiki, 30, 2% (69 nafar talaba) "akademik mobillik" tushunchasi haqida ma'lumotga ega. Uning o'ziga xos xususiyatlari va afzalliklaridan xabardor. 29, 5% (62 nafar talaba) Rossiyada, 70, 5% (148 nafar talaba) o'zimizda o'qish xohishini bildirishgan (ilovaga qarang). Xorijda o'qish istagini bildirgan OTMlar talabalari u yerdagi ta'lim muassasalariga moslashishda qiyinchiliklarga duch kelishimiz mumkin degan fikrda. Barcha talabalar tomonidan aniqlangan asosiy sabablar orasida talabalarning xorij tilini yetarli darajada bilmasligini qayd etish mumkin.

Olingan natijalariga ko'ra, tajriba-sinovda ishtirok etgan jami 268 nafar talabadan -8, 6% da yuqori, 23, 3%da o'rtacha, 68, 1%da past(yoki bilmaydi) darajada. Talabalarning 28, 6% moliyalashtirish sohasidagi muammolarni qayd etishgan. Ilovalarda berilgan jadvallarning tahlili shuni ko'rsatadiki, hali bizning Oliy ta'lim muassasalarda mustaqil izlanuvchanlik asosida talabalarning akademik mobilligini ta'minlash yo'lida ko'p ishlarni amalga oshirishimiz kerak ekan. Yuqoridagi qisqacha tavsiflar tanlov qilish imkoniyati, uni amalga oshirish, tanlovni o'zgartirish imkoniyati, pedagoglarning yordami bilan natijalarni o'z-o'zini baholash mustaqil ta'lim

asosida talabalarning akademik mobilligini ta'minlashga ta'sir qiladi, degan xulosaga kelishimizga imkon berdi. O'quv jarayonini baholash va tuzatish imkoniyati uchun ushbu jarayonni rivojlantirish natijalari monitoringi ishlab chiqilgan va amalga oshirilmoqda. Mazkur ta'minlashni kuzatish uchun tajriba-sinov davomida ishlab chiqilgan diagnostika materiallaridan foydalanildi.

Tajriba-sinov davomida pedagoglar va rahbarlar bilan maslahatlashuvlar o'tkazildi va tashkiliy-pedagogik shartlarni amalga oshirish jarayonida tuzatishlar kiritildi. Tajriba-sinov davrida mustaqil izlanuvchanlik asosida talabalarning akademik mobilligini ta'minlash darajasi dinamikasi kuzatib borildi.

3.2§. Talabalarining mustaqil izlanuvchanligi asosida akademik mobilligini aniqlash va baholash ko'rsatkichlari

Mustaqil izlanuvchanlik asosida talabalarining akademik mobilligini rivojlantirish dasturi bo'yicha o'qitish turli mazmundagi tadbirlarni o'z ichiga oladi: ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, tadqiqot materiallarini to'plash, tajriba-sinov, taniqli xorij olimlarining tajribasini o'rganish, mobillik uchun milliy axborot markazlarida ishtirok etish, kreditlarni qayta hisoblash tizimini o'rganish, mobillikni me'yoriy va uslubiy ta'minlash va boshqalar.

Mazkur asosiy vazifalarga muvofiq, mobillikni ta'minlashga e'tiborni qarataylik. Oliy ta'lim muassasalarida akademik mobillik imkoniyatlari va muammolari haqida axborot berish tizimini rivojlantirish mobillikni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishning asosiy chora-tadbirlaridan biriga aylanishi kerak. Buning uchun muayyan grant va almashinuv dasturlari bo'yicha seminarlar, xorijda ta'lim olish masalalari bo'yicha elchixona vakillari bilan uchrashuvlar o'tkazish tavsiya etiladi. OTM lar veb-saytlarida grantlar va almashinuv dasturlari haqida ma'lumotlar mavjud bo'lishi kerak.

Mobillikni amalga oshirish samaradorligini oshirish uchun uning dasturlarida ishtirok etayotgan barcha talabalarining ma'lumotlar bazasini saqlash tavsiya etiladi. Bunday tizimning mavjudligi akademik mobillikni yanada samarali monitoring qilish imkonini beradi. Oliy ta'lim muassasalari ichidagi qoidalar va tavsiyalarining aniqligi bilan ajralib turishi, unda talabalar mobillik algoritmlari aniq tasvirlangan bo'lishi kerak. Mobillikni me'yoriy-metodik ta'minlashning asosiy masalalari qatoriga xorijiy ta'lim muassasalari bilan qo'shma dasturlarni ishlab chiqish, "mobil" talabalar uchun individual rejalar va o'quv dasturlarini shakllantirish masalasi kiradi.

Samarali moliyalashtirish tizimi oliy ta'lim muassasalarida akademik mobillikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Bu vazifani jalb qilingan mablag'lar hisobidan hal qilish mumkin, buning uchun grantlar izlash, kreditlash dasturlari va mobillikni subsidiyalash bo'yicha ishlarni yo'lga qo'yish lozim. Shu tariqa OTMlari oldida muammoli vazifalar turibdi, ularning echimi jiddiy o'zgarishlarni talab qiladi.

Bu borada O. O. Martinenko ta'lim muassasasi darajasida akademik mobillikni tashkil etishda hal qilinishi kerak bo'lgan umumiy vazifalarni

ajratib ko'rsatadi [31](9-ilova). Ana shunday ta'lim siyosatini amalga oshirish natijasidagina talabalar akademik mobillikning to'laqonli ishtirokchisiga aylanadi, ta'lim dasturlarining sifati, jozibadorligi va raqobatbardoshligi ortadi.

Demak, yuqoridagilarni umumlashtirib, biz ta'limni modernizasiya qilish munosabati bilan talabalarining akademik mobilligi o'quv jarayonini tashkil etishning umumiy shakliga aylanib bormoqda, degan xulosaga kelishimiz mumkin, shuning uchun uni qanday qilib optimal tashkil qilish kerakligi haqida o'ylashimiz lozim.

Oliy ta'lim muassassa talabalari akademik mobilligini muvaffaqiyatli ta'minlash uchun faoliyat natijasiga ta'sir qiluvchi shart-sharoitlar zarur. Ulardan biri, Oliy ta'lim muassassa talabalari akademik mobilligini ta'minlashga qaratilgan mustaqil izlanuvchanlik jarayonining o'zgaruvchanligi; ikkinchisi, talabalarining akademik mobillik ta'lim yo'nalishini tanlashda pedagogik yordam; uchinchisi, mazkur jarayonni rivojlantirish natijalarini monitoring qilishdir(1.8-jadval).

1.8-jadval

Talabalar akademik mobilligini ta'minlash bo'yicha natijalarni monitoringi amalga oshirish

№	Bosqichlar	Vazifalar
1.	Normativ va o'rnatish	Monitoring maqsadi va vazifalari aniqlanadi.
2.	Analitik-dagnostik.	Mustaqil izlanuvchanlik natijalariga erishish mezonlari, ko'rsatkichlari, darajalari ishlab chiqiladi.
3.	Faoliyat-texnologik	Ma'lumotlar yig'iladi, olingan natijalar miqdoriy va sifat jihatidan qayta ishlanadi.
4.	Reflektiv-baholash	Natijalar tahlil qilinadi, umumlashtiriladi va xulosalar chiqariladi, talabalarining yutuqlari e'tirof etiladi.

Mustaqil izlanuvchanlik asosida talabalarining akademik mobilligini ta'minlanganligini belgilovchi komponentlar va baholash ko'rsatkichlari 10-ildavda keltirilgan.

Talabalar o'rtasida o'tkazilgan anketa so'rovlari tahlili natijalarining ko'rsatishicha, anketa so'rovlari o'tkazishda ishtirok etgan 268 nafar talabalarining 63,5%da mustaqil ta'lim topshiriqlarini to'liq bajarishi talab darajasida emasligini ko'rsatdi. Buning sabablari, ularning 42,3%da mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish yo'llarini etarli darajada bilmasligi, maxsus tayyorgarligining yo'qligi; 8,4%da mustaqil ta'lim jarayonidagi zaruriy bilim va tajribalarni etishmasligidir.

Talabalar o'rtasida mustaqil izlanuvchanlik faoliyati yo'nalishida o'tkazilgan anketa so'rovlari natijalarining ko'rsatishicha, talabalarda: mustaqil izlanuvchanlikka qiziqish sust darajada (70,2%); 24,5% talabalargina buni tushunishga, izlanuvchanlik kompetensiyalarini rivojlantirishga harakat qiladi. Natijalarining ko'rsatishicha, pedagoglarning mustaqil izlanuvchanlikni tashkil etish uslublarini tahlil qilmasligi; o'tkazish texnologiyalari va metodlarini yaxshi tushunmasligi; talabalar mustaqil o'rganish faoliyatini adolatli baholamasligi; individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olmasligi sabablarga ko'ra mustaqil izlanuvchanlik jarayoni samaradorligi pasayib ketmoqda.

Talabalarining bilim darajasi yo'nalishida to'plangan ma'lumotlar tahlilini ko'rsatishi 67%ni tashkil etdi; ijodiy qobiliyatlarida o'sish sezilgan; lekin, mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishdagi bilimi etarli darajada rivojlanmagan.

Bu mustaqil izlanuvchanlik topshiriqlarini bajarishni to'g'ri loyihalashtirish va amalga oshirishni talab etadi.

Mustaqil izlanuvchanlikni tahlil qilish, talabalarining fikrlashini rivojlantirish va ijodiy, kasbiy qobiliyatlarini shakllantirishga, talabalarining akademik mobilligini ta'minlashga yo'naltirilmaganligini tasdiqlaydi.

O'tkazilgan tahlillar natijalarining ko'rsatishicha: tajriba-sinov jarayonida ishtirok etgan talabalarining 63%dan ko'prog'iga mustaqil izlanuvchanlik topshiriqlarini bajarishda maxsus tayyorgarlik zarur; 24%da ilg'or tajribalar bilan tanishish zaruriyati bor; 13% esa, mustaqil izlanuvchanlikka oid bilimlarini rivojlantirishi lozim. Bir guruh talabalar

bilan suhbatlashilganda, ko'pchiligida (70% dan ortig'i) mustaqil izlanuvchanlikda yuqori natijalarga erishish, o'z ustida ishlash, mustaqil ravishda doimo o'qish va fan-texnika yangiliklari bilan tanishib borish kerakligi aniqlandi.

Suhbat davomida olingan mazkur ma'lumotlar bilan amalga oshirilgan tahlillarning natijalari o'rtasidagi farq, mustaqil izlanuvchanlikda olgan bilim va ko'nikmalarning yetarli darajada emasligini asosladi. Anketa so'rovlarining natijalariga ko'ra, talabalarining aksariyati etarli darajada tushunchalarga ega emasligi berilgan javoblarda o'z isbotini topdi. Javoblar talabalarining ko'pchiligida takrorlangan, natijalarga ko'ra anketa so'rovlari tajriba-sinov jarayonida ishtirok etgan talabalar o'rtasida o'tkazildi. Talabalarining maqsadga intilishlari, muammolarni bartaraf etish borasidagi layoqatlari darajasi baholandi.

Mustaqil izlanuvchanlik asosida talabalarining akademik mobilligini ta'minlashning past darajasi talabaning o'qishni davom ettirishga ehtiyoji hamda o'qishni tugatgandan so'ng o'qishni davom ettirish istagi yo'qligini o'rgatadi. Talaba o'z qobiliyatini etarli darajada baholamaydi, o'qish osonroq bo'lishi uchun fanlarni o'rtacha darajada o'rganishni rejalashtiradi, talabaning harakatlari sust, natijalar ko'zlangan maqsadlarga mos kelmaydi, muvaffaqiyatsizlik sabablarini yetarli darajada baholamaydi, samarali faoliyatni amalga oshira olmaydi.

O'rtacha darajasi-bu talabada uzluksiz ta'lim olish uchun tashqi motivlarning ustunligi bilan belgilanadigan daraja, talaba o'qishni tugatgandan so'ng kasbiy ta'lim olishni rejalashtiradi, lekin faqat kerak bo'lganda o'qishni davom ettiradi.

Yuqori darajada rivojlanishi talabaning uzluksiz ta'lim olish uchun ichki motivlari va mustaqil ta'limga ijobiy munosabatning ustunligini nazarda tutadi. Talaba mustaqil izlanuvchanlik shakl va usullarini biladi, o'z imkoniyatini yetarlicha baholaydi, asosiy darajadagi fanlarni o'z individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o'rganishni rejalashtiradi va davom ettirishga e'tibor qaratadi. Talaba mustaqil o'quv faoliyatini nostandart vaziyatlarda yaratadi, natijalar ko'pincha belgilangan maqsadlarga mos keladi, muvaffaqiyatsizlik sabablarini etarli darajada baholaydi, mustaqil ravishda samarali faoliyatni amalga oshirishga qodir.

Demak, mustaqil izlanuvchanlik asosida talabalarining akademik

mobilligini rivojlanishda yuqori samaradorlikka erishish uchun mustaqil ta'lim jarayonida o'zgaruvchanlikni ta'minlash, uning zamonaviy shakl va usullaridan foydalanish, zaruriy shart-sharoitlarni yaratish lozim.

Tadqiqot mavzusi vazifalaridan kelib chiqqan holda ushbu tajriba-sinov natijasida mustaqil ta'lim asosida talabalarining akademik mobilligini ta'minlash yo'lidagi muammolarni o'rganish hamda yechimlarini aniqlashtirish; bunda mustaqil izlanuvchanlikning o'rni va rolini asoslash; mazkur jarayon metodikasini takomillashtirish; bunda ingliz tili faniga alohida e'tiborni qaratish; mustaqil ishlarining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish; ushbu jarayon komponentlari va baholash ko'rsatkichlarini aniqlash va diagnostikasini amalga oshirish; pedagogik tajriba-sinov sharoitida mazkur jarayon bo'yicha tajriba-sinov natijalarini tahlil qilish va umumlashtirish hamda ularga oid metodik tavsiyalar ishlab chiqishlari amalga oshirildi.

Tajriba-sinov ishi boshida quyidagi muammolarni hal qilishga e'tibor qaratildi: mustaqil izlanuvchanlik asosida talabalarining akademik mobilligini ta'minlashning boshlang'ich darajasini; mazkur holatni rivojlantirish bo'yicha pedagogik amaliyotning dastlabki holatini; uni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni ta'minlashda pedagoglar tomonidan duch keladigan muammo va qiyinchiliklarni aniqlash.

Tajriba-sinov natijasida biz akademik mobillikning asosiy to'siqlari til va kreditlar tizimi ekanligini aniqladik. Bu anketa so'rovlari natijasida kuzatildi. Shu bilan birga, talabalar migrasiya sohasidagi muammolar ham qayd etildi, mamlakatga ta'lim olish uchun taklifnoma berishning uzoq muddatlari ham ko'rsatildi. Akademik mobillik dasturlarida ishtirok etmayotgan, lekin bu imkoniyatni ko'rib chiqayotgan talabalar akademik almashinuv ishtirokchilarining moliyaviy nochorligini xorijda ta'lim olishdagi asosiy to'siq sifatida qayd etishdi. Belgilangan to'siqlarga qaramay, biz akademik mobillik loyihalarini amalga oshirishda katta tajribaga ega ekanligimizni va doimiy ravishda xalqaro aloqalarni kengaytirishga intilayotganimizni alohida ta'kidlaymiz.

Tajriba-sinov davomida mustaqil izlanuvchanlik asosida talabalarining akademik mobilligini ta'minlashni rivojlantirish uchun tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan usullar va tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni amalga oshirish maqsadida pedagoglar uchun uslubiy seminarlar o'tkazildi.

Seminarlar doirasida, shu jumladan, zamonaviy ta'lim sharoitida mustaqil izlanuvchanlik asosida talabalarining akademik mobilligini ta'minlash muammosini dolzarblashtirish, tanlov, o'zgaruvchanlik va yangi kasbiy funksiyalarni amalga oshirishni ta'minlash zarurligi asoslab berildi. Bu bo'yicha pedagoglar darajasidagi tadbirlar individual konsultatsiyalar, dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar o'tkazildi.

Tajriba-sinovning keyingi bosqichlarida o'rganilayotgan muammo bo'yicha tajriba-sinov ishlarini o'tkazish natijasida olingan ma'lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish amalga oshirildi hamda tadqiqotning yakuniy xulosalari shakllantirildi. Mustaqil ta'lim asosida talabalarining akademik mobilligini rivojlantirish yo'naltirilgan komponentlariga e'tibor qaratildi. Dastlab asosiy e'tibor bu yo'nalishning motivatsion, kognitiv va operatsion komponentlariga qaratildi.

Motivatsion komponent-talabalarining akademik mobilligini ta'minlashning sharti sifatida mustaqil ta'limga qiziqishni o'z ichiga oladi.

Kognitiv komponent-bu mustaqil ta'lim yo'nalishini shakllantirish va amalga oshirish bo'yicha ushbu jarayonni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan bilimlar (mustaqil ta'lim dasturi, shaklva usullariga oid bilimlar), mustaqil izlanuvchanlikka tayyorgarlik va kelajakka yo'naltirilgan asosiy fanlarni bilishni o'z ichiga oladi.

Operatsion komponent esa – mazkur jarayonni rivojlantirish bo'yicha maqsadlarni mustaqil ravishda aniqlash va uning rejalarini tuzish qobiliyatini o'z ichiga oladi (mustaqil ravishda amalga oshirish, nazorat qilish kabi). Bu holatlar yuqoridagi jadvallarda o'z aksini topgan. Mazkur komponentlarga tegishli natijalar umumlashtirilib, quyidagi ma'lumotlar olindi(1.9-jadval).

1.9-jadval


Mustaqil ta'lim asosida talabalarining akademik mobilligini ta'minlash
jarayoni komponentlarini o'zlashtirganlik darajalari

№	Komponentlar	Tajriba-sinov guruhlarida talabalar soni - 135 nafar			Nazorat guruhlarida talabalar soni - 133 nafar		
		Yuqori	O'rtacha	Past	Yuqori	O'rtacha	Past
1.	Motivatsion	84	45	6	70	48	15
2.	Kognitiv	91	39	5	78	32	23
3.	Operatsion	78	47	8	65	41	27


Jadvaldan ko'rinadiki, tajriba-sinov guruhlarida motivatsion komponentning o'rta va yuqori darajasi oshgan, past darajalilar ulushi kamaygan.

Kognitiv komponent mustaqil izlanuvchanlik yo'nalishini to'g'ri tanlashga imkon berdi, tajriba-sinov guruhlarining 67,4%da; nazorat guruhlarining 58,6%talabalarida bu komponent yuqori darajada shakllangan.

Operatsion komponentning rivojlanish darajasi: past-mos ravishda 5,9% va 20,3% ni, o'rtacha -34,8% va 30,8% ni hamda yuqori -57,8% va 48,9% ni tashkil etdi. Aksariyat talabalar hatto profilli o'qitish uchun tanlagan fanlari bo'yicha ham mustaqil ishlashga tayyor emaslar. Tajriba-sinov va nazorat guruhlarida uchun umumiy natijalar quyidagi 1.7 va 1.8-rasmlarda o'z aksini topgan;



1.7-rasm. Tajriba-sinov guruhlarida komponentlarning rivojlanganlik darajasi dinamikasi



1.8-rasm. Nazorat guruhlarida komponentlarning rivojlanganlik darajasi dinamikasi.

Mustaqil izlanuvchanlik asosida talabalarining akademik mobilligini ta'minlashning maxsus tashkil etilgan jarayoni uchun zarur usullar va tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni hisobga olgan holda, pedagogik

darajada, pedagoglar o'rtasida kasbiy kompetensiya rivojlangan bo'lishi kerak. Ushbu jarayonda-boshqaruv, loyihalash, qo'llab-quvvatlash, texnologiyalashtirish, maslahat berish, baholash, pedagoglar individual ta'lim dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish bilan bog'liq barcha dolzarb muammolarni hal qilishga yordam beradi. Bu holat pedagoglarning kasbiy malakasi bilan ta'minlanadi.

Shunday qilib, o'tkazilgan diagnostika tadqiqoti quyidagi xulosalar chiqarishga imkon berdi: zamonaviy ta'lim sharoitida mustaqil izlanuvchanlikni tashkil etish asosida talabalarning akademik mobilligini ta'minlash ishlari talabalarning o'zlari, pedagoglarva OTM rahbarlari tomonidan amalga oshirildi; bu jarayonning rivojlanish darajasi asosan past; pedagoglar buborada faoliyatko'nikma va malakalariga egaemaslar, mustaqil ta'limga mos keladigan ta'lim texnologiyalarini qo'llashda muammolarga uchrashadi; OTM rahbarlari ko'p tarmoqli mustaqil o'quv dasturlarini ishlab chiqishda qiyinchiliklarga duch kelishadi; tahlillar ko'rsatishicha, bu o'znavbatida mustaqil izlanuvchanlikni tashkil etish asosida talabalarning akademik mobilligini ta'minlamaydi.

3.3 §.Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining akademik mobilligini rivojlantirish texnologiyalari bo'yicha natijalar tahlili

Pedagogik tadqiqotlarda pedagogik faraz sifatida tajriba va nazorat sinflarining o'zlashtirish ko'rsatkichlarining bir-biridan farqi, ya'ni tadqiqotda ilgari surilgan g'oyaning tajriba guruhlarida o'tkazilgan natijalari bilan farqlanishi statistik usullar orqali tekshirildi.

Tajriba-sinov natijalariga ko'ra, biz tomonimizdan tavsiya etilgan o'qitish metodikasi an'anaviy olib borilgan o'qitish metodikasiga nisbatan samarali ekanligi isbotlandi. O'tkazilgan tadqiqotlar ilgari surilgan ilmiy farazning to'g'ri ekanligini tasdiqladi. Tadqiqot yakunida ishlab chiqilgan metodik tizimni tajriba sinovga joriy qilish natijasida talabalarda o'quv-bilish faoliyatining samaradorligining oshishiga erishildi.

Amalga oshirilgan mustaqil izlanuvchanlik asosida talabalarning akademik mobilligini rivojlantirish ko'lamini o'rganish, faoliyat samaradorligi past darajada ekanligini ko'rsatdi. Ushbu xulosa, amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlari, o'quv-metodik majmualar, nazariy manbalar hamda mustaqil izlanuvchanlik tahlili natijasida aniqlandi.

Bu jarayonning past samara berayotganligi, o'quv-metodik majmualarning yetarli emasligi, pedagoglarning texnologik jihatdan yondashmayotganliklari, mustaqil izlanuvchanlik vosita va usullar bilan boyitilmayotganligi bilan izohlanadi.

Mustaqil izlanuvchanlik asosida talabalarning akademik mobilligini rivojlantirishning asosiy omili, pedagoglarning nazariy bilim, pedagogik mahorat, pedagogik texnologiyalarni qo'llay olish tajribasiga ega bo'lishlari uchun muayyan shart-sharoitlarni yaratishni talab etiladi.

Tajriba-sinov ishlari davomida mustaqil izlanuvchanlik asosida talabalarning akademik mobilligini rivojlantirishga oid qo'llanmalar, dasturda ko'rsatilgan mustaqil izlanuvchanlikning uslubiy ko'rsatmalar bilan ta'minlanganligi, pedagogik texnologiyalardan foydalanish, mustaqil izlanuvchanlikda muammoli topshiriqlar jamg'armasining mavjudligi va tatbiq etilganligi hisobga olindi hamda natijalar tahlil qilindi.

Talabalarning nazariy, amaliy bilimlari aniqlandi, yakuniy nazorat tahlili, mustaqil fikrlashning amaliy faoliyatda namoyon bo'lishiga imkon beruvchi yo'llar belgilandi. Amaliy trening, anketa-so'rovnoma, suhbat, bahs-

munozara, pedagogik texnologiyalar, amaliy mashg'ulot, test topshiriqlaridan foydalanildi.

Tadqiqot doirasida amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlarining maxsus vosita va usullar asosida yo'lga qo'yilishi, mazkur faoliyatning samarali yakunlanishiga imkon berdi. Tadqiqot jarayonida erishilgan natijalarni umumlashtirish, matematik-statistika metodi yordamida tahlil etish tadqiqot g'oyalarining to'g'riligini tasdiqladi.

Tahlil natijalaridan talabalarining akademik mobilligini ta'minlashga tizimli yondashuv asosida mustaqil izlanuvchanlik samaradorligi oshganligi kuzatildi.

Mazkur fikrning isbotitalabalar akademik mobilligini ta'minlashga, mustaqil fikrlash va kasbiy mahoratini shakllantirishga yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlarining yakunlarida ko'rildi. Tajriba-sinov guruhlaridagi talabalarining akademik mobilligini ta'minlanganlik darajasi nazorat guruhlaridagidan yuqori ekanligi aniqlandi.

Tajriba-sinov ishlarining ma'lum maqsad va unga muvofiq belgilangan vazifalari asosida tashkil etilishi quyidagi holatlarni yuzaga keltirdi: tajriba-sinov ishlarining aniq yo'nalishga egaligi; mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanilganligi; tajriba-sinov ishlarining olib borishga sarflanayotgan vaqtdan unumli foydalanilganligi; kutilayotgan natijani oldindan bashorat qilinishi; aniq natijalarning qo'lga kiritilganligi; tajriba-sinov ishlarining samaradorligi ta'minlanganligi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari tahlili quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini berdi: mustaqil izlanuvchanlik asosida talabalarining akademik mobilligini ta'minlash jarayonini nazariy va metodik jihatdan asoslash.

Maqsadida amalga oshirilgan tadqiqotlarimizda qo'llanilgan vosita va usullarning samarali hamda ishonchli ekanligi isbotlandi; talabalarda mustaqil izlanuvchanlikning asosiy shakllari, mustaqil izlanuvchanlikning mazmunan ketma-ketligi, murakkablik darajasiga ko'ra mustaqil ishlar turlari, mustaqil ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish orqali amalga oshirish bo'yicha ishlab chiqilgan mustaqil izlanuvchanlikka qaratilgan vosita va usullarni ta'lim tizimi amaliyotiga tatbiq etilishi ilmiy asoslandi.

O'tkazilgan tajriba-sinov ishlari mustaqil izlanuvchanlik asosida talabalarining akademik mobilligini rivojlantirish jarayonida asosiy

muammolarni aniqlashga hamda ularni bartaraf etishning taklif etilgan usullarini sinab ko'rishga imkon berdi.

Tajriba-sinov ishlari jarayonida mazkur jarayonni ta'minlash uchun shart-sharoitlar, usullar pedagogik ta'lim qonunlariga asoslanishi kerakligi haqidagi g'oyaning asosli ekanligini tasdiqladi. Chunki, har bir kasbning o'zi mobil va milliy shuningdek jahon ta'lim hamjamiyatlari tomonidan ta'lim tizimini rivojlantirish va isloh qilishning asosiy talablarini ham hisobga olishi kerak. Bundan tashqari, talabaning akademik mobilligini rivojlantirishning muhim tarkibiy qismi uning shaxsiy ta'lim va hayotiy ehtiyojlari va qiziqishlarini qondirishdir.

Tajriba-sinov natijalari shuni ko'rsatdiki, OTM talabasining akademik mobilligi-uni loyihalash hamda amalga oshirish jarayonida shakllanadi va rivojlanadi, individual ta'lim yo'nalishi, shuningdek, bo'lajak mutaxassisni ijtimoiy va kasbiy mobillikni shakllantirish rivojlantirishga tayyorlashga hissa qo'shadi.

Shuningdek, kasbiy va pedagogik faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun talabaning motivasiyasini oshiradi.

Tajriba-sinov ishlarini tekshirish, shuningdek, natijalarni umumlashtirish, olingan ma'lumotlarning ishonchligini va mustaqil izlanuvchanlik asosida talabalarining akademik mobilligini ta'minlaydigan belgilangan tashkiliy-pedagogik shartlarni va usullarni amalga oshirish samaradorligini tasdiqladi.

"Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining akademik mobilligini rivojlantirish texnologiyalari" (mustaqil ta'lim misolida) mavzusida olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Mustaqil ta'lim jarayonida talabalarining akademik mobilligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlarini tashkil etish muammosining mavjud holati o'rganildi, talabalarining mustaqil ta'lim olish faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan nazariyalar, talabalarining akademik mobilligini rivojlantirishning usul, vositalari aniqlangan va ularning samaradorligi asoslangan.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining o'quv-bilish kompetensiyalarining motivatsion, kognitiv, operatsion-pedagogik bosqichlarini tizimlashtirish asosida talabalarining moderator, fasilitator va mentor kabi zamonaviy pedagogik faoliyati mazmuniga singdirish

texnologiyalarini takomillashtirish.

Talabalarining akademik mobilligini mustaqil ta'lim jarayonida rivojlantirish modeli talabalarda mustaqil ishlash qobiliyati, loyihalash, o'zini-o'zi tahlil qilish, iqtidorini namoyon qilish, olgan bilimlarini hayotda qo'llayolish kabi zamonaviy ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan hamda talabalarining o'quv-bilish darajasi, qiziqishi, qobiliyatini o'rganish hamda mustaqil ishlarni aniq maqsadga asoslanuvchi loyiha asosida tashkil etish bilan bog'liq yaxlit o'quv muhitini yaratishga asos bo'ladi.

Tadqiqot natijalari bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini shakllantirish, zamonaviy yondashuvlar asosida tarbiyalash, raqobatbardoshligini oshirish va bilish traektoriyasini kengaytirishda talabalarining akademik mobilligini mustaqil ta'lim jarayonida rivojlantirish modelini amaliyotga joriy etish zarurati mavjudligini ko'rsatdi.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining akademik mobilligini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari talabalar faoliyatining differensial darajalanishini baholashga mo'ljallangan transformativ-dagnostika dasturini o'zgaruvchan muhitga tez moslashuvchanlikni ta'minlaydigan imitatsion mashg'ulotlarda qo'llash asosida aniqlashtirilgan.

Talabalarining milliy va xalqaro ta'lim muhitida muvaffaqiyatli harakatlanishini ta'minlashga yo'naltirilgan motivasion, kognitiv va operasion komponentlari dahldorlik, moslilik kabi ta'lim mazmuniga oid qiyoslanuvchi tamoyillarni mustaqil ta'lim jarayoniga qiritish asosida takomillashtirilgan.

Talabalarining akademik mobilligini rivojlantirish modeli o'quv materialini qayta ishlashning vizual, audial va diskret strategiyalarini o'lchamlilik, o'zaro tobelanish va mustaqil natijadorlik kabi axborotli kontentni yaratishga qo'yiluvchi talablarga qo'llash asosida takomillashtirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Normativ-huquqiy xujjatlar va metodologik ahamiyatga ega nashrlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775 qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, PF-4947-sonli Farmoni. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017y., 6-son, 70-modda, 20-son, 354-modda, 23-son, 448-modda, 37-son, 982-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, .07.2018y., 06/18/5483/1594-son; 11.12.2019y., 06/19/5892/4134-son).
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 23 sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun".O'RQ-637-son. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 2 4.09.2020y., 03/20/637/1313-son).
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-son Qarori. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017y., 6-son, 70-modda, 20-son, 354-modda, 23-son, 448-modda, 37-son, 982-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.07.2018 y., 06/18/5483/1594-son; 11.12.2019y., 06/19/5892/4134-son).
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha Rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019y., 06/19/5847/3887-son; 30.04.2020 y., 06/20/5987/0521-son).
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.11.2020y., 06/20/6108/1483-son)

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrda "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son Qarori. (Qonunhujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.11.2020y., 07/20/4884/1484-son).

Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to'plamlar.

8. Matjonov S. Umum ta'lim tizimida adabiyotdan mustaqil ishlarni tashkil etish: dis. ped. fan. dok.-Toshkent: TDPU, 1998.-287 b.
9. Muslimov N. A. A. Kasb ta'limi pedagoglarini tayyorlashda mustaqil ta'limni tashkil etish. Metod. qo'llanma.-T.:TDPU, 2006.-46b. 10.
10. Qo'ysinov O. A. Kasb ta'limi yo'nalishi bakalavr pedagoglarini tayyorlashda mustaqil ta'limning ilmiy metodik asoslari: Dis... ped.fan.nom.-Toshkent: TDPU, 2008.-160b.
11. Qo'ysinov O. A. Mustaqil ta'lim olish jarayonida talabalarining ijodiy tafakkurlarini shakllantirish//Ta'lim jarayonida mustaqil tafakkur rivojlanishi muammolari: Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari.-Toshkent: TDPU, 2005.-B.98-99.
12. Qo'ysinov O. A. Talabalarining mustaqil bilim olish mahorati darajalarini aniqlash omillari//Ta'lim texnologiyalari.-Toshkent, 2005.-№2.-B.21-23.
13. Qo'ysinov O. A. Bo'lajak mehnat ta'limi pedagoglarini tayyorlashda mustaqil ta'limning pedagogik-psixologik ahamiyati// Ta'lim texnologiyalari.-Toshkent, 2007.-№3.-B.31-32.
14. Turg'unov O'. Q. Talabalarining mustaqil ishlarida o'qitish vositalari.// Xalq ta'limi, -Toshkent, 2000.-№3. -B.34-38.
15. Tolipov M. Talabalarining mustaqil ishlarini tashkil etish./ Xalq ta'limi.-Toshkent, 2006.-№2.-B.25-28
16. Xalilov N. Mustaqil ta'lim shakllari//Xalq ta'limi.-Toshkent, 2002.-№5.-B.51-54.
17. Abdalova S. R. Mustaqil ta'limni tashkil etish texnologiyasi. O'quv qo'llanma. -Toshkent: Fan vatexnologiya nashriyoti, 2009.-104b.
18. Bushlya A. K. O samoobrazovanie//Педагогика.-М.: 1989.-№2.-С. 17-20.
19. Buryak V. K. Самостоятельная работа учащихся. -М. Просвещение, 1984.-С. 244.

20. Graf V. Основы самоорганизации учебной деятельности самостоятельная работа студентов.-М.:Изд. МГУ. 1998.-140с.
21. Zaborshikova M. M. Самообразование молодого учителя как условие совершенствования его профессиональной деятельности: Автореф.дис...канд.пед.наук.-Л.: 1988.-19с.
22. Zakinov E. I. Педагогические основы организации самостоятельной работы учащихся 6-8 классов: Дис.канд.пед.наук- Т.:2001.-155с.
23. Nishonova Z. Mustaqil fikrlashni o'rgatish bo'yichat rening// Xalq ta'limi.-Toshkent, 2000.-№1.-B.38-40.
24. Nishonova Z. Mustaqil fikr rivojlanganligining psixologik mezonlari // Xalq ta'limi.-Toshkent, 2001.-№1.-B. 38-40.
25. Turdiboeva B. M. Talabalarda mustaqil ongli faoliyatni shakllantirishga ilmiy-pedagogik yondashuv // Xalq ta'limi.-Toshkent, 2001.-№1.-B.106-108.
26. Yunusova SH. Talabalarining mustaqil o'quv faoliyatini shakllantirish // Xalq ta'limi.-Toshkent, 1997.-№5.-B.53-55
27. Demidova S. I. Самостоятельная деятельность учащихся при Обучении математике.-М.:Просвещение, 1985г.-189.
28. Galichin, V. A. Академическая мобильность в условиях Интернационализации образования. / В. А. Галичин. -М.: Университетская книга, 2009.-460с.
29. Bogoslovskiy, V. I. Развитие академической мобильности в многоуровневом университетском образовании: метод. рекомендации для преподавателей В. И. Богословский, С. А. Писарева, П. Тряпицына.-СПб.:Изд-во РГПУ, 2007.-95с.
30. Bogoslovskiy, I. V. Академическая мобильность: реализация в Болонском процессе: Метод.пособие для студентов. -СПб.: Изд-воРГПУим А. И. Герцена, 2007.-55с.
31. Martynenko, O. O. Problemy razvitiya akademicheskoy mobil'nosti zadachi vuzov. URL:http://www.vvsu.ru/UserFiles/File/bp/publication/upravl_mobil.doc.
32. Martynenko, O. O. Проблемы развития академической мобильности задачи вузов. URL.
33. Brinyov, N. S. Отчет по проекту «Обобщение опыта участия вузов российской Федерации в реализации принципов Болонского процесса».

URL: <http://www.primgis.ru/UserFiles/File/bp/product/ATT00010.doc..>

34. Klementovichus, YA. Академическая мобильность в рамках Болонского процесса: учебно-методическое пособие/ Я. Я. Клементовичус. - СПб:ГУЭФ, 2006.-78с.

35. Fugelova, T. A. Мобильный студент-субъект воспитательно-развивающей среды вуза. Сибирский педагогический журнал. -2010.- №5.-С.106-116.

36. Тыртыу, S. A. Формирование виртуальной мобильности преподавателя высшей школы в процессе повышения квалификации Автореф.дис.....канд.пед.наук/ С. А. Тыртыу.-Ростов-на-Дону, 2009.29с

37. Мищенко, V. A. Национальный менталитет как особый фактор Формирования профессиональной мобильности. Сибирский педагогический журнал.-2010.-№8.-С. 128-136.

38. Sadovnichiy, V. A. Примерное положение об индивидуальной академической мобильности. URL:<http://inpro.msu.ru/files/an/>

39. individual.doc.

40. Chistoxvalov, V. N. История развития академической мобильности в странах «Болонской зоны» В. Н. Чистохвалов//Педагогическое образованиеи наука.-2009.-№9. -С.33-43.

41. Agishev R. R. Программы академической мобильности: особенности возможности/ /Распространение Болонского процесса: от деклараций к внедрению на практике: ВЗч.Ч.2. Тенденции развития Болонского процесса, его инструменты и опыт внедрения. -Казань: КГТУим. А. Н. Туполева, 2008.-С. 103-110..

42. Baydenko, V. I. Базовые навыки (ключевые компетенции) как интегрирующий фактор образовательного процесса :научн. метод. Сб./ В. И. Байденко, Б. Оскарссон Профессиональное образование и формирование личности специалистов. -М., 2002.-С.5.

43. Barblan A. Академическое сотрудничество и свобода передвижения в Европе: Высшее образование в Европе. 2002. №1, 2.URL:http://www.logosbook.ru/educational_book/archive.html.

44. Kuz'min, A. V. Управление академической мобильностью как фактор развития международной интеграции в образовании: диссертация к.э.н./Кузьмин А.В.-СПб, 2007

45. Dmitrieva N. K. Академическая мобильность как личностное

качество субъектов образовательного процесса/ /Непрерывное образование: XXI век- №4, 2013.

46. Znovyenko, L. B. Развитие академической мобильности студентом Педагогического вуза в условиях непрерывного образования: диссертация кнш/ ЗновенкоЛ.В.- Омск, 2008, с.61-62.

47. Ryagin S. N. Педагогические проблемы формирования академической мобильности в условиях среднего общего образования/ /Наука о человеке: гуманитарные исследования.2013.№3 (13).С. 96-100.

48. Sheremet A. N. Академическая мобильность в педагогическом образовании//Материалы IV Общероссийско научной конференции «Современные проблемы науки и образования». -Москва, 2009.

49. Sheremet A. N. Формирование академической мобильности будущих учителей информатики средствами информационных коммуникационных технологий: диссертация

50. Avliyaqulov N. X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. -Toshkent: 2001.-150b.

51. Avliyaqulov N. X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. -Toshkent: 2001.-150b.

52. Azizxo'jaeva N. N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. -Toshkent: TDPU, 2003.-172b.

53. Yo'ldoshev J. G'. Yangi pedagogik texnologiya: yo'nalishlari muammolar echimlari //Xalq ta'limi. -Toshkent, 1999.-№4.-B.5-8.

54. Saidahmedov N. S. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar.-T.:O'zMUOPI, 2003.-68b.

55. Saidahmedov N. S. Yangi pedagogik texnologiyalar. -T.:O'qit.2002.-280b.

56. Mavlyanov A., va b.q.lar. Pedagogik texnologiya tamoyillari asosida dars mashg'ulotlarini olib borish texnologiyasi. O'quv-uslubiy qo'llanma.-Toshkent: Voris nashriyoti, 2010.-117b.

57. Boltayev N., va b.q.lar. Pedagogik texnologiyalarni amalga oshirish usullari// Ta'lim texnologiyasi.-Toshkent, 2006.-№3.-B.6-7.

58. Saricheva E. A. Новые технологии обучения: Вопросы терминологии// Педагогика, -М.:1993.-№5. -С. 120.

59. Bepalko V. I. Педагогика и прогрессивные технологии обучения.-М.:ИРПО.1996.-С.336.

60. Zveryev S. V. К вопросу педагогической технологии //Среднее профессиональное образование. 2000.-№15.-С.45-46.
61. Klarin M. V. Инновации в обучении: метафоры и модели: Анализ зарубежного опыта.-М.:Наука, 1997.-С. 95.
62. Selevko G. K. Современные образовательные технологии. -М.:1998.-178с.
63. Safin V. V. Педагогические технологии. -Тошкент, 2001. 26с.
64. Педагогическая энциклопедия. Т. 3. М.: Савицкая энциклопедия. 1996.879с.
65. Okon V. Введение в общую дидактику/ Пер.спольского. М.: Педагогика, 1990.256с.
66. Nagoyeva M. A. Самообразование: формы, виды, результативность. Северо-Кавказского института повышения квалификации (филиал) Краснодарского университета МВД России. E-mail:арсмарина@mail.ru.
67. Matyuxina M. V. Мотивация учения младших школьников. М.: Просвещение, 1984.298с.
68. Medvedyev I. F. Концепция самообразования: основные понятия и структура//Инновационные проекты и программы в образовании. 2013. №3С.42-46.
69. Kalinina A. N. Сущность понятия "самообразование". Вестн. Моск.ун-та.сер.20. Педагогическое образование. 2013.№3.
70. Shuklina E. L. Технологии самообразования: социологический аспект// Общественные науки и современность. 1999.Н°5.-С. 140-151.
71. Общая и профессиональная педагогика /Подред. В. Д. Симоненко, М. В. Ретивых. Брянск:Изд-воБрянскогогос.ун-та, 2003.
72. Kodjaspirova T. M. Культура профессионального Самообразования педагога / Подред. Yu. M. Zabrodina. М.: Просвещение, 1994.344с.
73. Руководство по реализации пилотного проекта ИИТОЮНЕСКО" Обучение для будущего" (ЛФФ).ИИТОЮНЕСКО.Февраль2012.29с.
74. Konyev D. V. Основания условия формирования компетентности самообразования студентов//Вестник Удмурцкого университета. Сери«Философия. Психология. Педагогика». 2016. №2С.157-162.
75. Niyazmetova T. R. Методика самостоятельной работы учащихся на уроках узбекской литературы в IV-VII классах: Автореф. дис.канд. пед.наук.-Т1979.21с.

76. Sorokin P. Социальная мобильность, ее формы флуктации/ /Kravchenko A. I. Социология. Хрестоматия для ВУЗов.-М.: Академический проект; Екатеринбург: Деловая книга, 2002.-С.647.
77. Sorokin P. A. Человек. Цивилизация. Общество/ пер.сангл. М.:Политиздат, 1992.-543с.
78. Morilyeva E. Функциональное значение социально- профессиональной мобильности в подготовке педагога вузе//<http://tgpi.tob.ru/info/nauka/conf/old/cont%2005/20.Htm>.
79. Kotmakova T. B. Педагогические условия развития личностной мобильности. Научные проблемы гуманитарных исследований. Институт региональных проблем российской государственности на Северном Кавказе№11. 2009.
80. Amirova L. A. Диалектика биологического и социального в процессе формирования мобильной личности. Вестник Оренбургского государственного университета. Выпуск №1. 2004. С59-64.
81. Nechayev B. Болонский процесс: мифы, иллюзии, реалии/ /Высшее Образование в России. М.:Московский политехнический ун-т, 2004.№7. С.86-95с.88.
82. Lukichev G. A. Динамика Болонского процесса//высшее Образование сегодня.-№3.-2002.-С.32-39.
83. Goryunova, L. V. Профессиональная мобильность специалиста как проблема развивающегося образования в России: дис.... д-ра пед.наук/ Goryunova, L.V - Ростовн/Д, 2006.-427с.
84. Goryunova, L. V. Составляющие профессиональной мобильности современного специалиста / Goryunova, L.V // Известия высших учебных заведений. Поволжский регион.-№1.2007. -С.63-68.
85. Slastenin V. A . Педагогика. Учеб. пособие для студ.высш. пед.учеб. Заведений В. А. Сластенин, И. Ф. Исаев, Е. Н. Шиянов; Подред. В.А. Сластенина. -М.: Издательскийцентр"Академия", 2013. - 576с.
86. Orlova O. Русские ваганы в Болонском процессе: высшее образование в России станет обще европейским нескоро//Ученый совет. 2008. №9. С.39-43.
87. Shelkunova T. V. Успех Сибирского федерального университета в развитии академической мобильности студентов//Развитие внутри российской мобильности научных и научно-педагогических кадров на

базе ведущих научно-образовательных центров в области естественных наук: мат-лы Всерос.науч.-практ.конф.с элементами науч.школы. (Новосибирск, 11октября2010г.) Новосибирск, 2010. С. 65-67.

88. Zeer, E. F. Психология профессий: учеб.пособие для вузов/ Э. Ф. Зеер. -3-изд., перераб. идоп. -М.: Академический Проект, 2006. -336с.

89. Kasayevich V. B. и др. Болонский процесс вв опросах и ответах. СПб.:СПбГУ2004.108с.

90. Manayeva N. N. Информационная мобильность студента университета как компонент качества образования с студентов в современном мире // Педагогическое образование в России.2015. №10. С.-149.

91. Kuzevanova E. V. Формирование исследовательской позиции Студентов педагогического вуза [Текст]/ Е. В. Кузеванова //Сибирский педагогический журнал. -2010. -№3. -С.47-52.

92. Boloniya o'zgarishlari va gumanitar universitet: muammolar, ustuvorliklar, istiqbollar: Abstrakt byulleteni. RGGU2005.40b.

93. Orlova O. Русские ваганты в Болонском процессе: //Ученый совет. 2008. №10. С.29-33

94. Shelkunova T. V. Успех Сибирского федерального университета вразвитии академической мобильности студентов// Развитие внутри российской мобильности научных и научно-педагогических кадров на базе ведущих научно-образовательных центров в области естественных наук: мат-лы Всерос.науч.-практ.конф.с элементами науч.школы. (Новосибирск, 11октября2010г.) Новосибирск, 2010. С. 65-67.

95. Koropchenko A. A. Проблемы академической мобильности и признания квалификаций в контексте Болонского процесса//Создание научно-образовательного пространства Баренцева Евро-Арктического региона: состояние, проблемы, перспективы. Архангельск, 2007. С. 73-85.

96. Grebnev L. S. Лондонское коммюнике: завершающий этап Болонского процесса//Высшее образование в России. 2007.№9. С.3-13.

97. Монахов В. М. Технологическое основы проектирования и конструирования учебного процесса.-Волгоград, 1995.-100с.

98. Abdalova S. Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish ta'lim

samaradorligining omili//Mug'allim hamuzluksiz bilimlendiri'.- Nukus, 2006.-№6.-B.55-58.

99. Sultanova O'. Fizika darslarida talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish// Pedagogik ta'lim. -Toshkent, 2006. -№5.-B.38-39.

100. Методические рекомендации для выбора и формулирования тем самообразования. Режим доступа: <http://belscy-1.ru/> / Самообразование.

101. Borisova A. A. Как Организовать Работу По Теме самообразования. Режим доступа: гуманитарного-цикла/ самообразование - учителя.

102. Rosina N. Организация СРС в контексте инновационного образования// Высшее образование в России.2006. №7. С.109-114.

103. Pidkasiy P. I. Организация учебно познавательной деятельности. 2-изд., доп.и перераб. М., 2005.

104. Rosina N. Организация СРС в контексте инновационного образования// Высшее образование в России. 2006. №7. С.109-114.

105. Rubannik A. Самостоятельная работа студента//Высшее образование в России.2005.№6.С.120-124.

106. Layrapanova S. X. Самообразование старшеклассниковв контексте личносно ориентированного обучения: диссертация/. Layrapanova S. X.: Карачаевск, 2004.-182с.

107. Manba:<https://www.bibliofond.ru/view.aspx?id=891375>

108. Andryev V. I. И. Педагогическое управление самостоятельное работы студентов на современном этапе. Методические рекомендации для преподавателей/Andryev V. I., Ф. Л. Ратнер, М. А. Верещагин.-Казань: КГУим. В. И. Ульянова-Ленина, 2003.

109. Petuxova T. P. Самостоятельная работа как средство развития информационной компетенции//Высшее образование в России. 2008.№ 12.С.121-126.

110. Организация самостоятельной работы студентов: Материалы докладов ИИ Всероссийской научно-практической интернет-конференции « Организация самостоятельной работы студентов» (6-9декабря2013года) – Саратов: Изд-во«Новый Проект», 2013.-188с.

111. Taraseyich E. B. Использование веб-квестов приорганизации самостоятельной работы учащихся в обучении иностранным языкам// Межкультурная коммуникация и профессионально риентированное

обучении иностранным языкам. Материалы ИИИ Международной научно

112. Osadchik. O. L. Управление самостоятельной работой студентов [Текст]: метод.пособ. / O. L. Osadchuk. –Омск: Полиграфический центр КАН, 2009.–156с.

113. Методические рекомендации по разработке и реализации на основе деятельностно компетентного подхода образовательных программ ВПО, ориентированного на ФГО Стретьего поколения/ Т. П. Афанасьева, Е. В. Караваева, А. Ш. Канукоева, В. С. Лазарев, Т. В. Немова. –М.: Изд. -воМГУ, 2007.

114. Kazakova. O. P. Обучение работе со словарем как первый этап обучения самостоятельной учебной деятельности. Материалы докладов И. И. Всероссийской научно-практической интернет-конференции «Организация самостоятельной работы студентов»(6-9 декабря 2013 года) – Саратов: Изд-во «Новый Проект», 2013.–С. 101-103.

115. Методические рекомендации по разработке и реализации на основе деятельностно компетентного подхода образовательных программ ВПО, ориентированного на ФГОС третьего поколения / Т. П. Афанасьева, Е. В. Караваева, А. Ш. Канукоева, В. С. Лазарев, Т. В. Немова. –М.: Изд. -воМГУ, 2007.

116. Казакова, О. П. Обучение работе со словарем как первый этап обучения самостоятельной учебной деятельности. Материалы докладов И. И. Всероссийской научно-практической интернет-конференции «Организация самостоятельной работы студентов» (6-9 декабря 2013 года) – Саратов: Изд-во «Новый Проект», 2013.–С. 101-103.

117. С. В. Боголепова. Техники само взаимной оценки как инструмент развития самостоятельности учащихся. Материалы докладов И. И. Всероссийской научно-практической интернет-конференции «Организация самостоятельной работы студентов» (6-9 декабря 2013 года) – Саратов: Изд-во «Новый Проект», 2013.–С. 142-145.

118. Зимняя, И. А., Педагогическая психология[Текст]/ И. А. Зимняя /М.:Логос,

119. Кузнецова, Т. Г. Самоконтроль как компонент организации самостоятельной работы студентов неязыковых специальностей. Материалы докладов ИИВ всероссийской научно-практической

интернет-конференции «Организация Самостоятельной Работы Студентов» (6-9 декабря 2013 года)– Саратов: Изд-во «Новый Проект», 2013.–С.150-153.

120. Абдулина О. А. Общепедагогическая подготовка учителя в системе педагогического образования. –М.:Просвещение, 1990. –300 конференция, посвященной 88-летию образования Белорусского государственного университета. Минск, 2009.–С. 219-221.

ILOVALAR

1-ilova

Akademik mobillik bo'yicha savollar

№	Savollar	Javoblar
1.	Akademik mobillik qanday ishlaydi?	Akademik mobillik talabalarining xorijiy hamkor ta'lim muassasasida akademik davr uchun o'qishini nazarda tutadi. Dasturda qatnashish bir vaqtning o'zida xorijda o'qish va chet elda yashash tajribasini olish imkoniyatidir.
2.	Akademik mobillikda kim ishtirok etishi mumkin?	Qoida tariqasida, 2-3 bosqich talaba-talabalari akademik mobillik dasturida qatnashadilar, chunki birinchi bosqich talabalari asosan sayohatni talab qilmaydigan umumiy ta'lim fanlarini o'rganadilar.
3.	Akademik mobillik qachon paydo bo'lgan?	Tizim Evropa Erasmus dasturining bir qismi sifatida 1988 ylda yaratilgan.
4.	Akademik halollik nima?	Akademik halollik - bu haqiqat, ishonch, hurmat, adolat va nihoyat, mas'uliyat tamoyllariga rioya qilishdir. Hech kim kuzatmagan va nazorat qilmagan taqdirda ham bu tamoyllarga amal qilish kerak.
5.	Akademik yaxlitlik nima va u nima uchun kerak?	Akademik halollik - o'qitish va baholashda shaxsiy halollikni ta'minlovchi qadriyatlar va tamoyillar to'plami. Bundan tashqari, yozma testlar, imtihonlar, insholar, tadqiqotlar, taqdimotlarni bajarishda munosib xatti-harakatlar sifatida talqin qilinishi mumkin.

6.	Akademik mobillik talabaga nima beradi?	- bilimlarni, shaxsiy va ijtimoiy ko'nikmalarni boyitish, shu jumladan madaniyatlararo; - chidamlilikni, stressga chidamlilikni, moslashuvchanlikni mustahkamlash; - bandlik imkoniyatlarini oshirish, martaba o'sishi.
7.	Halollikka nima to'g'ri kelmaydi?	Insofning teskarisi - yolg'on, xiyonat, ikkiyuzlamachilik, o'g'irlik.
8.	Erasmus qanday ishlaydi?	Dasturda ishtirok etuvchi boshqa davlatda o'qish, stajirovka o'tash yoki o'qitish imkoniyatini beradi. Ta'lim va amaliyot muddati har biri 3 oydan 1 yilgacha, jami 2 yilgacha bo'lishi mumkin.
9.	Erasmus dasturiga tanlov jarayoni qanday?	Jarayon ikki bosqichda - birinchisi kafedra darajasida, ikkinchisi fakul'tet darajasida amalga oshiriladi. Eng muhimi - motivasiya xati, stajirovka-dasturingiz (chet elda o'qishning butun davri uchun maqsad), shuningdek, tilni bilish darajasi.
10.	Erasmus dasturiga qanday kirish mumkin?	Erasmusdasturida ishtirok etish shartlari. Ingliz tilini yoki qabul qiluvchi davlatning milliy tilini bilish darajasi. Kamida B2 darajasida bo'lishi kerak. Loyihada faqat o'z muassasasida kamida 2 yil o'qigan talaba-talaba ishtirok etishi mumkin.
11.	Erasmusda necha marta qolish mumkin?	Erasmus dasturi bo'yicha xorijda qolish 3 (bir akademik semestr) dan 12 oygacha davom etadi. Siz dasturdan bir necha marta foydalanishingiz mumkin: talaba yoki stajyor sifatida. Ammo birssikl davomida chet elda o'tkaziladigan vaqt bir yildan oshmasligi kerak.

2-ilova
Blum savollari

No	Toifa	Savollar mazmuni	Savollar
1.	Bilish	Faktli-daliliy bilishga oid savollar.	1. Qaerda, qachon nima sodir bo'ldi....? 2. Qaerda o'ylashgan....? 3. Qachon.....?
2.	Tushunish	Ma'nosini anglashni ko'rsatuvchi savollar.	1. O'z so'zingiz bilan bayon qiling. 2. Tafsilotini yozing. 3. Bulardan... qaysi biri namuna?
3.	Qo'llash	Amaliy ahamiyatga oid savollar.	1. ... qayoqda, qanday qo'llaniladi? 2. Bu nima uchun sodir bo'ladi? 3. Bu qonun qanday qo'llanilishi mumkin?
4.	Tahlil	Yaxlitlikni tarkibiy qismlarga ajratish va ular orasidagi bog'lanish-larni o'rnatishga oid savollar.	1. Taqqoslang. 2. Eng muhim xususiyatlari nima? 3. Turkumlang.
5.	Sintez	Alohida qismlardan man-tiqiy yangi yaxlitlikni vujudga keltirishga oid savollar.	1. ... rejasini tuzing. 2. Buni siz qanday yaratgan bo'lar edingiz? 3. Mavzuning eng muhim jihatla-rini belgilang.
6.	Baholash	Qaror qabul qilish,	1. ... ga munosabat bildiring.

		xulosa yasashni uddalashga oid savollar.	2. Namuna talabga javob beradimi? 3. Nima uchun? 4. Qaysi mezonlarga asoslanib baholash mumkin?
--	--	--	---

3-ilova
Talabalarda mustaqil izlanuvchanlikka oid tushunchalarning shakllanganlik darajasi

Anketa savollari	Javoblar	
"Mustaqil izlanuvchanlik" tushunchasi mohiyatini siz qanday sharhlagan bo'lardingiz?	Ijobiy	
	Salbiy	
	Javob berishga qiynalaman	
Siz uchun mustaqil izlanuvchanlik bilan shug'ullanish muayyan ahamiyatga egami?	Ha	
	Yo'q	
	Javob berishga qiynalaman	
Mustaqil izlanuvchanlik bilan shug'ullanish uchun qanday sifatlar shakllanishi lozim?	Mustaqillik	
	Ijodkorlik	
	Tashabbuskorlik	
Talabalarining mustaqil izlanuvchanligini tashkil etishda	Boshqaruv	
	Tashkiliy	

qanday omillar etakchi o'rin tutishini bilasizmi?	Pedagogik	
Mustaqil izlanuvchanlikda muammolar nimalardan iborat?	SHart-sharoitlar etardi emasligi.	
	Adabiyotlarning etardi emasligi	
	Mashg'ulotlarning qiziqarli emasligi	
Mustaqil izlanuvchanlik jarayonida qanday vosita va usullardan foydalanishni bilasizmi?	Internet	
	O'quv adabiyotlari	
	Boshqa vositalar	
Mustaqil izlanuvchanlik bilan shug'ullanish kelgusi kasbiy faoliyatingizda qanday ahamiyat kasb etadi?	Kasbiy sifatlarim rivojlanadi	
	Fikrlash operatsiyalarim takomillashadi	
	Ishlab chiqarishda qiynalmayman	

4-ilova

Talabalarning mustaqil bilim olishga oid ma'lumotlari

Savollar	Variant	Javoblar	
Dars jarayonida mustaqil	A.	O'qish, eshitish, gapirish	

faoliyatingiz nimalar-dan iborat deb o'ylaysiz?	V.	Tinglash, javob berish, xulosalar chiqarish	
	S.	CHizish, hisoblash, mashq bajarish	
	D.	Tahlil qilish, tushunish, qo'llash.	
Talabalarning mustaqil ishlash kompetensiya-larini shakllantirishda samarali natijaga olib keluvchi asosiy holat.	A.	Darsda	
	V.	Darsdan tashqarida	
	S.	Kutubxonada	
	D.	Uyda.	
Mustaqil izlanuvchanlik uchun quyidagi tashkiliy shakllardan qaysi biri-dan ko'proq foydalangan ma'qulroq?	A.	Bevosita pedagog rahbarligida	
	V.	Pedagog nazoratida.	
	S.	Pedagog bilan hamkorlikda	
	D.	Individual holda	
Noan'anaviy darslarga munosabatingiz.	A.	Ijobiy	
	V.	Salbiy	
	S.	Bunday darslarda maqsad aniq emas.	
	D.	Bunday darslar davr talabi	
Mustaqil bilim olishda qaysi mashg'ulot shakl-lari samaraliroq deb o'ylaysiz?	A.	Ma'ruza	
	V.	Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari	
	S.	Pedagogik amaliyot	
	D.	Mustaqil ta'lim	

5-ilova

Akademik mobillikni tashkil etishda hal qilinishi kerak bo'lgan umumiy vazifalar

№	Vazifalar
1.	Talabalar va pedagoglar uchun grantlar tizimini yaratish.
2.	Akademik mobillikning tashkiliy mexanizmlari va me'yoriy-uslubiy ta'minotini takomillashtirish.
3.	Talabalarning xorij va muayyan ta'lim muassasalaridagi asosiy ishlardan xabardorligini ta'minlash.
4.	CHet tili fanlarini o'rganishni yo'lga qo'yish.
5.	Integrasiya masalalariga e'tiborni qaratish.
6.	Ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlash.
7.	CHet elliklarni qo'llab-quvvatlash infratuzilmasini yaratish.
8.	Muhim ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish.
9.	Ta'lim muassasasi ichidagi mobillikni baholash tizimini ishlab chiqish.
10.	Akademik almashinuv dasturlarida ishtirok etish uchun tanlov tashkil etish.

6-ilova

Komponentlar va baholash ko'rsatkichlari

№	Komponentlar	Ko'rsatkichlar
1.	Motivatsion	- mustaqil izlanuvchanlik motivi; - bilish motivi; - natijaga erishish motivi.
2.	Kognitiv	- mustaqil izlanuvchanlikvosita va usullariga oid bilimlar; - individual yondashuvlar; - talabaning fanlarni mukammal egallashi.
3.	Operatsion	Quyidagi qobiliyatlarga ega bo'lish: - mustaqil ishlarni tashkil etish; - axborot manbalari bilan ishlash; - loyihalash va tadqiqotchilik; - o'zi erishgan natijalarni baholash; - olgan bilimlarni amaliyotda qo'llash.

-4418/x-

SAITKULOVA NAZOKAT RAXMONOVNA

**PEDAGOGIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING
AKADEMIK MOBILIGINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI
(mustaqil ta'lim misolida)**

MONOGRAFIYA

Muharrir:	X. Taxirov
Tehnik muharrir:	S. Melikuziva
Musahhih:	M. Yunusova
Sahifalovchi:	I. Xakimov

Nashriyot litsenziya № 2044, 25.08.2020 й
Bichimi 60x84^{1/16}. "Cambria" garniturası, kegli 16.
Offset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 15,75. Adadi 100
dona. Buyurtma № 356

Zebo prints MCHJda chop etildi.
Manzil: Toshkent shahar, Yashnobod tumani,
22-harbiy shaharcha

